



# ONA TILI

7



**Sh. Karimova, O. Maxmudova,  
D. Akbarova, G. Azimova**

# **O N A T I L I**

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan  
maktab va maktab-internatlarning 7-sinfi uchun darslik*

2-nashr

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi tomonidan tasdiqlagan

TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2015

811.512.133(075)

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.2O'zb

O-58

Taqrizchilar: *V. S. Raxmanova*, Nizomiy nomidagi TDPU maxsus ta'lim metodikalari kafedراسi professori.  
*S. Turdiyeva*, Toshkent shahar 25-sonli maxsus maktab o'qituvchisi.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan chop etildi**


Ona tili. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining 7-sinfi uchun darslik. 2-nashr/Sh. Karimova, O. Maxmudova, D. Akbarova, G. Azimova – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015. – 160 b.

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.2O'zb

ISBN 978-9943-4317-6-8

- © «Arnaprint» MChJ, 2007-y.
- © Sh. Karimova, O. Maxmudova, 2015-y.
- © «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015-y.



1044402  
381

## **MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI**

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,  
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo?  
Nechun Vatan deya yer-u osmonni  
Muqaddas atayman, atayman tanho?  
Aslida, dunyoda tanho nima bor,  
Paxta o‘smaydimi, o‘zga elda yo?  
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?  
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.  
Men nechun sevaman O‘zbekistonni,  
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,  
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men  
O‘paman: «Tuprog‘ing bebaho Vatan!».



# TAKRORLASH

---

## SODDA VA QO'SHMA GAPLAR

**1-mashq.** *O'qing. Qo'shma gaplar qaysi sodda gaplardan tuzilganini ayting, vergulning qo'yilishi sababini tushuntiring.*

1. Ichkaridan ovoz eshitilar, lekin so'zlari anglanilmas edi. 2. Daraxtlarning tanalariga hayot suvi yugurdi, ko'm-ko'k barg'lar mavj ura boshladi. 3. Eshik g'irch etib ochildi va ruxsat so'rab Alisherning ukasi kirdi. 4. Yomg'ir tindi, ammo ko'cha shamol va sovuq edi. 5. Marhamat keldi, biroq gap-so'z to'xtamadi. 6. Rais astoydil baqirdi, ammo shovqin bosilmadi.

**2-mashq.** *Quyidagi gaplarni ko'chiring, vergulning qo'yilishi sababini tushuntiring.*

1. Yomg'ir tindi, ammo jo'yaklardan suv hali ham shildiramoqda edi. 2. Sharifa shoshilib chiqib ketdi, lekin hadeganda undan darak bo'lmadi. 3. Bahor erta keldi, shuning uchun soylar va ariqlar to'lib-toshib oqardi. 4. Bu yilgi bahor seryomg'ir kelgan, shuning uchun ekilgan bug'doy bexato unib chiqqan edi. 5. Anhorga to'lib suv keldi, shuning uchun hamma shod edi. 6. Olim bo'lsang, olam seniki.

**3-mashq.** *Quyidagi qaplarni ko'chiring. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar tagiga chizing.*

Yomg'ir yog'di. Farhod dalaga bordi. Lola dam oldi. Gullar ochildi. Qor yog'di. Bahor keldi.

**4-mashq.** *Gaplarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.*

1. Nasiba **hammani** hurmat qiladi. 2. Rustam **bobosiga** yordamlashdi. 3. Qushlar **yoqimli** sayraydi. 4. Qushlar **issiq tomonlarga** uchib ketdi. 5. **Bog'da** turli gullar ochilgan. 6. Shuhrat **qushlarga** don sochdi.

**5-mashq.** *Rasmlarni diqqat bilan kuzating. «Mohir qo'llar to'garagida» mavzusida hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

**Reja:**

1. Mohir qo'llar to'garagida.
2. To'garagimiz rahbari haqida.
3. Biz yasagan buyumlar.
4. Bizning ko'rgazmamiz.



## GAPNING BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

*6-mashq. O'qing. Matn nechta gapdan tuzilganligini aniqlang.*

1991-yilning 31-avgusti tarix sahifalariga oltin harflar bilan yozildi. Chunki shu kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilindi. Shu yildan boshlab birinchi sentabr Mustaqillik bayrami va dam olish kuni deb belgilandi.

*7-mashq. Gaplarning boshlanishi va oxirini aniqlang. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'yib ko'chiring. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yozilishini unutmang.*

### YOZDA

O'quvchilar yozgi ta'tilga chiqdilar ular so'lim oromgohlarda dam oldilar zilol suvlarda mazza qilib cho'mildilar tog'larga sayohatlarga chiqdilar yozda tabiat qo'ynida kuchlariga kuch, g'ayratlariga g'ayrat qo'shib uyga qaytdilar.

*8-mashq. O'qing. Berilgan so'zlardan gap tuzing.*

Keldi, kuz, oltin, fasli.

Yig'im-terim, dalalarda, qizib, ishlari, ketdi.

Terimchilar, ilg'or, paxtani, termoqdalar.

Paxtalar, terildi, mashinada.

G'o'zapoyadan, dala, tozalandi.

Haydovchi, traktor, yerni, bilan, haydadi.

*9-mashq. Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.*

1. O'qidi, Rustam, qiziq, kitob. 2. Shudgor, kuzgi, dalada, boshlandi. 3. Tutdi, kapalakni, ukam. 4. Pishdi, sarg'ayib, shaftoli. 5. Keldilar, o'quvchilar, bog'iga, maktab.

shudgor

**10-mashq.** *Quyidagi rasmlarni kuzating. Har bir rasmning mazmunini bitta gap bilan ifodalang. Tuzgan gapingizni yozib, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq, ikkinchi darajali bo'lakning tagiga to'liqlik chiziq chizing.*





**11-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering va ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring.*

### MEHMON KUTISH

Dilnozalarnikiga mehmonlar keldi. Oila a'zolari ularni xursand bo'lib kutib oldi. Buvijonisining har qadamda ta'kidlashicha, «mezbonning qandayligi ostonadan bilinadi». Shuning uchun ham Dilnoza mehmonlar kelguncha ostonalarni tozalab supurdi. Eshik tutqichlarini yarqiratib artdi. Mehmonlar kelishgach, oyoq kiyimlarini tartib bilan bir chetga terib, changlarini artdi.

### GAPNING MAQSADIGA KO'RA TURLARI

**12-mashq.** *Berilgan so'zlardan foydalanib gap tuzing va yozing. Gaplarning qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

1. Qani, oyijon, supurgi? 2. Ko'p, kitob, juda, kutubxonada. 3. Gazlamalar, turli, paxtadan, to'qiladi. 4. Siz, yashaysiz, ko'chada, qaysi? 5. Tozaladi, Yulduz, tishini. 6. Shahar, qanday, Toshkent?

**13-mashq.** *O'qing. Darak, so'roq, undov gaplarni aniqlang.*

*M. Qo'shoqov*

### SVETOFOR SO'ZI

– Hoy, ko'chamiz ustida  
Chaqnagan go'zal fonar!  
Nega yalt-yult yonasan,  
Bizga qanday foydang bor?

Fonar asta jilmayib,  
Dedi: – O‘zing sinab ko‘r!  
Bilsang mening otimni  
Deyishadi «Svetofor».

14-mashq. *O‘qing. Har bir gapning boshi va oxirini aniqlang.*

## SHAHAR



Shahar chiroyli va ozoda shaharda ko‘p qavatli uylar bor keng ko‘chalarda mashinalar qatnab turadi gulzor va xiyobonlarga haykallar qo‘yilgan bobomiz Navoiyning haykali ham bor uning atrofi gulzor.

*Har bir gapning oxiriga nuqta qo‘yib ko‘chiring.*

15-mashq. *Tinish belgilariga rioya qilgan holda gaplarni o‘qing. Ularning oxiriga nima uchun undov belgisi qo‘yilganini tushuntiring.*

1. Bahor qanday go'zal fasl! 2. Yozda anhorda cho'milish qanday maza! 3. Mustaqilligimiz boqiy bo'lsin! 4. Biz o'z Vatanimiz bilan faxrlanamiz! 5. Bilim manbai bo'lgan kitobni seving! 6. Gulla, yashna, hur O'zbekiston!

**16-mashq.** *She'rni ifodali o'qing. Yoddan yozing.*

### **QUSHCHA**

Uchadi qushcha,  
O'ynaydi qushcha.  
Qo'shiqlar aytib,  
Sayraydi qushcha.

#### **? Bo'lim yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Gaplar maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Ular qanday mazmun bildiradi?
3. Darak gapga misol keltiring.
4. So'roq gapga misol keltiring.
5. Buyruq va his-hayajon gaplarga misol keltiring.
6. O'zingiz gap tuzing va uning bosh bo'laklarini ayting.
7. Ega deb nimaga aytiladi? Kesim nimani bildiradi?
8. Ikkinchi darajali bo'lak gapda qanday vazifani bajaradi?

## SO‘Z TARKIBI

### O‘zak va o‘zakkdosh so‘zlar

**1-mashq.** *So‘zlarni o‘qing. Juftlab berilgan so‘zlar nimasi bilan bir-biriga o‘xshashini ayting. Ularni yozing, umumiy qismini namunada ko‘rsatilgandek belgilang.*

N a m u n a: *bog’ – bog’bon*

Gul – gulchi, tuz – tuzsiz, paxta – paxtakor, do‘st – do‘stlik, tug – tugma, ter – terim.

Barcha yaqin ma‘noli so‘zlardagi umumiy qism o‘zak deb ataladi: *gul, gulli, gulchi, gulla, guldor, guldon.*

O‘zaklari bir xil bo‘lgan so‘zlar o‘zakkdosh so‘zlar deyiladi: *paxta, paxtakor, paxtazor, paxtali.*

O‘zakkdosh so‘zlarning umumiy qismi bir xil yoziladi: *ter, terim, terimchi.*

**2-mashq.** *Quyidagi maqollardagi o‘zakkdosh so‘zlarni toping. Ularni yonma-yon yozing. O‘zakni belgilang.*

1. Befoyda so‘zni aytma, foydali so‘zdan qaytma.
2. Bilgan topib gapirar, bilmagan qopib.
3. So‘zi so‘zga o‘xshamas, og‘zi so‘zdan bo‘shamas.
4. Chaqirmagan joyga borma, chaqirgan joydan qolma.
5. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

O'zakni mana bunday belgilang: *bog'bon*

3-mashq. *O'qing. O'zakdosh so'zlarni alohida-alohida ko'chiring, o'zakni belgilang.*

Paxtakor, qadrdon, paxtazor, do'st, qadrlamoq, o'ychan, paxtachilik, o'ylamoq, do'stlik, qadrli, o'yla.

4-mashq. *O'qing. Ko'chiring, kitob so'ziga o'zakdosh so'z toping.*

*Zafar Diyor*

### **KITOB, MENING DO'STIMSAN**

Yosh o'ynoqi ko'zlarim  
Shuur olar kitobdan.  
Tashkil topib so'zlarim,  
Baxtim kular kitobdan.  
Shuning uchun deymanki,  
Kitob, mening do'stimsan!

5-mashq. *O'qing. O'zakdosh so'zlarni aniqlab ko'chiring va o'zakni tegishlicha belgilang.*

### **MUSTAQILLIK BAYRAMI**

Har yili 1-sentabrni orziqib kutaman. Chunki shu kuni Mustaqillik bayramini nishonlaymiz. Uyimizda bayramga tayyorgarlik avvaldan boshlanadi. Faqat biznikida emas mahallarnizda, tumanimizda, shahar, viloyatlarda – Vatanimizda bayramga puxta tayyorgarlik ko'riladi. Bayram katta shodiyona bilan o'tadi.

## Soʻz yasovchi qoʻshimchalar

**6-mashq.** *Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar tarkibidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalarni aniqlang.*

1. Toshkent – **Oʻzbekistonning** poytaxti.
2. **Gulzor** uchun joy ajratishdi.
3. **Paxtazorda** juda koʻp terim mashinalari ishladi.
4. Amir Temur bobomiz umr boʻyi **adolatli** davlat uchun, millat birligi uchun kurashganlar.
5. **Oʻzbekiston** ona yurt, Dunyo durdona yurt.
6. **Mehnatsiz** rohat yoʻq.

Oʻzakka qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz hosil qiladigan qoʻshimchalar **soʻz yasovchi qoʻshimchalar** deyiladi. Masalan: *Oʻzbeki<sup>stoh</sup>, bogʻbon<sup>o</sup>, paxtak<sup>or</sup>, maysaz<sup>or</sup>.*

**-chi, -la, -li, -siz, -chan, -zor, -dosh, -iston, -kor, -dor, -bon** kabi qoʻshimchalar **soʻz yasovchi qoʻshimchalardir**. Bunday qoʻshimchalar yordamida yasalgan soʻzlar **yasama soʻzlar** deyiladi.

**7-mashq.** *Nuqtalar oʻrniga -siz, -la, -li, -zor soʻz yasovchi qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring. Oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni namunadagidek belgilang.*

N a m u n a: *sonsiz*


1. Aql... oʻzini ayblar,  
Aql... – doʻstini.
2. Dorivor oʻsimliklar dalalarda, bogʻlarda, ekin...larda, oʻrmonlarda va togʻlarda oʻsadi.
3. Transportda nogironlarga, yosh bola... ayollarga va keksalarga joy bering.
4. Bahorda

shahar va qishloq ko'chalarida ish qaynaydi: meva... va manzara... daraxt ko'chatlari ekiladi. 5. Odob... bola shirinso'z va xushfe'l bo'ladi.

**8-mashq.** *Har bir so'zning o'zagini va so'z yasovchi qo'shimchasini toping.*

Sinfdosh, paxtazor, lavlagizor, bog'dor, guldor, bilimli, bilimdon, tuzdon, kasbdosh, ishchi, ekinzor, ishchan, guldor, Tojikiston, maktabdosh.

**9-mashq.** *Quyida berilgan so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib, yangi so'zlar yasang va ularning ma'nolarini tushuntiring. Shu so'zlar ishtirokida to'rtta gap tuzing.*



**kasbdosh**

**10-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*

1. **Nonsiz** yashab bo'lmas, **gapni** oshab bo'lmas.  
2. **Tikansiz** gul bo'lmas, **mashaqqatsiz** — hunar. 3. **Ilmsiz** bir yashar, **ilmli** — ming yashar. 4. Benuqson do'st axtargan — **do'stsiz** qolar. 5. Savolni javobsiz qoldirma, do'stni — **e'tiborsiz**. 6. Vafoli do'st yo'lga solar, **vafosiz**

do'st yoldan urar. 7. **Kuchli** bo'lay desang, sport bilan shug'ullan.

**11-mashq.** *Berilgan so'zlarga so'z yasovschi qo'shimchalar qo'shish bilan o'zakdosh so'zlar yasang va namunadagidek yozing.*

N a m u n a: Odob, odobli, odobsiz.

Paxta, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Suv, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Tish, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Tuz, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Bilim, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

### So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar

**12-mashq.** *Ko'chiring. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.*

*G'ayratiy*

### **BOYCHECHAK**

Bahordan berding darak,  
Oson bo'lmadi kutmak,  
Senga talpingach yurak,  
Sevgan gulim boychechak.

Yerdan tortqilab Quyosh,  
Siynang uzra qo'ydi bosh.  
Yasantirding tog'-u tosh,  
Chiroyda sen oy chechak.



Gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydigan qoʻshimchalar soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar deyiladi.

Otlarga qoʻshiladigan **-ning, -ni, -ga, -da, -dan** qoʻshimchalari, feʼllarga qoʻshiladigan **-m, -man, -ng, -ngiz, -k, -miz** kabi qoʻshimchalar soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalardir. Masalan: *Oydin sheʼrni yodladi. Biz qiziq oʻyin oʻynadik.*

**13-mashq.** Nuqtalar oʻrniga soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

### JALOLIDDIN MANGUBERDI

Vatanimiz tarixi... juda koʻp qahramonlar, mard, botir, yengilmas insonlar oʻtganlar. Ular tugʻulib oʻsgan yurti... sevganlar. Ona-Vatani... dushman... qoʻriqlaganlar. Yov bostirib kelganida shu aziz tuproq uchun kurash... otlanganlar.

Ana shunday kuchli, bahodir insonlar... biri Jaloliddin Manguberdidir. Xorazm... Chingizxon bostirib kirganida, u yigirma besh yoshlardagi yigit edi. Xorazmshoh Xorazm davlati taqdirini Jaloliddin... ishonib topshirdi. U Vatan ozodligi uchun kurashib yashagan jasur vatanparvardir.

Biz Jaloliddin Manguberdi kabi milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanamiz.

mard

**14-mashq.** Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardagi soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalarni aniqlang.

1. **Boshingga** qilich kelsa ham, toʻgʻri gapir.
2. **Igʻvogarning** oʻzi yomon, **oʻzidan** ham soʻzi yomon.

3. **Botirdan** yaxshi ish qolar, **donodan** – yaxshi so‘z.
4. **Yaxshining** so‘zi – qaymoq, **yomonning** so‘zi – to‘qmoq.
5. Befoyda **so‘zni** aytma, foydali **so‘zdan** qaytma. 7. Uyat **o‘limdan** yomon.

*15-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ko‘chirib, so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.*

### UMID VA DARAXT

**Maktabimizda** Umid degan bola bor. U aqlli, mehnatkash bola. Umid bo‘sh vaqtlarida bog‘dagi **daraxtlarning** tagini chopadi, suv quyadi, ekinlarni parvarishlaydi. Umid o‘z qo‘li bilan gullar ekdi. **Bahorda** gullar ochilganini ko‘rib, Umid juda xursand bo‘lib ketdi.

– Barakalla bolam, **gullaring** juda chiroyli ochilibdi, – dedi kimdir.

– Voy, kim gapiryapti? – hayron bo‘ldi Umid.


– Men – daraxtman.

– Daraxtlar ham gapiradimi?

– Ha, **bizning** ham jonimiz bor. Ba‘zi bolalar buni tushunsalar yaxshi bo‘lar edi.

parvarishlamoq

*16-mashq. So‘zlarni o‘qing. Bir xil o‘zakli so‘zlarni guruhlab yozing va o‘zaklarini belgilang.*



Otboqar, bog'cha, hayvon, gulzor, don, otlanmoq, hayvonot, dorilangan, donxo'rak, donladi, bog'bon, guldasta.

**17-mashq.** *Berilgan so'zlarni so'z tarkibi jihatdan tahlil qiling, quyidagi jadvalga joylang.*

So'z	O'zak	So'z yasovchi qo'shimchalar	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar
baliqchi	baliq	-chi	–

Gulchi, kitobni, guldon, tuzsiz, masalani, gulzorim.

**18-mashq.** *O'qing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha olgan so'zlarni chap tomonga, so'z yasovchi qo'shimcha olgan so'zlarni o'ng tomonga ustun shaklida yozing.*

Odobli, kitobdan, aqlsiz, bolali, Turkmaniston, oldik, ko'chada, baxtli, mevazor, maktabni, Qirg'iziston, olmazor, bobomning, buvimga.

**?** **Bo'lim yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. O'zak nima? O'zakkdosh so'zlar-chi?
2. O'zakkdosh so'zlarga misollar keltiring.
3. Qanday qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi?
4. Misollar ayting.
5. Qanday qo'shimchalar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar deyiladi?
6. Ular gapda nima uchun qo'llanadi?
7. Misollar ayting.

## SO‘Z TURKUMLARI

Bizning nutqimiz **gaplardan**, gaplar **so‘zlardan** tuziladi.

Har bir so‘z ma‘lum so‘z turkumiga oid bo‘ladi.

**Ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish** so‘z turkumlaridir.

**19-mashq.** *O‘qing. Avval otlarni, keyin sifatlarni, so‘ng fe‘llarni ko‘chiring.*

Choy o‘simligi juda shoxlanib o‘sadigan buta bo‘lib, silliq qattiq barg chiqaradi, guli chiroyli, oppoq bo‘ladi.

Qora dengiz bo‘ylaridagi bog‘larda limon, mandarin, apelsin yetishtiriladi. Bu mevalar lazzatli bo‘lishidan tashqari, foydali hamdir.

**20-mashq.** *She‘rni o‘qing. So‘roqlar yordamida ot, sifat, son va fe‘llarni aniqlang.*

*Ahad Po‘latov*

### OYBARCHIN

Uy rasmin chizdi  
Qizcham Oybarchin.  
Juda chiroyli  
Dersiz: go‘yo chin.

Ko‘kka bo‘y cho‘zgan  
To‘qqizta qavat.  
Qoyil qolasiz  
Ko‘rganda behad.

Har bir qavatda  
Oynalari bor.  
Atrofi gulzor  
Misoli bahor.

**21-mashq.** *O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, fe'l va sonlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring, ularning imlosiga diqqat qiling.*

Ozod, oppoq, qor, ko'kardi, daftar, mard, dada, dori, Dilbar, Behzod, o'qidi, yordam berdi, darcha, yasadi, besh ming, suyuq, urdim, olti, shirin, qand, sut, Toshkent, birinchi, barkash, o'n, o'ynayapti.

ot	sifat	son	fe'l
Kim? kimlar? nima? nimalar?	qanday? qanaqa?	qancha? necha? nechta? nechanchi?	nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?
<i>qor</i>	<i>oppoq</i>	<i>besh ming</i>	<i>ko'kardi</i>

**22-mashq.** *O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, fe'llarni aniqlang.*

*Nurilla Ostonov*

### MANZARA

Tilla bandli yaproqlar  
Dov-daraxt-la xushlashar.  
Bargixazon fasl bu,  
Kuz qish bilan duchlashar.

Yuklaridan bo'shanib  
Olgan cheksiz dalalar.  
Quchog'ida o'ynaydi,  
Qirmiz yuzli bolalar.

**23-mashq.** *O'qing. Ot, sifat, son olmosh va fe'llarni aniqlang. Sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan yonma-yon ko'chiring.*

1. Shu deng, Nigina bilan ikkimiz uyda qoldik. 2. Nigina bir o'zim o'tiramanmi, degandek, qo'g'irchoqlarini karavotim oldiga to'pladi. 3. Nigina qo'limdan tortdi: –Dadajon, turing. Do'kondan shokolad olib bering. Keyin hayvonot bog'iga boramiz. Men bilan yursangiz ko'zlaringiz katta-katta, qo'l-oyoqlaringiz uzun-uzun bo'ladi. 4. Mezbonning uylariga kirishi bilan salom berdi. 5. Oyoq kiyimini bir chekkaga yechdi. 6. Jalol kambag'al bir duradgorning o'g'li edi.

*24-mashq. O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, fe'llarni aniqlang. Sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

*Ahad Po'latov*

### **BU BAQAMI, QURBAQA?..**

Bu baqami, qurbaqa?..

Ayting o'zi qanaqa?

Terisi yashil, ola,

Ko'zlari-chi qop-qora.

Tili uzun, yopishqoq,

Kelib ko'ring yaqinroq.

Uzun ikki oyog'i,

Juda silliq har yog'i.

Ikkisi kalta biroz,

Harakatda juda soz.

*25-mashq. Ko'chiring. Otlarni, sifatlarni aniqlang. So'roqlar yordamida bosh bo'laklarni topib, tagiga tegishlicha chizing.*

1. O'quvchilar bolalar yozuvchilari bilan uchrashishdi.  
2. Buvim bilan bobom Buxoroda yashaydi. 3. Men bog'bon bo'laman. 4. Biz yozda Xumson qishlog'ida dam olamiz. 5. Ustozimiz Humo qushi haqidagi afsonani aytib berdilar. 6. Men qishloqda Bahodir ismli bola bilan do'stlashdim.

rahmat

**26-mashq.** *Chiziqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, maqollarni o'qing. Shu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'lishini va qaysi so'z turkumiga oidligini ayting.*

1. Ilmsiz \_\_\_\_\_ yashar, ilimli ming yashar. 2. Bir yigitga \_\_\_\_\_ hunar oz. 3. Hunar zar, \_\_\_\_\_ – xor. 4. Oltin yo'lda qolsa ham, \_\_\_\_\_ yo'lda qolmas. 5. Bilimlining yo'li – nur, bilimsizning ko'zi \_\_\_\_\_. 6. Tikansiz gul bo'lmas, \_\_\_\_\_ hunar.

Qo'yish uchun so'zlar: *bir, hunarsiz, yetmish, bilim, ko'r, mashaqqatsiz.*

**27-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga oidligini aniqlab ayting. Shu so'zlar bog'lanib kelgan otlarni toping.*

1. **Zaharli** shirasi bo'ladigan o'simliklarning foydasi bo'lishi ya'ni ular ko'pgina kasalliklarga davo bo'lishi mumkinligini odamlar qadim zamonlardan bilar edilar. 2. Bodom va pistaning mevasi juda **mazali** va **to'yimli**, **shifobaxsh** xossalarga ega. 3. Balandlik tobora **tik** ko'tarilib boradi. 4. **Top-toza**, **muzdek** suv oqib kelayotgan jilg'a va soylar tobora ko'proq uchraydi. 5. Tog'larda **yuqori**

ko'tarilib borgan sayin o'simlik va hayvonlar dunyosi sezilarli darajada o'zgarib boradi. 6. Eng **baland** tog'lar Tyanshan va Pomir tog'lari hisoblanadi.


hamshira

**28-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'z topib, jufti bilan yozing. Ularning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.*

Sovuq, bilim, belbog', sabzi, oppoq, **katta**, **keng**, ko'rinadi, **bor**, **kamtar**, kapalak, qish, **uzun**, ariq, yorug', handalak, rahmat, kecha, harf.

**29-mashq.** *Topishmoqlarni o'qib, javobini ayting. Sonlarni topib, ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga yozing.*

1. Bir o'ra, bir o'rada ming o'ra.



2. Devorda bor so'zanam,  
Unda yashar keng olam.

3. O'zi bitta, qulog'i to'rtta.





**30-mashq.** *O'qing. Avval otlarni, keyin sifatlarni, so'ng fe'llarni ko'chiring.*

Daryolar bo'yida va o'rmonlar ichidagi yalangliklarda mollar uchun to'yimli oziq bo'ladigan o'tlar o'sadi. Oziqning mo'l-ko'lligi bu yerlarda chorvachilik bilan shug'ullanishga – sigir, qo'y, echki boqishga imkon beradi. Parrandachilik fermalarida tovuq, o'rdak, g'oz boqiladi. O'rmon zonasi qo'shni respublikalarni sariyog', go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlab turadi.

**31-mashq.** *Matematik she'riy topishmoqlarni o'qib, javobini ayting. Sonlarni topib, ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ayting. Ot, sifat, fe'llarni aniqlang.*

1. O'ynar uchta qiz bola,  
Go'yo ochilgan lola.  
Do'stlari keldi beshta  
Ayt, ular bo'ldi nechta?
2. Bog'dan terdik nok, olma,  
Tingla, eshitmay qolma!  
Besh savat edi yarmi,  
Qancha bo'ladi jami?
3. Paxta terdik beshta qiz,  
O'nta edik hammamiz.  
Nechta ekan qolgani,  
Sayohatga borgani?
4. Lolalardan bir pasda  
Yasab qo'ydik guldasta.  
Mehmonlarga to'rttasin  
Bolalarga uchtasin

Taqdim etdik kecha biz  
Nechta jami, ayting siz?

5. O'tlab yurar besh sigir,  
Biri qora, ko'r Sobir,  
Ola-bula uchtasi  
Ayt-chi, qizil nechiasi?

*Ahad Po'latov*

## OT – SO‘Z TURKUMI

Predmet nomini bildirib, kim?, kimlar? yoki nima?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ot deyiladi. Masalan: *Shohida, olimlar, oshpaz, qaychi, daftarlar.*

Otlar birlikda (*o'quvchi*) va ko'plikda (*o'quvchilar*) qo'llanadi.

Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan nomlar **atoqli otlar** deyiladi.

Kishilarning ismi va familiyasi (*Dilfuza Mirzayeva, Abbas Karimov*), hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar (*Targ'il, Yo'lbars, Mitti*), shahar (*Buxoro, Samarqand*), ko'cha (*Ahmad Donish, Amir Temur*) nomlari **bosh harf** bilan yoziladi. Bir turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirgan otlar **turdosh otlar** deyiladi. Masalan: *shahar, tuman, hayvon, maktab.*

**32-mashq.** *Otlarni aniqlang, shahar nomlarini ko'rsatuvchi otlarni ko'chirib yozing.*

## TARIX TILMOCHI

Xiva, Termiz, Buxoro  
Ona tarix tilmochi.  
Shahrisabz-u Samarqand  
Shular bilan egachi.

Toshkentdan hech kam emas,  
Andijonday azim joy.  
O'quvchim, o'ylab yozing,  
Nom-nishonga ular boy.

*33-mashq. O'qing. So'roq yordamida otlarni aniqlang. Ajratib ko'rsatilgan otlarning nima uchun bosh harflar bilan yozilganini tushuntiring.*

## KO'HNA SHAHARLAR

**Shahrisabz** – ko'hna shahar. Shaharda Oqsaroy bor. **Oqsaroy**ni Temur bobo qurdirganlar. Shahrisabz – obod, ko'rkam maskan. Unda masjid, madrasalar qad ko'tarib turadi. Shaharga sayyohlar kelib turadi.

**Qarshi** – obod, ko'rkam, qadimiy shahar. Uni avvallari **Nasaf**, **Naxshab**, **Behbudiy** deb atashgan. Qarshi shahridan temir yo'l o'tadi. Temir yo'l **Qarshini Toshkent**, **Farg'ona**, **Samarqand**, **Buxoro** shaharlari bilan bog'laydi.

## Atoqli va turdosh otlar

*34-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlar kim va nimalarning nomi ekanligini ayting. Nima uchun bosh hatf bilan yozilganini izohlang.*

## QOPLON

**Sirojiddin** mushugi **Mittiga** sut berdi. Qarasa, **Qoplon** ismli iti ko'rinmaydi. U ko'chaga chiqdi. **Qoplonni** ko'chada uch-to'rt bola qiynayotgan ekan.

– Nega jonivorni qiynayapsizlar? **Qoplon** sizlarga nima yomonlik qildi? – dedi bolalarga. Shunday qilib, **Sirojiddin Qoplonni** qutqardi.

*35-mashq. O'qing. Bosh harf bilan yozilgan so'zlarni aniqlang va nima uchun bosh harf bilan yozilganini tushuntiring.*

### MUSTAQILLIK SOLNOMASI

- 1991-yil 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.
- 1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasdiqlandi.
- 1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasdiqlandi.
- 1992-yil 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.
- 1992-yil 10-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

*36-mashq. O'zingiz sevgan yozuvchi, shoir, shahar, tuman hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarga uchtadan misol yozing.*

1. Yozuvchi va shoirlar nomlari:
2. Shahar nomlari:
3. Tuman nomlari:
4. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar:

## Birlik va ko'plikdagi otlar

**37-mashq.** *O'qing. So'roqlar yordamida birlik va ko'plikdagi otlarni aniqlab ayting. Ko'plikdagi otlarni birlikka aylantirib yozing.*

*Shukur Sa'dulla*

### TURNALAR

– Biz turnalar, olisdan,  
Uzoq eldan kelamiz.  
Bulutlarning ustidan  
Shamolday tez yelamiz.  
Dengizlardan, tog'lardan,  
Daryolardan, bog'lardan,  
Ko'llardan, kanallardan,  
Soylardan, saroylardan,  
Qishloqlardan, ellardan.  
Oshib, sizga uchamiz,  
Yurtingizni quchamiz.

**38-mashq.** *O'qing. Otlarni aniqlang, birlik va ko'plikda otlarni ikki guruhga ajratib, bosh kelishikda yozing.*

Tog', o'rmon, o'tloq va qoyalarda turli-tuman hayvonlar yashaydi. Tog' tepaligida tog' echkilari uchraydi. Qorga yaqin joylarda ba'zan oq qoplon uchrab turadi. O'rmonlarda yovvoyi cho'chqalar, bug'ular yashaydi. Tog'da ko'plab qushlar hayot kechiradi. Tog' etaklaridagi toshlar, harsanglar orasida qora ilon, kobra va boshqa ilonlar yashaydi.

harsang

**39-mashq.** *Birlikdagi otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirib ko'chiring. Shu ko'plikdagi otlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.*

G'oz, tog', g'ildirak, xumdon, daraxt, xola, taxta, tosh, jo'ja, jadval, mushuk, idish, beshik, bolish.

### Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi

**40-mashq.** *Gaplarni o'qing. Otlarni aniqlang. Egalik qo'shimchalari tagiga chizing.*

1. Opam yangi kitob olib berdi.
2. Bolalar, maktabingizni ozoda tuting.
3. Topishmoqning javobini topdilar.
4. Buvim oltmish yoshga to'ldilar.
5. Darsimni puxta tayyorlayman.
6. Bu yil paxtadan mo'l hosil olindi.

Egalik qo'shimchalari predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildiradi.

Egalik qo'shimchalari oxiri unli bilan tugagan otlarga birlikda **-m, -ng, -si, ko'plikda -miz, -ngiz, -lari** shaklida, oxiri undosh bilan tugagan otlarga esa birlikda **-im, -ing, -i, ko'plikda -imiz, -ingiz, -lari** shaklida qo'shiladi.

### Egalik qo'shimchalarining jadvali

Shaxs	Birlik		Ko'plik	
	unlidan keyin	undoshdan keyin	unlidan keyin	undoshdan keyin
I shaxs	-m	-im	-miz	-imiz
II shaxs	-ng	-ing	-ngiz	-ingiz
III shaxs	-si	-i	-si	-lari

**41-mashq.** *Gul, qalam, uka otlariga I, II, III shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalaridan mosini qo'shib so'zlarni o'qing. Jadvaldan foydalanib so'zlarni yozing.*

Shaxslar	Undoshdan keyin	Unlidan keyin
I shaxs	<i>gul...</i>	<i>uka...</i>
II shaxs	<i>gul...</i>	<i>uka...</i>
III shaxs	<i>gul...</i>	<i>uka...</i>

**42-mashq.** *Jadvalda berilgan otlarni o'qing. Ularga qo'shilgan egalik qo'shimchalariga diqqat qiling.*

Shaxslar	Undoshdan keyin	Unlidan keyin
I shaxs	<i>darsim, darsimiz</i>	<i>mahallam, mahallamiz</i>
II shaxs	<i>darsing, darsingiz</i>	<i>mahallang, mahallangiz</i>
III shaxs	<i>darsi, darslari</i>	<i>mahallasi, mahallalari</i>

**43-mashq.** *She'rni ko'chiring, qo'shimchalarning tagiga chizing.*

*O. Xolmirzayev*

### **OLAQARG'A**

Olaqarg'a qag' dedi,  
 Mening vaqtim chog' dedi.  
 Sevgan uyim daraxt-u,  
 O'ynar yerim bog' dedi.

Olaqarg'a qag' dedi,  
 Mening vaqtim chog' dedi.

Mehmon kelar uyingga,  
Ko'rpachangni qoq dedi.

*44-mashq. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

*T. Akbarxo'jayev*

**Qo'g'irchog'im** Hilola,  
Yur teraylik gul-lola!  
Qara, keldi, navbahor,  
Erib ketdi oppoq qor.

*O'tkir Rashid*

Chaman-chaman gullarga,  
Sayroqi bulbullarga,  
Toshqin daryo, ko'llarga  
Boydir go'zal **Vatanim.**

Yagonadir **chiroying,**  
El **bag'ridek bag'ring** keng,  
Sen hayot, ilhom berding,  
Bor bo'l go'zal **Vatanim.**

*Egalik qo'shimchasini olgan otlarning qaysi shaxsga tegishli ekanini ayting.*

*45-mashq. Otlarga I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini qo'shib yozing.*

Daraxt, xo'roz, xola, xona, baxt, taxta, hovli, mahalla,  
hushtak, sihat, tufli, qalam, qop, qayiq, qaychi.

*46-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarini aniqlang, ularning yozilishiga e'tibor bering. Ko'chiring.*



O'zbekiston **Vatanim, onam,**  
Gul taralar gulbog'laringdan.  
Oltin beshik, aziz **ostonam,**  
**Baxtim** topdim quchoqlaringdan.

Mustaqillik **bolalarimiz,**  
**Boshimizni** silaydi ko'klam.  
Dil **g'unchasi – lolalarimiz,**  
Go'zallikdan yashnagay olam.

*Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'zaklarini belgilang.*

**47-mashq.** *Quyida berilgan otlarga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib o'qing.*

Qarg'a, quyon, quti, rizq, qoshiq, bog'cha, tog'ora, tog'a, baliq, bilak, kasb, tabiat, bayram.

**48-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarini aniqlang.*

1. O'sha kuni Ubaydulla bobo **nevaralariga** sovg'a olib keldi. 2. Oyijon, mening **sovg'amni** hech kimga ko'rsatmang. 3. **Buvijonlari** bilan tayyorlashgan qovurdoq ustiga barra piyoz sepib olib kelishdi. 4. – **Bolalaring** yordamchi bo'lib qolishdi, – dedi buvijonisi. 5. Yaqinda men shu yerda o'tirganimda tashqaridan bitta gul uchib kirib, **sochimga** qo'nib oldi. 6. **O'rtoqlarim** bilan maza qilib o'ynadik.

**49-mashq.** *O'qing. Egalik qo'shimchalari olgan otlarni aniqlang. Ularning qaysi shaxsga oidligini ayting.*

1. Sobir akam bir kuni ishdan kelayotib, oppoqqina kuchukcha topib olibdilar. 2. Oqtoy kim chaqirsa dumini likillatib, chopib keladigan bo'ldi. 3. Muxlisa ukasini bog'chadan uyga olib keldi. 4. Qarasa, oyisi hali ishdan qaytmagan ekan. 5. – Behzod, kel, – dedi Muxlisa, – oyim kelishlarini kutmay, ikkalamiz ovqat qilib turamiz, bo'ptimi? 6. – Men-chi, Muxlisa opa, sizga paqirchamda suv olib kelaqolaymi? – deb so'radi Behzod.

**50-mashq.** *Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Yo'l... hamisha bexatar bo'lsin! 2. Asli ism... To'ra. 3. Davron qarindosh... bo'ladi. 4. – To'ra, senga gap... bor, – dedi bugun yana. 5. Birov mushug...ni «pisht» demaydi. 6. Kecha badantarbiya o'qituvchi... ham «To'ravoy, sen ko'proq mashq qilishing kerak» deganday bo'luvdi.

badantarbiya

**51-mashq.** *Bog', ona otlariga egalik qo'shimchalarini qo'shib, jadvalga joylang.*

Shaxslar	Birlik		Ko'plik	
	unlidan keyin	undoshdan keyin	unlidan keyin	undoshdan keyin
I shaxs				
II shaxs				
III shaxs				

52-mashq. *Nuqtalar oʻtniga qavs ichida koʻrsatilgan shaxs-sondagi egalik qoʻshimchalarini qoʻyib sheʼrni oʻqing va yozing.*

### OʻZBEKISTON

Koʻzga surtay bayroq... . (II sh., birlik)

Onajon Oʻzbekiston.

Oltin kon tuproq... . (II sh., birlik)

Jonajon Oʻzbekiston.

Oʻzbek... (I sh., koʻplik), dilda gʻurur,

Amir Temur avlod... (III sh., birlik),

Bizlarga doim ibrat,

Bobolarning hayot... (III sh., birlik).

*Sh.Joʻrayeva*

53-mashq. *Oʻqing. Egalik qoʻshimchasini olgan otlarni aniqlab, ularning shaxs va sonini ayting. Topishmoqlarni toping.*

Suhbati shirin doʻstim,

Turgani bilim doʻstim.




Besh ogʻa-ini, qoʻrasi bir, xonasi boshqa.





To'n, ko'ylagim, belbog'im,  
Yerdan ungan boyligim.

Qat-qat ko'ylagi bor, tugmasi yo'q.



Sochi o'sgan, beli bog'langan,  
Ifloslikka qarshi chog'langan.

**54-mashq.** *O'qing. Egalik qo'snimchasini olgan otlarni aniqlab, ularning shaxs va sonini ayting.*

1. Uyidan sayrga chiqqan bir qizcha oyisi bilan yo'lda kelayotib, daraxtdagi qushchalarga ko'zi tushibdi. 2. Eng so'nggi kuchimni yig'ib, oldimda turgan kichik ariqchadan sakrab o'tib oldim. 3. Telpagim bir tomonga uchib ketdi. 4. Tarbiyachimiz Saodat opa ingliz tili mashg'ulotlarini juda qiziqarli o'tadilar. 5. Guruhimizdagi «Jonli tabiat» burchagini o'zimiz bezatganmiz.

**55-mashq.** *She'rni ifodali o'qing. Ko'chirib, egalik qo'shimchalarining tagiga chizing. Qavs ichida shaxs-sonini ko'rsating.*

## AYIG'IM

Ayig'im bor qo'ng'ir tus,  
Alpon-talpon yuradi.  
Daraxtlarni oralab  
Ba'zan hidlab ko'radi.

Bolarilar talasa,  
Ishga solar panjasni.  
Yerga yotib, dumalab  
O'ldiradi anchasin.

Hay-haylayman shunda men,  
Chaqirgancha yonimga.  
Bolariga tegma, deb  
Sherik qilgum nonimga.

*56-mashq. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib o'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarni I, II, III shaxs egalik qo'shimchalari bilan turlab yozing.*

Soya, nafas, **dars**, rasm, kosa, **sandiq**, soyabon, sovun, dazmol, qoshiq, **qo'shiq**, choynak, o'yinchoq, chelak.

*57-mashq. Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'shib, maqollarni ko'chiring. Egalik qo'shimchasining tagiga chizing, shaxs va sonini ayting.*

Do'st do'st...ni kulfatda sinar.

Vaqt... ketdi – baxt... ketdi.

Uy... tor bo'lsa ham,  
Ko'ngil... keng bo'lsin.

Dil... to'g'rining – til... to'g'ri.

Daryo suv...ni bahor toshirar,  
Odam qadr...ni mehnat oshirar.

Do'stsiz bosh... – tuzsiz osh... .

**58-mashq.** *Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, she'rni o'qing va ko'chiring. Egalik qo'shimchasining tagiga chizing, shaxs va sonini ayting.*

### **MENING OYIM**

Mehribon mening oyi...  
Hurmat qilaman, doim.  
Kunday kular yuz...  
Serma'nodir so'z...  
Soch... tolim-tolim  
Ko'z tegmasin iloyim.

**59-mashq.** *O'qing. Egalik qo'shimchalari olgan otlarni ko'chirib, qo'shimchalarini tegishlicha belgilang.*

1. Xalqimizda «otni tepmaydi, itni qopmaydi deb bo'lmaydi» degan naql bor. 2. Tovuqlarning tumshuqlarida, mushuklarning tirnoqlarida terini yallig'lantiradigan, qonni zaharlaydigan mikroblar bor. 3. Itingiz huda-behudaga bezovtalanaversa, darrov kattalarga ayting. 4. Agarda bu jonivorlardan sizga zarar yetsa, betingiz tirnalsa, yashirmang, uydagilarni xabardor qiling.

## OTLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI BILAN TURLANISHI

*60-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'z orqali mehnat so'ziga so'roq bering. Har bir gapdagi mehnat so'zini o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga namunadagidek o'qing.*

N a m u n a: *nimada sinalgan? – mehnatda sinalgan.*

1. Mehnatdan do'st **ortar**,  
Giybatdan – dushman.
2. Mehnatda **sinalgan** elda aziz.
3. G'am-g'ussa mehnatda **yengiladi**.
4. Mehnatdan **qo'rqma**, minnatdan qo'rq.
5. Mehnat bilan **yer unar**,  
Mehnatsiz er **yer bo'lar**.

Otlar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'zlar bilan bog'lanadi. Otlarni boshqa so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar (**-ning, -ni, -ga, -da, -dan**) kelishik qo'shimchalaridir.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi **turlanish** deyiladi.

O'zbek tilida oltita kelishik bo'lib, har bir kelishikning o'z so'rog'i bor.

Qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklarining o'z qo'shimchasi bo'lib, faqat bosh kelishikning qo'shimchasi yo'q.

To'lqini zo'r, dengiz emas,  
Tomiri ko'p daraxt emas.



Suvga tushsa mingta,  
Suvdan chiqsa bitta.

**65-mashq.** *O'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Shu so'zlarning qaysi kelishikda ekanini ayting.*

### **SHER VA SICHQON**

Oqko'ngil sher bir kuni sichqon... yaxshilik qilgan edi. Oradan bir necha kunlar o'tib, sher tasodifan tuzoq... tushib qoldi. Sher... yaxshiligini sichqon es... chiqarmagan edi. U o'tkir tishlari bilan tuzoq... qirqib, o'z najotkori... qutqardi.

**Hissa:**

Yaxshining yaxshiligi tegar tor yer...,  
Yomonning yomonligi tegar har yer... .

**66-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning qaysi kelishikda qo'llanganini ayting. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*



## ODOB

Bir kishi **Luqmoni Hakimdan**: «Odobni kimdan o'rgandingiz?» – deb so'radi. «**Odobni odobsizdan o'rgandim**», – deb javob bergan ekanlar Luqmoni Hakim. «Odobni odobsizlardan qanday o'rgandingiz?» – deb so'rabdi u kishi. Luqmoni Hakim javob berdilar: «Doim **odamlarning qilgan ishlariga, so'zlagan so'zlariga** diqqat bilan qarab yurdim. Kimdan bir yomon so'z eshitsam, shu **so'zni** hech bir so'zlamadim. Kimda-kim bir yomon ish qilsa, shu **ishni** hech bir qilmadim».

odob

*67-mashq. O'qing. Chiziqchalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Bahodir bilan Rustam \_\_\_\_\_ kirdilar. 2. Ikki do'st \_\_\_\_\_ o'rik terib yedilar. 3. Bu \_\_\_\_\_ tuproqqa ko'msak, nima chiqadi? 4. Suhbat ikki \_\_\_\_\_ juda ham ta'sirlantirdi. 5. Yeyayotgan \_\_\_\_\_ ta'mi yanayam shirin tuyulib ketdi. 6. Ko'm-ko'k osmon ularga boqayotgandek, yengil shamol \_\_\_\_\_ silar, \_\_\_\_\_ sevinch yog'ilar edi.

Qo'yish uchun so'zlar: *sochlarini, qalblarida bog'ga, do'stni, o'riklarining, daraxtdan, danaklarni.*

*68-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'shib, gaplarni ko'chiring.*

1. Buvim bilan bobom Buxoro... yashaydi. 2. Yakshanba kuni bozor... bordik. 3. Men hovuz... suv oldim. 4. Nargiza Barno... sovg'a oldi. 5. Malika... Popuk degan mushugi

bor. 6. Men gul... o'qituvchimizga berdim. 7. Sinfimizda kichik-kichik tuvaklar... gullar bor.

**69-mashq.** *Quyidagi rasmdan foydalanib, «Hayvonot bog'ida» nomli hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

Reja:

1. Dam olish kuni edi.
2. Hayvonot bog'iga sayr.
3. Hayvonot bog'ida ko'rganlarimiz.
4. Mening taassurotlarim.



**70-mashq.** *Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning qanday qo'shimchalar olganini ayting.*

### SAYYORALAR

**Quyoshga** eng yaqin sayyora bu – Merkuriydir. Shuning uchun bu sayyorada juda issiq bo'ladi. **Quyoshdan** eng

uzoq sayyora esa – Plutondir. U yerdan **quyosh** deyarli ko‘rinmaydi, u xuddi xira **yulduzga** o‘xshaydi. Merkuriy **Yerdan** birmuncha kichik bo‘lsa ham, Yupiter nihoyatda ulkandir. U bizning **sayyoramizdan** bir ming uch yuz marta kattadir.

*71-mashq. Kelishiklarning nomlari, so‘roqlari, qo‘shimchalarini ko‘rsatuvchi jadvaldan foydalanib, baliq, kasb, Samarqand, Sevara, shifokorlar otlarini turlang.*

*72-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring va yod oling.*

1. Kamtar... kamol,  
Manman... zavol.
2. Ko‘p gap... oz bo‘lsa ham ish yaxshi.
3. Bo‘ri... qo‘rqqan o‘rmon... kirmaydi.
4. Yosh kelsa ish..., qari kelsa osh...
5. Baxil... bog‘i ko‘karmas.
6. Qolgan ish... qor yog‘ar.
7. G‘ayrat – temir arqon... uzar.

*73-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarning qaysi kelishikda qo‘llanganini ayting.*

## OQ QAYIN

Oq qayin – dunyodagi oq «to‘n»li yagona daraxtdir. Oq rang quyosh **nurini** qaytaradi. Shu sababli yozning issiq **kunlarida** ham **oq qayinning** tanasi muzday bo‘ladi. Oq qayinzor salqinligi bilan boshqa o‘rmonlardan farqlanadi. Oq qayin tanasidan shifobaxsh suv olinadi.

bor. 6. Men gul... o'qituvchimizga berdim. 7. Sinfimizda kichik-kichik tuvaklar... gullar bor.

**69-mashq.** *Quyidagi rasmdan foydalanib, «Hayvonot bog'ida» nomli hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

Reja:

1. Dam olish kuni edi.
2. Hayvonot bog'iga sayr.
3. Hayvonot bog'ida ko'rganlarimiz.
4. Mening taassurotlarim.



**70-mashq.** *Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning qanday qo'shimchalar olganini ayting.*

### SAYYORALAR

**Quyoshga** eng yaqin sayyora bu – Merkuriydir. Shuning uchun bu **sayyorada** juda issiq bo'ladi. **Quyoshdan** eng

uzoq sayyora esa – Plutondir. U yerdan **quyosh** deyarli ko‘rinmaydi, u xuddi xira **yulduzga** o‘xshaydi. Merkuriy **Yerdan** birmuncha kichik bo‘lsa ham, Yupiter nihoyatda ulkandir. U bizning **sayyoramizdan** bir ming uch yuz marta kattadir.

*71-mashq. Kelishiklarning nomlari, so‘roqlari, qo‘shimchalarini ko‘rsatuvchi jadvaldan foydalanib, baliq, kasb, Samarqand, Sevara, shifokorlar otlarini turlang.*

*72-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring va yod oling.*

1. Kamtar... kamol,  
Manman... zavol.
2. Ko‘p gap... oz bo‘lsa ham ish yaxshi.
3. Bo‘ri... qo‘rqqan o‘rmon... kirmaydi.
4. Yosh kelsa ish..., qari kelsa osh...
5. Baxil... bog‘i ko‘karmas.
6. Qolgan ish... qor yog‘ar.
7. G‘ayrat – temir arqon... uzar.

*73-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarning qaysi kelishikda qo‘llanganini ayting.*

## OQ QAYIN

Oq qayin – dunyodagi oq «to‘n»li yagona daraxtdir. Oq rang quyosh **nurini** qaytaradi. Shu sababli yozning issiq **kunlarida** ham **oq qayinning** tanasi muzday bo‘ladi. Oq qayinzor salqinligi bilan boshqa o‘rmonlardan farqlanadi. Oq qayin tanasidan shifobaxsh suv olinadi.

**74-mashq.** *She'rni o'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring. Shu so'zlarning qaysi kelishikda ekanini ayting.*

*Cho'lpon*

### **BOYCHECHAK**

Boychechak... bolasi  
O'chdi yuzi...  
Suv... chiqqan xolasi  
Ko'rdi qizi...

Boychechak... bolasi  
Yetimcha bir qiz.  
U... o'gay onasi,  
Juda yomon, tez!

Boychechak... bolasi  
Har uy... kuldi,  
Go'daklar... xaltasi  
Non bilan to'ldi!

**75-mashq.** *Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Qo'shimcha qo'shilgan so'zlarga so'roq bering va kelishigini aniqlang.*

### **HASAN VA QALDIRG'OCH**

Hasan Qaldirg'och ini... uch-to'rtta tuxum olib tushdi.  
– Tuxumlar... joyiga qo'y, bolam, onasi qarg'aydi, – dedi buvisi. Hasan tuxumlar... joyi... qo'ydi. Bir necha kun o'tdi. Qaldirg'och bola ochdi. Uy... qaldirg'och bolalari... ovozi tutdi.

## Bosh kelishik

*76-mashq. O'qing. So'roq berib, bosh kelishikdagi otlarni aniqlang.*

### BOBOKALONIMIZ ALISHER NAVOIY

Bobokalonimiz Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lganlar. 5–6 yoshlaridayoq ko'p she'rlarni yod olganlar.

Bobomiz bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirganlar. Shuning uchun ham buyuk shoirimizni «So'z mulkingning sultoni» deymiz.

*Bosh kelishikdagi otlarning tagiga bir to'g'ri chiziq chizing.*

arbob

Bosh kelishikdagi ot kim?, nima?, kimlar?, nimalar?, qayer?, qayerlar? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi, gapda ega vazifasida keladi.

*77-mashq. Tez aytishlarni o'qing. Bosh kelishik shaklidagi otlarni aniqlab, ularga so'roq bering va gapdagi vazifasini ayting.*

1. O'ktam ko'm-ko'k ko'klam rasmini ko'k qalamda chizmoqchi.
2. Oq ko'ylakka ko'k tugma, ko'k ko'ylakka oq tugma.
3. Ariq labida besh terak, besh terakka suv kerak.
4. G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.
5. Sabiha, Zamira, Sohiba sahifani sinchiklab o'qidi.

**78-mashq.** *Ko'chiring. Bosh kelishikdagi otlarni topib, tagiga bir to'g'ri chiziq chizing.*

### **O'JAR JO'JA**

Donmakon degan joyda ona Tovuq, Xo'roz va ularning bir qancha jo'jalari bor ekan. Jo'jalar orasida bir chipor jo'ja bo'lib, u juda maqtanchoq va o'jar ekan. Oradan ko'p o'tmay o'jar Jo'ja tashqariga chiqib, o't-o'lanlar orasiga kirib ketibdi. Yuraveribdi, yuraveribdi. Qarasa, daryoda bir gala g'oz cho'milayotgan ekan. Shunda Chiporvoy maqtanmoqchi bo'lib, o'zini suvga tashlabdi. Suv uni oqizib keta boshlabdi. G'ozlar chiporni qutqarib olishibdi.

**79-mashq.** *O'qing. Chiziqlar o'rniga bosh kelishik shaklida berilgan otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Opam yangi \_\_\_\_\_ olib berdi. 2. Bu yil \_\_\_\_\_ hosili mo'l bo'ldi. 3. \_\_\_\_\_ qo'ylarni poylab yotardi. 4. \_\_\_\_\_ osmonda uchyapti. 5. To'kilgan paxtalarni \_\_\_\_\_ terdilar. 6. Men \_\_\_\_\_ bilan «G'afur G'ulom» bog'iga bordik.

Qo'yish uchun so'zlar: *paxta, Olapar, kitob, Barno, paxtakorlar, kaptar.*

**80-mashq.** *Matnni o'qing. So'roqlar yordamida bosh kelishikdagi otlarni aniqlang.*

### **OVQATLANISH ODOBI**

Odobli bola dasturxon atrofiga kelib o'tirishdan avval qo'llarini sovun bilan yuvadi.

Taom yeganida, biroz engashib, luqmani kichkina oladi. Qorni to'ygandan so'ng, qo'lini kiyimlariga emas, sochiqqa artadi. So'ngra qo'li va og'zini yuvadi.



## Qaratqich kelishigi

**81-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. **Odobning** yuqori bosqichi go'zal xulqdir. 2. **Insonning** odobli bo'lishi, oltinga ega bo'lishdan ko'ra xayrlidir. 3. **Odob** aql chirog'1, obro' e'tiborning boshi. 4. **Odobning** boshi tilni tiyishdir. 5. **Ipning** uzuni yaxshi, **gapning** qisqasi.

**82-mashq.** *Nuqtalar o'rniga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'yib, gaplarni o'qing. Qaratqich kelishigidagi ot qanday gap bo'lagi vazifasida kelganini ayting.*

1. Vazira... esdalik daftari bor. 2. Hilola... tishlari sadafdek yarqiraydi. 3. Ravshan... ukasi ikkinchi sinfdan o'qiydi. 4. Binafsha – bahor... birinchi guli. 5. Biz... sinfimiz uchinchi qavatda. 6. Sanjar... ukasi a'lochi.

Qaratqich kelishigidagi ot kimning?, kimlarning?, nimaning?, nimalarning?, qayerning?, qayerlarning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

Qaratqich kelishigidagi ot egalik qo'shimchasini olgan otga bog'lanib keladi: *o'quvchining qalami, Sobirning akasi.*

**83-mashq.** *O'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda ko'chiring.*

1. Bizning hovlimizda mevali daraxtlar ko'p. 2. O't-o'simliklarning barglari, guli va mevasidan dori sifatida

- foydalaniladi. 3. O'zbekistonning asosiy boyliklaridan biri paxtadir. 4. Paxtaning chigitidan yog' olinadi. 5. Toshkent – O'zbekiston Respublikasining poytaxti. 6. Avtobusning orqasidan, tramvayning oldidan o'ting.

**84-mashq.** *Qavs ichida berilgan otlarga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'shib, gaplarni ko'chiring. Qaratqich kelishigidagi otlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. (Bolalar) eng yaxshi ko'rgan o'yini qo'g'irchoqdir.
2. Kamtarlik ulug' (insonlar) ziynatidir.
3. Yalqovlik (sog'liq) dushmani.
4. Kitob – (sen) eng yaxshi do'sting.
5. Katta (yo'llar) piyodalar o'tish joyi o'rtasiga maxsus «orolchalar» chiziladi.
6. (O'lkamiz) tabiati juda boy.

**85-mashq.** *O'qing. Chiziqalar o'rniga berilgan otlardan mosini qo'yib maqollarni ko'chiring.*

1. \_\_\_\_\_ kuchi qanotida, \_\_\_\_\_ kuchi do'stlikda.
2. \_\_\_\_\_ yangisi yaxshi, \_\_\_\_\_ – eskisi.
3. \_\_\_\_\_ oqimiga boq, \_\_\_\_\_ – xohishiga.
4. Yer \_\_\_\_\_ onasi bo'lsa, otasi – mehnat.
5. \_\_\_\_\_ uzuni yaxshi, \_\_\_\_\_ qisqasi.
6. \_\_\_\_\_ umri qisqa.

Qo'yish uchun so'zlar: *yolg'onning, burgutning, odamning, kiyimning, suvning, do'stning, xalqning, boylikning, ipning, gapning.*

**86-mashq.** *Nuqtalar o'rniga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chiring.*

1. Xonqizi... ozig'i yosh o'simliklar... shirasini so'radigan zararli mayda hasharot – «shira»dir.
2. Mart qo'ng'izi... ko'kragida o'tkir tirnoqli uch juft oyog'i va ikki juft

qanoti bo'ldi. 3. Mart qo'ng'izi... lichinkasi tuproqda 3–4 yil yashaydi. 4. Xona gullari... bargi doimo yashil bo'ldi. 5. Qushlar... ko'pchiligi o'simliklar urug'i va hasharotlar bilan oziqlanadi.

**87-mashq.** *Chiziqalar o'rniga mos so'zlar qo'yib yozing. Qaratqich kelishigidagi so'zning qaysi so'zga bog'lanishini izohlang.*


\_\_\_\_\_ akasi, \_\_\_\_\_ xonasi, \_\_\_\_\_ daftari, \_\_\_\_\_ kitobi, \_\_\_\_\_ shoxi, \_\_\_\_\_ qalami, \_\_\_\_\_ beti, \_\_\_\_\_ tutqichi.

hasharot

### Tushum kelishigi

**88-mashq.** *Topishmoqlarni o'qing. Javobini ayting. Tushum kelishigidagi otlarni topib, ularga so'roq bering.*

1. Qanoti yo'q uchadi,  
Dala, bog'ni quchadi.  
O'zi juda ham yumshoq,  
Paxtadek rangi oppoq.



2. Bir burchakda so'zlaydi,  
Ham chaladi, kuylaydi.  
Hamma uning so'zlagan  
Xabarini tinglaydi.



3. Yurib-yurib tangaday joyni oladi.



4. Hammani kiyintiradi, o'zi yalang'och.

Tushum kelishigidagi ot kimni?, kimlarni?, nimani?, nimalarni?, qayerni?, qayerlarni? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Tushum kelishigidagi ot ko'pincha fe'lga bog'lanadi va gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

*89-mashq. Maqollarni o'qing. Tushum kelishigi qo'shimchasini olgan otning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Tilingni sevsang, to'g'ri so'zla.
2. Qushni qanoti boqadi, odamni – aqli.
3. Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.
4. Kiradigan eshigingni qattiq yopma.
5. Suvni qadrlaganni el qadrlar.
6. Bir tayoqni sindirib bo'ladi,  
O'n tayoqni bukib ham bo'lmaydi.

**90-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

1. O'rtoqlari **Muhabbatni** kutdilar, lekin u kelmadi.  
2. Men onamga yordamlashaman, **ukamni** bog'chadan olib kelaman. 3. Men xamirli **ovqatni** yaxshi ko'raman.  
4. Ahmad **derazani** ochyapti. 5. Sherali daraxt **shoxini** kesdi. 6. **Kitoblarni** kutubxonadan olish mumkin.

**91-mashq.** *Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

*Uyg'un*

Boshim... (-ni, -ning) chiqarsam, derazamdan men,  
Ular sochlarim... (-ni, -ning) silab o'tdilar.  
Ketar chog'larida so'nggi yulduzlar,  
Egilib yuzimga qarab o'tdilar.  
Bugun erta turib tong... (-ni, -ning) ko'rdim,  
Oq shohi ro'moli boshida,  
Ufq kiyintirib, go'zal falak,  
Sochi... (-ni, -ning) taraydi qoshida.

**92-mashq.** *Nuqtalar o'rniga tushum kelishigi qo'shimchasini qo'yib, gaplarni o'qing.*

### **ONA ALLASI** (ertakdan parcha)

Qadim zamonda bir zolim podshoh bo'lgan ekan. U bir kuni mamlakatdagi barcha qo'shiqchilar... chaqiribdi. Ularga navbatma-navbat kuylashni buyuribdi. Kimning qo'shig'i yoqmasa, boshi... tanidan judo ettiraveribdi. Axiyri bir keksa onaxon... keltiribdilar. U ko'zlari...

yumib, bir ajib qo'shiq – alla boshlabdi. Shoh esa qo'shiq... eshitib, yum-yum yig'labdi. Chunki bu allada xalqning orzu-armonlari bayon etilgan ekan. ...

**93-mashq.** *O'qing. Tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan fe'l bilan birgalikda ko'chiring, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. Tabiatni qunt bilan chuqur o'rganish, sevish va unga g'amxo'rlik qilish har bir insonning burchidir. 2. Tabiatshunoslik darslarida tabiatni muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishni o'rganib borasiz. 3. Darslikdagi maqola va hikoyalarni diqqat bilan o'qing. 4. Kitobdagi topshiriqlar va amaliy ishlarni bajaring. 5. Yer yuzidagi butun tabiatni jonli va jonsiz tabiatga bo'lish mumkin.

### Jo'nalish kelishigi

Jo'nalish kelishigidagi ot kimga?, kimlarga?, nimaga?, nimalarga?, qayerga?, qayerlarga? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Jo'nalish kelishigidagi ot fe'l bilan bog'lanadi, gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida qo'llanadi.

**94-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

1. Bir kabutar uchib kelib ayvon **peshtoqiga** qo'nibdi. 2. **Safarga** jo'nash oldidan yaxshi tayyorgarlik ko'rdik. 3. Bu beozor **jonivorlarga** xalal bermaslik uchun chodirni boshqa joyga qurdik. 4. Amir Temur umr bo'yi o'zlarining

«Kuch – adolatda» degan **hikmatlariga** amal qilganlar.  
5. Alisher Navoiy bir savat non bilan **saroyga** yetib boribdi.

*95-mashq. O'qing. Jo'nalish kelishigida qo'llangan otlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib jo'nalish kelishigi qo'shimchasining tagiga chizing.*

1. Dorivor o'simliklar katta ahamiyatga ega. 2. Dalalar yam-yashil o'tlarga burkandi. 3. Transportga orqa eshikdan chiqib, oldingi eshikdan tushing. 4. Transportga chiqayotganda kattalarga yo'l bering. 5. Ko'chani kesib o'tayotganingizda svetofor chiroqlariga e'tibor bering. 6. Svetofor yo'l harakatini tartibga solib turadi.

*96-mashq. O'qing. Jo'nalish kelishigidagi otlarni topib, ularga so'roq bering. She'rni ko'chiring, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining tagiga chizing.*

*Uyg'un*

### **ODOBLI AHMAD**

Bir kuni Ahmad maktabga,  
Tramvayda borardi.  
Uning usti-boshiga,  
Hamma odam qarardi.

Bir mahal tramvayga,  
Chiqib qoldi bitta chol.  
U o'tirmoq istardi,  
Ahmad payqadi darhol.

Hammadan oldin turib,  
O'rin bo'shatdi cholga.  
Duo qilib mo'ysafid,  
Xursand bo'ldi bu holga.

**97-mashq.** *Topishmoqlarni o'qing. Jo'nalish kelishigidagi otlarni topib, ularning o'zak va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarini belgilang.*


1. Loy bo'lib suyiladi,  
Qolipga quyiladi.  
Xirmon-pechda pishadi,  
Mashinaga tushadi,  
Qurilishga ketadi.



2. Ilmga kon,  
Mazmunga makon,  
So'zi serhikmat,  
Bizga do'st, ulfat,  
O'rgatar odob  
Bu nima Ozod?



3. Bir parcha patir,  
Olamga tatir.



4. Beli xipcha qora ot,  
Tog'ga chiqsa toymaydi,  
Toshqin bo'lsa botmaydi.



**98-mashq.** *O'qing. Berilgan otlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'shib, so'zlarni ko'chiring.*

Sandiq, osmon, dars, avtobus, qoziq, hovuz, mag'iz, eshik, beshik, qoshiq, qish, jo'ja, chapak, chaqmoq, qo'g'irchoq, chelak, sichqon, o'yinchoq, chivin, o'rdakcha, arg'imchoq, gul, bulut, qo'lqop, tilla, fasl.



Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi oxiri **-k** undoshi bilan tugagan so'zlarga **-ka**, oxiri **-q** undoshi bilan tugagan so'zlarga **-qa**, oxiri **-g'** undoshi bilan tugagan so'zlarga **-g** tarzida qo'shiladi. Masalan: *bilakka, choynakka, qoshiqqa, bog'ga, tog'ga.*

**99-mashq.** *O'qing. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan jo'nalish kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'shib, gaplarni yozing. Kelishik qo'shimchalarining tagiga chizing.*

1. Zarifjon onasi Nazokat opa bilan kino (-ga, -ka, -qa) bordilar. 2. Bugun uyimiz (-ga, -ka, -qa) to'satdan mehmon kelib qoldi. 3. Sohiba ayvondagi osma soat (-ga, -ka, -qa) qaradi. 4. Anvar kitob (-ga, -ka, -qa) mehr qo'ygan. 5. Barno dugonasi (-ga, -ka, -qa) gul sovg'a qildi.

**100-mashq.** *O'qing. Jo'nalish kelishigidagi otlarni topib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

*Uyg'un*

### **CHEGARACHI**

Chegarada turaman,  
Qo'limga miltiq olib.  
Yuragimga botirlik,  
Mardlik hissini solib.

Mayli yomg'ir, qor yog'sin,  
O'z postimdan ketmayman.  
Askarlik qasamiga,  
Hech xiyonat etmayman.

## O'rin-payt kelishigi

**101-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. Kelishik qo'shimchasini aniqlab, tagiga chizing.*

*Shuhrat*

### **SALOM, MAKTAB**

... Yoz oylari o'ynadik,  
Dala, qir va **tog'larda.**  
Kattalarga qarashdik,  
**Polizlarda, bog'larda.**  
**Daryolarda** cho'mildik,  
Tog'ga chiqdik chirmashib.  
Soya-salqin **bog'larda,**  
O'ynab yig'dik kuch-quvvat...

O'rin-payt kelishigidagi ot kimda?, kimlarda?, nimada?, nimalarda?, qayerda?, qayerlarda? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan ot ham fe'lga bog'lanadi va gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

**102-mashq.** *O'qing. O'rin-payt kelishigidagi otlarni topib, ularni belgilang. Topishmoqlarning javobini ayting.*

1. Tunda yonar sonsiz cho'g',  
Kunduz izlasang ham yo'q.



2. Ko'kda u tanho mezbon,  
Kutar doimo mehmon,  
Yaraqleydi zulmatda,  
Kunduzi u rohatda.



3. Ikki yaproq bir tanda,  
Kezar gulzor, chamanda.

4. Bir o'ra, bir o'rada ming o'ra.



5. O'zi ichkarida, soqoli tashqarida.

**103-mashq.** *O'qing. O'rin-payt kelishigidagi otlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. Biz O'zbekiston Respublikasida yashaymiz. 2. Respublikamiz gerbida paxta ifodalangan. 3. Polizlarda shirin-shakar qovun va tarvuzlar yetiladi. 4. Odamlar dalada ishlayaptilar. 5. Toshkentda ko'plab chiroyli binolar, istirohat bog'lari bor. 6. Dorivor o'simliklar dalalarda, bog'larda, ekinzorlarda, o'rmonlarda va tog'larda o'sadi.

**104-mashq.** *O'qing. Hikoyaga sarlavha toping va ko'chirib yozning.*

Bir maktabda Ali ismli bola o'qir edi. Bir kuni u Olim degan o'rtog'ining ko'chasidan o'tib borayotganida, darvozasiga «it» degan so'zni yozib ketdi.

Olim ziyrak bola bo'lgani sababli darvozadagi yozuvni ko'rib, ertasiga Aliga: «Ey o'rtoq, sen men yo'g'imda uyga borgan ekansan, yo'qligim sababli darvozaga nomingni yozib ketibsan. Men yozuvni ko'rib, sen yo'qlab kelganingda yo'q bo'lganim uchun ko'p afsus qildim», – dedi. Alining yozgani yodiga tushib, hech bir so'z aytolmay, uyalib qolibdi. O'z aybini tushungan Ali o'rtog'i Olimga qarab: «O'rtoqjon, tavba qildim, ikkinchi bunday ish qilmayman», – deb uzr so'radi.

**105-mashq.** *O'qing. O'rin-payt kelishigidagi otlarni topib, tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Oltin yerda yotmas, yaxshilik yo'lda qolmas.
2. Qozonda bo'lsa, cho'michga chiqadi.
3. Oltin o'tda toblanadi, odam – mehnatda.
4. Aql yoshda emas, boshda.
5. Odob bozorda sotilmas.

**106-mashq.** *Nuqtalar o'rniga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Kuz... ayrim daraxtlarning bargi qizil, ba'zilari jigarrang yoki binafsha rangga kiradi.
2. Chumoli va boshqa hasharotlar tanasi... kuz... sovuqqa chidamli modda hosil bo'ladi.
3. Daraxtlar... sarg'aygan barglarning paydo bo'lishi tabiat... kuz boshlanganligining belgisidir.
4. Shumtol... dastlab shoxlarning uchidagi barglar

to'kiladi. 5. Barglar to'kilib ketgandan keyin novdalar... kurtaklar qoladi. 6. Ular kelgusi yil bahor... ko'karadi.

### Chiqish kelishigi

**107-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering. She'rni ko'chirib, kelishik qo'shimchasining tagiga chizing.*

*E. Shodmonov*

#### O'QII!

O'qi! O'qi! O'qigill! – deb,  
Jarangladi bir sado.  
**Bu sadodan** saboq oldi,  
Butun olam – Yer, fazo.  
**Beshikdan** to qabrgacha  
O'qimoqlik ekan farz.  
Bu kalomga amal qilmoq,  
Har kishiga ekan qarz.

Chiqish kelishigidagi ot kimdan?, kimlardan?, nimadan?, nimalardan?, qayerdan?, qayerlardan? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Chiqish kelishigidagi ot ko'pincha fe'lga bog'lanadi, gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi.

**108-mashq.** *O'qing. Topishmoqlarning javobini ayting. Chiqish kelishigida qo'llangan otlarni aniqlang, tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Tushdan o'zgasi ko'rinmas ko'ziga,  
Kiygan ko'ylagi ko'rinmas o'ziga.




2. To'n, ko'ylagim, belbog'im,  
Yerdan ungan boyligim.



3. Otdan baland, itdan past.



4. Borar tekis egatdan,  
Barmoqlari po'latdan.  
Yelkasida qopi bor,  
Katta temir savatdan.



**109-mashq.** *Chiziqlar o'rniga mashqdan so'ng berilgan otlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Qor erib, yer yetilishi bilan dehqonlar dalalarda poliz \_\_\_\_\_ qovun, tarvuz, qovoq urug'ini eka boshlaydilar.  
2. O'quvchilar daraxt va butalar po'stlog'ini \_\_\_\_\_ va ularning \_\_\_\_\_ tozalaydilar. 3. Yerga ekilgan \_\_\_\_\_ yangi o'simliklar o'sib chiqadi. 4. O'simliklar faqat \_\_\_\_\_ emas, balki qalamchasi, bargi va \_\_\_\_\_ payvand qilib ham ko'paytiriladi. 5. Piyoz, sarimsoq, gladiolus, lola \_\_\_\_\_ ko'paytiriladi. 6. Atirgul, anor, tok \_\_\_\_\_, ba'zi xona gullari \_\_\_\_\_ ko'paytiriladi.

Qo'yish uchun so'zlar: *bargidan, qalamchasidan, piyozidan, ekinlaridan, hasharotlardan, tuxumidan, urug'dan, urug'idan, piyozidan.*

**110-mashq.** *Nuqtalar o'rniga chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'shib, maqollarni o'qing va ko'chiring.*

1. *Dono – dur... a'lo.*
2. *Bekorchi... hamma bezor.*
3. *Botir... yaxshi ish qolar,  
Dono... – yaxshi so'z.*
4. *Bol ham til...  
Balo ham til...*
5. *Aql aql... quvvat oladi.*
6. *Yaxshi do'st... ajralish –  
Ikki ko'z... ajrash.*

**111-mashq.** *Berilgan otlarga chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'shib yozing.*

*Gul, buloq, pilla, g'alla, asal, radio, arqon, darcha, bemor, parranda, daftar, daraxtzor, ko'mir, nur, kaltak, kichik, koptok, kapalak, kurmak, chelak.*

**112-mashq.** *O'qing. Chiqish kelishigidagi otlarni topib, ularning aytilishi va yozilishidagi farqni ayting.*

1. *Kuzda daraxtdan nima to'kiladi?*
2. *Mahmud bilan Ahmad maktabdan keldilar.*
3. *Kutubxonadan kitob oldim.*
4. *Sevara bilan Saida gullardan guldasta yasadilar.*
5. *Salimaning onasi har kuni maktabdan qaytishiga issiq ovqat tayyorlab turadi.*
6. *Shohida dorixonadan dori olib keldi.*

**113-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlar qaysi kelishik qo'shimchasini olganini ayting.*

### **XOTIRA VA QADRLASH MAYDONIDA**

Tepalik ustidagi majnuntol bosh egib, go'yo **qabrda** yotgan Vatan **farzandlariga:** «Rahmat sizlarga, Vatan himoyachilari!»,- deyayotgandek. Majnuntol yonidagi **qabrga** go'yo Ona farzandi **oldiga** kelgan-u, ketolmay **toshga – haykalga** aylangan. Uning bu holati **ziyosatga** kelganlarning qalbini **larzaga** soladi.

motamsaro

**114-mashq.** *Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring, qaysi kelishik qo'shimchalarini qo'yganingizni izohlang.*

*Uyg'un*

### **BIZNING KUZ**

Kuzimiz... go'zalligin,  
Og'aynilar, ko'rganmisiz?  
Tok... husayni, yer... qirqma,  
Shox... behi uzganmisiz?  
Uzum uzib, sharbat suzib,  
Shinni... o't yoqqanmisiz?  
Gala-gala, shoda-shoda,  
Duv-duv yong'oq qoqqanmisiz?  
Bular... ham qo'yavering,  
Dalamiz... chiqqanmisiz?  
Paxtazor... uyum-uyum  
Oq oltin... yig'ganmisiz?



115-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering, ular qaysi kelishikda qo'llanganini ayting.*

### QO'ZICHOQ BILAN MUSHUKCHA

– **Dunyoga** kelasan-u yerga qaraysan. Nima, yerdan biron-bir narsa topmoqchimisan? – dedi **Qo'zichoqqa Mushukcha.**

– **Rizqimni** axtaraman-da. E, senga o'xshab «Olma pish, og'zimga tush», «Qachon egam biror narsa berarkin», deb uning **qo'lga** termulib o'tiraveraymi? – javob qildi **Qo'zichoq.**

Qo'zichoq to'g'ri gapirdi. Yashash uchun mehnat qilsa, rohat ko'radi.

dunyo

116-mashq. *She'rni ifodali o'qing. Egallik qo'shimchasini olgan otlarning shaxs-sonini va qaysi kelishikda qo'llanganini ayting.*

Q. Muhammadiy

### O'QITUVCHIM

O'qituvchimni olqishlayman,  
Yurak she'rim bag'ishlayman.  
O'qituvchim, maktabjonim,  
Mening oy-u oftobjonim,  
Jonajon o'qituvchim,  
Mehri jahoniy kuchim.  
Siz aziz va mehribon,  
Qalbingiz olam jahon,  
Sizga mehrim toshadi,  
Dilda zavqim oshadi.

**117-mashq.** *Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchasini qo'yib, she'rni ko'chiring. Qo'shimchalarning tagiga chizing.*

*A. Po'latov*

### **AJAB BO'LDI**

Qo'zichoq... Nortoji,  
Quva ketdi aylanib,  
Bo'ldi tajang tutolmay,  
Chopsa hamki shaylanib.  
Axir qattiq yiqildi,  
Bir to'nka... qoqilib.  
O'tirvolib yig'ladi,  
Quvonchlari yo'qolib.  
– Ajab bo'ldi,– deganday,  
Qo'zi hushyor boqardi.  
Nortoji... yig'isi,  
Go'yo unga yoqardi.

**118-mashq.** *O'qing. Otlarga qavs ichida berilgan kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Dildora ikkinchi sinf (-ga, -da) o'qiydi. 2. U (-ning, -da) chiroyli qo'g'irchoqlari bor. 3. Komila Kamola (-ni, -ning) qo'li (-da, -dan) turgan qo'g'irchoq (-ni, -ning) ko'yligidan ushlab tortdi. 4. Qo'g'irchoq (-ni, -ning) ko'ylagi yirtilib ketdi. 5. Komila bilan Kamola qo'g'irchoq (-ni, -ning) talashib, ko'ylagi (-ni, -ning) yirtishdi. 6. Dildora birpasda qo'g'irchoq (-ka, -qa) ko'ylakcha tikib berdi.

**119-mashq.** *Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring. Egalik qo'shimchasining tagiga chizing, shaxs va sonini ayting.*

Vatanni ziyorat qilmoqqa erta kel,  
Hay-hay qanday Vatan bu u mening sajdagoh...  
U mening osmondagi oy..., osoyish..., sharaf...,  
Ham Ka'ba..., ham qibla..., ham chaman...dir.

sajdagohim

## QO'SHMA OTLAR

**120-mashq.** *O'qing. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan otlarga so'roq bering va qaysi kelishikda ekanini ayting.*

1. Erta bahorda sap-sariq **bo'tako'z** ochiladi. 2. Hovliga kirishingiz bilan **atirgulning** xushbo'y hidi dimog'ingizga uriladi. 3. Duradgorlik ustaxonasida **qo'larra** bor. 4. G'anijon **muzqaymoqni** yaxshi ko'radi. 5. **Gulbahor** yozgi ta'tilni qishloqda o'tkazishga qaror qildi. 6. **Tursunpo'lat** shaxmat o'ynashni o'rganib oldi.

Masalan: *boychechak, kungaboqar*. Birdan ortiq so'zlarning qo'shilishidan tuzilgan otlar **qo'shma otlar** deyiladi. Qo'shma otlar odatda ikki otdan (*otquloq*); sifat bilan otdan (*ko'ksulton, oqqush*) yoki ot bilan fe'ldan (*otboqar*) yasalgan bo'ladi.

Biror belgisi yoki xususiyatiga nisbat berib atalgan joy nomlari ko'pincha qo'shma ot orqali ifodalanadi: *To'ytepa, Oqtepa, Beshariq*.

**121-mashq.** *Berilgan qo'shma otlardan to'rtta gap tuzing va yozing.*

Kungaboqar, atirgul, gulsafsar, oymoma, ko'zoynak, Yangiyo'l, Qoratosh, To'rtko'l.

**122-mashq.** *O'qing, birinchi ustundagi so'zlarga ikkinchi ustundagi so'zlardan mosini tanlab, qo'shma otlar yasang va yozing.*

Oy	rayhon
qashqar	soy
soch	qo'rg'on
sada	gul
Koson	popuk
Katta	moma

**123-mashq.** *Chiziqlar o'rniga berilgan qo'shma otlardan mosini qo'yib ko'chiring.*

1. Bog'da \_\_\_\_\_ ochildi. 2. Onam \_\_\_\_\_ ketdilar. 3. \_\_\_\_\_ a'lochi o'quvchi. 4. \_\_\_\_\_ chiroyli gul. 5. Qo'shnimizning \_\_\_\_\_ qichqirdi. 6. \_\_\_\_\_ – shifobaxsh o'simlik.

Qo'yish uchun so'zlar: *Otquloq, Toshpo'lat, jo'jaxo'roz, boychechak, gultojixo'roz, Qoratosh.*

**124-mashq.** *Berilgan qo'shma otlardan gap tuzing va yozing. Qo'shma otlarning qanday yasalganini ayting.*

Oqtepa, ko'ksulton, Orolmirza, Toshtemir, kapalakgul, gulqaychi, Ko'kterak, majnuntol.

**125-mashq.** *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan va qavs ichidagi so'zlardan qo'shma otlar hosil qiling.*

1. Yozda loy (xo'rak), oq (qush) singari suvda suzuvchi qushlar ovozi eshitiladi. 2. Yirtqich qushlar – oq (quyruq)

burgut, oq boy (o'g'li) mayda qushlar bilan oziqlanadi. 3. Ko'llar atrofidagi do'ngliklar gullab turgan momiq (bosh) bilan qoplangan. 4. Qo'zi(qorin)lar bug'ularning ozig'i hisoblanadi.

## JUFT OTLAR

**126-mashq.** *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan otlarning yozilishiga ahamiyat bering.*

1. Bola ota-onasiga erkalik qiladi. 2. Botir mergan ovulda katta obro' topib, murod-maqсадiga yetibdi. 3. Donishmand shunday qilib aql-zakovat bilan o'limdan qutulib qolgan ekan. 4. Kuzda qovun-tarvuz serob bo'ladi.

Ikki so'zning qo'shilib kelishidan hosil bo'lib, yangi bir ma'noni bildirgan otlar **juft ot** deb ataladi. Masalan: *qozon-tovoq, choynak-piyola, o'g'il-qiz.*

Juft otlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Bir-biriga yaqin ma'noli ikki so'zdan: *uy-joy, bugun-erta.*

2. Antonim so'zlardan: *yosh-qari, erta-kech.*

Juft otlar chiziqcha bilan yoziladi. Juft otlar o'rtasida ikki otni bir-biri bilan bog'laydigan **-u, -yu** yuklamalari bo'lsa, bu otlar orasiga chiziqcha qo'yilmaydi: *ona-yu bola, gul-u lola.*

**127-mashq.** *Quyidagi so'zlardan juft otlar yasang va ularning ma'nosini aytib bering.*

N a m u n a: bola va chaqa – bola-chaqa.

O'g'il va qiz, bola va chaqa, aka va uka, og'a va ini, ota va bola, ona va bola, tovoq va qoshiq, yig'im va terim.

**128-mashq.** *Ko'chiring va juft otlarning yozilishiga ahamiyat bering.*

1. Bug'doy el-u yurtimizning rizq-ro'zi. 2. Mayda-chuyda olib kelgani do'konga bordim. 3. Ahmadning usti-boshiga hamma odamlar qarardi. 4. Shirin-shakar o'g'il-qizlarim, men sizlarga rahmat aytgani keldim. 5. Chumchuqlar uya quraman deb xas-cho'p yig'adi. 6. U o'g'liga yaxshi ta'lim-tarbiya bergan.

**129-mashq.** *Chiziqalar o'rniga mos so'zlar qo'yib, juft otlar yasang va ko'chirib yozing.*

Oziq- \_\_\_\_\_, ota-\_\_\_\_\_, soya-\_\_\_\_\_, ust-\_\_\_\_\_, aka-\_\_\_\_\_, murod-\_\_\_\_\_, yosh- \_\_\_\_\_, to'y-\_\_\_\_\_, opa-\_\_\_\_\_.

**130-mashq.** *Quyidagi juft otlar ishtirokida to'rtta gap tuzing va yozing. Juft otlarning tagiga chizing va yozilishiga ahamiyat bering.*

Yor-u do'st, kecha-kunduz, uy-joy, ota-bola.

## QISQARTMA OTLAR

**131-mashq.** *Quyidagi qisqartma otlarning yasalihi va yozilishiga e'tibor bering.*

1. O'zR – O'zbekiston Respublikasi. 2. BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti. 3. AQSH – Amerika Qo'shma Shtatlari.

Qisqartma otlar quyidagicha yasaladi:

1. So'zlarning birinchi harfidan yasaladi. *MDH – Mustaqil davlatlar hamdo'stligi.* Bunday qisqartma otlarning har bir harfi bosh harf bilan yoziladi va ular o'z nomi bilan o'qiladi.

2. Birinchi so'zning bosh qismini, boshqa so'zlarning birinchi harfini olish bilan: *O'zR – O'zbekiston Respublikasi.*

3. Aralash yo'l bilan yasaladi: *BuxDU – Buxoro Davlat Universiteti.*

**132-mashq.** *Berilgan otlarni kengaytirib yozing va ko'chiring.*

SamDU, IIBB, TTZ, AndDU, BuxDTI.

**133-mashq.** *O'qing. Qisqartma otlarni kengaytirib ko'chiring.*

1. Biz O'zRda yashaymiz. 2. MDHning hamkorligi kengaymoqda. 3. Singlim SamDUda o'qiydi. 4. Biz O'zTV ko'rsatuvlarini sevib tomosha qilarniz.

**134-mashq.** *Quyidagi qo'shma so'zlarni qisqartma so'z shaklida yozing.*

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Birlashgan millatlar tashkiloti.
3. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti.

**?** *Savol va topshiriqlar*

1. Qanday so'z turkumiga ot deyiladi?
2. Atoqli va turdosh otlarga misollar keltiring.
3. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini misollar bilan tushuntiring.
4. Turlanish nima? Kelishiklarning nomi va so'roqlarini tartibi bilan ayting.
5. *Maktab* otini kelishiklar bilan turlang.
6. Egalik qo'shimchalariga qaysi qo'shimchalar kiradi?
7. Qo'shma, juft, qisqartma otlarga misollar keltiring, ularning farqini ayting.

## SIFAT – SO‘Z TURKUMI

**135-mashq.** *Ko'chiring. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. O'quvchilar ko'chani zavqli kulgiga to'ldirib tarqalishdi. 2. Salqin kuz shabadasi esmoqda. 3. Maktab hovlisida xushchaqchaq, bilimdon o'quvchilar qizg'in bahslashmoqdalar. 4. Yosh, baquvvat burgutlar osmonda uchayapti.

**136-mashq.** *O'qing. Sifatlarni topib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. Har bir kasb-hunarni egallash puxta tayyorgarlikni talab etadi. 2. Mustaqil O'zbekistonning kelajagini tinmay



izlanuvchan yoshlar ta'minlaydi. 3. Qadimiy va navqiron Samarqand va Buxoro shaharlari sharq yulduzlari hisoblanadi. 4. Xalqimizga xos yaratuvchanlik fazilati avloddan avlodga o'tib kelmoqda. 5. Ko'chat ekib, go'zal bog' yaratish o'zbek xalqining ajoyib an'anasiga aylangan.

Predmetning belgisini bildirgan so'zlar **sifat** deyiladi. Sifatlar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladi. Sifatlar predmetning rangini, mazasini, shaklini bildiradi.

*137-mashq. O'qing. Sifatlarni so'roq yordamida aniqlang va yozing. Ularning tagiga to'liqlik chiziq chizing.*

## TOSHKENT

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. Toshkentda ko'p qavatli binolar, keng ko'chalar va chiroyli xiyobonlar bor. Salqin oromgohlarda dam olish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy mehmonxonalar, jahon andozalariga mos binolar shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. U tobora go'zal va obod bo'lmoqda. Toshkent tinchlik va do'stlik shahridir.

*138-mashq. Chiziqlar o'rniga berilgan turdagi sifatlarni topib yozing.*

Mazasi: *shirin*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Rangi: *yashil*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Shakli: *dumaloq*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Sifatlar ko'pincha otlarga bog'lanib, gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Masalan: *Biz ozod va obod Vatanda yashaymiz.*

**139-mashq.** *O'qing. 1. Predmetlarning belgisiga ko'ra topishmoqlarning javobini toping. 2. Sifatlarni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.*

1. Xo'ppa semiz bir tuki yo'q.
2. Qo'lsiz, oyoqsiz gul solar.
3. Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha.
4. Yer ostida oltin qoziq.
5. Yungday yumshoq, qorday oppoq.
6. Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor.

**140-mashq.** *Chiziqlar o'niga otlarga mos sifatlarni qo'yib yozing.*

\_\_\_\_\_ O'zbekiston, \_\_\_\_\_diyor, \_\_\_\_\_yoshlar,  
\_\_\_\_\_kelajak, \_\_\_\_\_ bolalik, \_\_\_\_\_ osmon, \_\_\_\_\_  
yurt, \_\_\_\_\_ o'lka.

Qo'yish uchun so'zlar: *tiniq, baxtli, go'zal, porloq, obod, bilimdon, ozod, Mustaqil.*

**141-mashq.** *She'rni ifodali o'qib, sifatlarni toping. Ularni o'zi bog'langan otlar bilan birga ko'chiring. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

Vatan mening onamsan,  
Issiq quchog'ing.  
Olamda yagonasan,  
Aziz tuprog'ing.

Tarixing juda uzoq,  
Mashhur jahonsan.  
Amir Temur Vatani –  
Buyuk Turonsan.

**142-mashq.** *Berilgan gaplardagi sifatlarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda ko'chirib yozing.*

1. Bahorda yoqimli shabada esadi. 2. Quyon juda sezgir jonivordir. 3. Yoz kechasi beg'ubor osmonga qarab zavqlanar edim. 4. Ko'm-ko'k tok barglari ertalabki quyoshda jilvalanadi. 5. Bayram oldidan maktabimizni chiroyli bezatdik. 6. Dala va qirlarda qip-qizil lolalar ochildi.

**143-mashq.** *O'qing. Sifatlarni topib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Mustaqil O'zbekistonning kelajagini izlanuvchan, intiluvchan, tirishqoq yoshlar ta'minlaydi. Bu esa davlatimizning porloq kelajagidan dalolat beradi. O'zbekiston – yo'li yorug', iqboli nurafshon vatan.

**144-mashq.** *Chiziqlar o'rniga berilgan otlardan mosini qo'yib ko'chiring.*

Yam-yashil \_\_\_\_\_, ayyor \_\_\_\_\_, yoqimli \_\_\_\_\_, qorli \_\_\_\_\_, bepoyon \_\_\_\_\_, mehrli \_\_\_\_\_, mehnatkash \_\_\_\_\_, a'lochi \_\_\_\_\_, qadrdon \_\_\_\_\_, oppoq \_\_\_\_\_

Qo'yish uchun so'zlar: o'tloq, tulki, shabada, tog', dala, ko'zlar, qo'llar, o'quvchi, do'st, paxta.

## SIFAT DARAJALARI

**145-mashq.** *Ajratib ko'rsatilgan sifatlarning ma'nosiga e'tibor berib ko'chiring. Ularning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. U bugun kechagidan **dadilroq** ko'rinardi. 2. Sholg'om qanddek **shirin** bo'lib o'sdi. 3. Yolg'onning oyog'i **juda kalta** bo'ladi. 4. Biz dunyodagi **eng quvnoq** va **eng baxtiyor** bolalarmiz.

Predmet belgisining ortiq-kamligi jihatdan farqlanishi **sifat darajalari** deyiladi.

Masalan: *baland bino, balandroq bino, juda baland bino.*

Sifat darajalari uch xil bo'ladi:

1. Oddiy daraja: *shirin qovun.*
2. Qiyosiy daraja: *shirinroq qovun.*
3. Orttirma daraja: *juda shirin qovun.*

**146-mashq.** *Gaplarni o'qing. Sifatlarning darajalarini aniqlab ayting va ko'chiring.*

1. Salomat opa qizchasi Dilbarga juda kichkina, qip-qizil, dastasi ixcham qilib bog'langan supurgi olib berdi. 2. Xo'rozvoy bog'ga kirdi-yu, ko'kish, g'o'r maymunjonni cho'qiy boshladi. 3. Bolalar yerto'ladan pachoqroq bir kerosin chiroq topib chiqishdi. 4. Bog'da ko'm-ko'k o'tloq va dam olish joylari bor. 5. Shohida sevinib, qizil ko'ylagini kiyib oldi.

**147-mashq.** *O'qing. Sifat darajalarini aniqlang. Sifatlarni o'zi bog'langan otlar bilan birga ko'chiring.*

Nasiba a'lochi qiz. U sinfdosh do'stlari orasida eng aqlli va juda odobli o'quvchidir. U sevimli ustozlarini, tengdosh do'stlarini va o'zidan kichikroq ukalarini juda hurmatlaydi. Darslardan bo'sh vaqtlarida biri biridan qiziqroq ertaklar o'qishni yaxshi ko'radi.

### Oddiy daraja

**148-mashq.** *O'qing. Berilgan so'z birikmalaridan gap tuzing. Sifatlarning darajasini aniqlang.*

Mustaqil diyor, ozoda qiz, yorug' sinf, a'lochi o'quvchi, aqlli bola, katta bog', tiniq suv, mehribon ona.

**Oddiy darajadagi** sifat predmetning belgisini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatadi.

Masalan: *qizil ko'ylak, yumshoq yostiq, katta ko'cha, uzun arqon, baland bino.*

**149-mashq.** *O'qing. Berilgan otlarning barcha belgilarini yozing.*

Namuna: Olma qanday? – Qizil, shirin, sersuv, katta.

Sinf qanday? – ..., ..., ..., ....

Qor qanday? – ..., ..., ..., ....

Bog' qanday? – ..., ..., ..., ....

Ona qanday? – ..., ..., ..., ....

O'quvchi qanday? – ..., ..., ..., ....

**150-mashq.** *Berilgan sifatlarni ishtirokida gaplar tuzing va ularni tahlil qiling.*

Xushbo'y, tiniq, aqlli, shirin, ozod, quvnoq, oppoq, baland, chiroyli.

**151-mashq.** *Berilgan sifatlarga ma'nodosh so'zlar topib yozing.*

**N a m u n a:** Go'zal – chiroyli.

Qotma, ziyrak, beg'ubor, cheksiz, yoqimli, xushchaqchaq, ohista, dangasa, ulkan, toza.

**152-mashq.** *O'qing. Quyidagi sifatlarni ko'chirib yozing. Har birining ma'nosini tushuntiring.*

Katta, ozod, baland, shirin, tiniq, sof, qizil, achchiq, aqlli, chaqqon, muzdek, uzoq, keng, yangi, guldor, suvli, yirik.

### **Qiyosiy daraja**

**153-mashq.** *Ko'chiring. Sifatlarning tagiga chizing.*

1. O'zbek o'g'lonlarining epchilroq va chaqqonroq ekanligi sport bellashuvlarida ma'lum bo'ldi. 2. O'rmonda bir-biridan yirtqichroq hayvonlar yashaydi. 3. Maktab hovlisi bog'cha hovlisidan kattaroq. 4. Yordam so'rovchiga yaxshilik qilishdan ko'ra yaxshiroq ish yo'q.

**Qiyosiy darajadagi sifat** bir predmet belgisining boshqa predmet belgisiga nisbatan ortiq ekanligini ifodalaydi, u solishtirish, taqqoslash yo'li bilan yasaladi.

Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga **-roq** qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi. Masalan: **yaxshi – yaxshiroq, uzun – uzunroq.**

**154-mashq.** *Chiziqlar o'rniga berilgan sifatlardan mosini qo'yib gaplarni o'qing va ko'chiring.*

Tog'li hududlarda \_\_\_\_\_ yomg'ir yog'di. 2. Qish chillasida kunlar \_\_\_\_\_ bo'ladi. 3. Olcha mevalari gilos mevalaridan \_\_\_\_\_. 4. Qishloqning \_\_\_\_\_ joylari ham elektr chiroqlari bilan yoritilgan. 5. Rustamning qarmog'iga \_\_\_\_\_ baliq ilindi.

Qo'yish uchun so'zlar: *kuchliroq, sovuqroq, maydaroq, uzoqroq, kattaroq.*

**155-mashq.** *Berilgan sifatlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing. Sifatlarning tagiga to'liqlik chiziq chizing.*

Ozodaroq, go'zalroq, chaqqonroq, ensizroq, muzdekroq, kichikroq, shirinroq.

**156-mashq.** *O'qing. Berilgan qiyosiy darajadagi sifatlarga mos otlar topib yozing.*

N a m u n a:

Shirinroq nima? (kim?) – *asal, novvot, parvarda, bola.*

Balandroq nima? (kim?) – ..., ..., ...

Qiziqroq nima? (kim?) – ..., ..., ...

Go'zalroq nima? (kim?) – ..., ..., ...

Sevimliroq nima? (kim?) – ..., ..., ...

Kattaroq nima? (kim?) – ..., ..., ...

Kuchliroq nima? (kim?) – ..., ..., ...

### Orttirma daraja

**157-mashq.** *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarning ma'nosiga e'tibor bering.*

**Eng yoqimli so'z** – onaning so'zi.

**Eng mehribon ko'z** – onaning ko'zi.

**Eng mehribon dil** – onaning dili.

**Eng muloyim til** – onaning tili.

Shu sabab deymiz:

Ona bor bo'lsin, baxtiyor bo'lsin.

**Orttirma darajadagi sifat** predmetdagi biror belgining boshqa predmetdagi shu belgidan o'ta ortiqligini, ko'pligini ko'rsatadi. Orttirma darajadagi sifat oddiy darajadagi sifatlardan oldin *eng, juda, g'oyat(da), nihoyat(da)* so'zlarini keltirish bilan yasaladi. Masalan: *nihoyat zo'r polvon, juda ajoyib bola, g'oyatda baland bino, eng go'zal maskan.*

**158-mashq.** *Ko'chiring. Orttirma darajadagi sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Yurtimiz kelajagi juda porloqdir. 2. Alisher Navoiy o'zbek xalqining eng sevimli shoiri. 3. Sayohatchilar tog'ning eng baland cho'qqisiga chiqdilar. 4. Tollar tagidagi ariqlardan nihoyatda tiniq suv oqib o'tadi. 5. 22-iyunda eng uzun kun va eng qisqa tun bo'ladi.

**159-mashq.** *O'qing. Berilgan orttirma darajadagi sifatlarning ishtirokida gaplar tuzing va yozing.*

Nihoyatda go'zal, juda baland, eng kuchli, juda shirin, g'oyat baxtiyor.

**160-mashq.** *O'qing. Berilgan sifatlardan orttirma darajali sifatlarni yasab, so'z birikmalari tuzing.*

Namuna: *eng baland imorat.*

Oppoq, yumshoq, baland, achchiq, omadli, keng, katta, yoqimli.



**161-mashq.** *O'qing. Orttirma darajadagi sifatlarni o'zi bog'langan otlar bilan birga ko'chiring.*

1. Bugun bayram. Kamola onasiga o'zi tikkan eng chiroyli fartugini sovg'a qildi. Umid esa, g'oyat go'zal chizgan rasmini taqdim etdi. Onasi juda xursand bo'ldi.

2. Juda ham a'losiz, oyijon,  
Juda ham donosiz oyijon.  
Siz meni qo'zim deb sevasiz,  
Nur to'la ko'zim deb sevasiz,  
Oyijon, oyijon, oyijon.

**?** **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Qanday so'z turkumi sifat deyiladi?
2. Sifatning gapdagi vazifasini aytib bering. Misollar keltiring.
3. Sifat darajalarini ayting. Misollar bilan tushuntiring.

**162-mashq.** *O'qing. Ko'chirib yozing. Sifatlarni topib, ularga ta'rif bering.*

### **MASHHUR BOG'BON**

Rizamat ota tok ochishni va novda qirqishni juda yoshligida otasidan o'rgangan. U keyin katta bog'bon bo'lib yetishdi. Rizamat ota uzumning juda ko'p yangi navlarini yetishtirdi.

Uning tokzorlarida husayni, kattaqo'rg'on, charos kabi har xil uzum navlari bor. Ular juda mo'l hosil beradi. Rizamat ota respublikamizning mashhur bog'boni.

## SON – SO‘Z TURKUMI

**163-mashq.** *Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering va ularning tagiga chizing.*

1. Har kun yerga tushadi,  
**Ikkita** sara parda.  
**Ikki** rangda **ikkovi**,  
Oq parda, qora parda.  
Tushganda qora parda,  
Oq parda bekinadi.  
Oqi tushsa agarda,  
Qorasi chekinadi.

*(Kun va tun)*

2. U qanday daraxtdir, ko‘k rangda niqob,  
**O‘n ikki** shoxi bor, aylasang hisob.  
Har shoxga diqqat bilan nazar sol,  
**O‘ttiz** barg borligini bilursan darhol.  
Har bargning yarmisi qoradir, biroq,  
Boshqa qismlari qor kabi oppoq.

*(Bir yil)*

Predmetning sanog‘ini yoki tartibini bildirgan so‘zlar **son** deyiladi. Predmetning sanog‘ini bildirgan so‘zlar **necha? qancha?** yoki **nechta?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Masalan: **ikki o‘g‘lon, oltita kitob.**

Predmetning tartibini bildirgan so‘zlar **nechan-chi?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Masalan: **birinchi sinf, yettinchi qator, uchinchi o‘rin.**

**164-mashq.** *O'qing. So'roqlar yordamida sanoq sonlarni aniqlang. Ko'chiring va sonlarning tagiga chizing. Topishmoqlarning javobini ayting.*

1. Pak-pakana bo'yi bor,  
Yetti qavat to'ni bor.
2. Qirq qop un,  
Unning ichida ustun.
3. O'zi bitta, ko'zi mingta.
4. Uzoqdan qarasam juda ham ko'p,  
Yoniga borsam bittasi ham yo'q.
5. Bo'yi har xil besh o'rtoq,  
G'oyatda ahil-inoq.  
Besh o'rtoq xizmatdadir,  
Kechasi izzatdadir.
6. Bordir to'rtta qulog'i,  
Yo'qdir qo'l, ko'z, oyog'i.

**165-mashq.** *O'qing. Sanoq sonlarni aniqlang va ko'chiring. Ularning tagiga chizing.*

1. Chol bilan kampir uch nafar qizlari bilan yashar ekanlar. 2. Yetti to'ti, mitti to'ti, yetmishtaga yetdi to'ti. 3. Olma daraxti uch yil yaxshi hosil berdi. 4. Quruvchilar o'quv yili boshlanguncha uch qavatli maktab binosini qurib bitkazdilar. 5. Yetti o'lchab, bir kes.

**166-mashq.** *Nuqtalar o'rniga berilgan otlarga mos sanoq sonlarni topib yozing.*

... kun, ... daraxt, ... tonna, ... o'quvchi, ... kitob, ... qalam, ... do'ppi, ... sovg'a.

**167-mashq.** *She'rni ko'chiring. Sanoq sonlarni aniqlab, tagiga chizing.*

Kuzda yong'oq pishadi,  
«To'p-to'p» etib tushadi.  
Bo'lishib uch-to'rt o'rtoq,  
Biz o'ynaymiz «juftmi-toq».  
Bir qo'limda besh yong'oq,  
Bir qo'limda uch yong'oq.  
Yana bor cho'ntakda ham  
Qo'ldagidan bitta kam.  
Qani o'ylab top o'rtoq:  
Hammasi qancha yong'oq?  
Ular juftmi yoki toq?

|| Predmetning tartibini bildirgan sonlar raqam ||  
bilan yozilganda **-nchi** yoki **-inchi** qo'shimchasi o'rniga  
chiziqcha qo'yiladi. Masalan: *5-sinf, 10-uy, 442-bog'cha,*  
|| *2015-yil, 21-mart.* ||

**168-mashq.** *O'qing. So'roqlar yordamida predmetning tartibini bildirgan sonlarni aniqlang va tagiga chizing.*

### **O'SMIRLIKNING OLTIN LAHZASI**

1. Fransuz olimi Andre Amper 1788-yilda birinchi ilmiy ishini tavsiya qilganda 13 yoshda edi.
2. XVIII asrda yashab, ijod etgan buyuk fransuz shoiri va yozuvchisi Viktor Gyugo ilk she'rini yozganda 14 yoshda edi.
3. Mashhur rus kompozitori Mixail Glinka birinchi asarini 1920-yilda, 16 yoshida yaratgan.

4. Alisher Navoiy birinchi she'rini 1445-yil, 4 yoshida yozgan.

**169-mashq.** *Ko'chiring. Predmetning tariibini bildirgan sonlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.*

1991-yil 31-avgust – O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi e'lon qilingan kun. 2. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 1994-yil 25-dekabrda tashkil topdi. 3. O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda tasdiqlangan. 4. O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda tasdiqlandi. 5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan.

**170-mashq.** *Quyidagi sonlarni tartib sonlarga aylantiring va so'z bilan yozing.*

3, 7, 4, 2, 1, 9, 5, 8, 6.

**171-mashq.** *Tartib sonlarni raqam bilan yozing.*

O'ninchi sinf, yigirmanchi asr, beshinchi qator, birinchi o'rin, oltinchi uy, to'qqizinchi qavat, yettinchi bet, to'rtinchi bob.

**172-mashq.** *Ko'chiring. Tartib sonlarni bildirgan so'zlar tagiga to'liqinli chiziq, sanoq sonlarni bildirgan so'zlar tagiga to'g'ri chiziq chizing.*

Atoqli bastakor, hofiz, O'zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy 1897-yilning 5-yanvar kuni tug'ilib, 80 yil umr ko'rgan.

U besh qiz, yetti o'g'ilning otasi, 80 dan ortiq nevarachevara va evaraning bobosi.

Bastakorning 5 jildli «O'zbek xalq musiqasi» va 6 jildli «Shashmaqom», «Musiqqa merosimizga bir nazar» degan kitoblari xalqimizga katta meros bo'lib qoldi.

*173-mashq. Ko'chiring. Sonlarni aniqlang va ularga izoh bering.*

1. O'qish uchun keldi vaqt,  
Bolalar g'ayrati shahd.  
Qo'lda kitob-daftar taxt,  
O'qish qanday, go'zal baxt.  
Birinchi sentabr,  
Birinchi sentabr.
2. Tutdan to'rtta to'ti tutdik.
3. Sanamay sakkiz dema.
4. Ikki yonga ikki karnay o'rnatilgan,  
Chalishgamas, eshitishga o'rgatilgan.  
Yaxshi so'zni tinglar inoq,  
Ikki quloq.
5. Bir kishi ariq qaziydi,  
Ming kishi suv ichadi.

*174-mashq. O'qing. Tartib sonlar va sanoq sonlarni so'roq yordamida aniqlang va ko'chiring.*

1. O'zbek xalqining ulug' shoiri Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Xirotda shahrida tug'ildi. 2. Mirzo Ulug'bek 15 yoshidan boshlab 40 yil davomida Movarounnahrda podsholik qilgan. 3. O'zbekiston Respublikasi Konsti-

tutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega» deyilgan. 4. Lola gulining 140 dan ortiq turi mavjud bo'lib, Markaziy Osiyoda 63 xili o'sadi. Lola XVI asrdan boshlab o'stira boshlangan.

## QO'SHMA SONLAR

*175-mashq. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan sonlar nechta so'zdan tuzilganligini ayting.*

Bir daraxtda o'n ikki butoq,  
Uch yuz oltmish besh yaproq.  
Yaproqlarning bir yog'i qora,  
Bir yog'i oq.

Birdan ortiq so'zlardan tuzilgan sonlar **qo'shma sonlar** deyiladi. Masalan: *o'n bir, ellik olti, to'rt yuz yetmish besh*. Qo'shma sonlar odatda raqam bilan yoziladi: *Toshkent shahridagi 118-maktab*.

*176-mashq. O'qing. Qo'shma sonlarni raqam bilan yozing.*

1. «Avesto» kitobi miloddan avvalgi ikki yuz elliginchi yillarda tiklana boshlangan va yangi matnlar bilan to'ldirilgan. 2. Bir ming to'qqiz yuz to'qson uchinchi yil to'rtinchi mart kuni davlatimizning birinchi ordeni – «Sog'lom avlod uchun» ta'sis etildi. 3. Ikki ming to'rtinchi yil «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qilindi. 4. Maktabimizda ikki ming uch yuz nafar o'quvchi ta'lim oladi. 5. Bobur Mirzo qirq yetti yil umr ko'rgan.

*177-mashq. Ko'chiring. Qo'shma sonlarni aniqlab, tagiga to'liqinli chiziq chizing.*

Alisher Navoiy 1001 ga yaqin xayriya binosi qurdirgan ekan. Uning xayriya ishlariga sarf qilgan mablag'lari 500 tumanga barobar bo'lgan. 2. Kun bilan tun tenglashgan kun – 21-martda «Navro'z bayrami» nishonlanadi. 3. Kichkintoylarning sevimli «G'uncha» jurnali 1958-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan. 4. Musobaqada 442-bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari g'olib bo'ldilar.

*178-mashq. Ko'chiring. Qo'shma sonlarni o'zi bog'langan otlar bilan birga ko'chiring.*

1. Shaxmat o'yini Yevropaga VIII–IX asrlarda yetib keldi. 1886-yilda shaxmat o'yini bo'yicha jahon birinchiligi bo'lib o'tdi. 2. Ota o'g'liga 41 quloqli arqon eshib, 41 ta zog'ora baliq tutib kelishni buyurdi. 3. 1995-yil Murod akam 11-sinfni bitirgan edilar. 4. Bu yil bizning maktabni 65 ta o'quvchi bitiradi. 5. Xisor tog'lari etaklarini kezib, 550–600 tup serhosil jiyda daraxtlarini uchratdik.

## JUFT SONLAR

*179-mashq. O'qing. Ajratib yozilgan sonlarga diqqat qiling.*

1. Sport musobaqasida **ellik-oltmishta** o'quvchi ishtirok etdi. 2. Damir **to'rt-besh** yoshidanoq kitob o'qiy boshladi. 3. Bu yil maktabimizda **uch-to'rtta** 1-sinf ochilishi mo'ljallanmoqda.



**Juft son** ketma-ket kelgan ikki sonning teng bog‘lanishi yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Bunda kichik son oldin keladi. **Juft sonlar** hamma vaqt chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *bir-ikki, besh-o‘n, yigirma-o‘ttiz, bir yuz-ikki yuz.*

**180-mashq.** *Ko‘chiring. Juft sonlarni topib, tagiga chizing.*

1. Maktab bog‘idagi gullarni besh-oltita o‘quvchi parvarish qilmoqdalar. 2. Bir yil – uch yuz oltmish besh – uch yuz oltmish olti kun. 3. Amir Temur muzeyiga ellik-oltmishta chet ellik sayyohlar tashrif buyurdilar. 4. O‘zbekistonda o‘sayotgan shakarqamishning bo‘yi to‘rt-besh metrga yetadi.

**181-mashq.** *Quyida berilgan sonlar ishtirokida bittadan gap tuzing.*

Uch-to‘rt, o‘n-o‘n besh, bir-ikki, qirq-ellik.

**?** **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Qanday so‘z turkumiga son deyiladi?
2. Sonning turlarini ayting va misollar bilan tushuntiring.
3. O‘zingiz haqingizda «Tarjimai hol» sarlavhasi ostida bayon yozing.

**182-mashq.** *Ko‘chiring. Sonlarni aniqlab, tagiga chizing. Ularning turini ayting.*

1. Botanika bog‘ida 2500 turdan ortiq daraxt va butalar o‘stirilmoqda. 2. Ninachi ikki soatda 40 ta pashsha va mayda chumolilarni yeb tugatar ekan. 3. Dehqonlar bir hafta ichida 16 gektar yerning hammasiga suv tarab chiqdilar.

4. Bir juft mayna bir yilda 150 mingta chigirtkani yo'q qilishi mumkin. 5. Respublikamiz viloyatlarida 550–600 yillik chinorlarni uchratasiz.

## OLMOSH – SO‘Z TURKUMI

**183-mashq.** *Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ular qaysi so'z turkumiga kirishini ayting. Gaplarni qiyoslab o'qing.*

1. **Nasiba** faqat «5» bahoga o'qiydi. **U** – a'lochi o'quvchi.  
2. **Dugonam** 4-son musiqa maktabida o'qiydi. **Men** ham shu maktabga o'qishga bormoqchiman. 3. **Onam** chiroyli ko'ylak sotib oldi va **uni** Gulnoraga sovg'a qildi.

Ot, sifat, son o'rnida qo'llaniladigan so'zlar **olmosh** deyiladi. Masalan: ***Men** Vatanimni sevaman. **U** hammani ogohlikka chaqirdi. Bellashuvda **bizning** guruh **g'olib** chiqdi.*

**184-mashq.** *Ko'chiring. Olmoshlarni topib, ular qaysi so'z o'rnida qo'llanganini ayting. Olmoshlarning tagiga chizing.*

1. Uzoqdan bir yigit ko'rindi. Uning qadamidan o't chaqnar edi. 2. Bahodir va Sherzod baquvvat yigitlar. Ular jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadilar. 3. O'tgan zamonda bir donishmand chol yashagan bo'lib, uning uch o'g'li bor ekan. 4. Jiyda mevasining danagini yeb bo'lmaydi, ammo uning mag'zi darmondorilarga boy.

**185-mashq.** *Ko'chiring. Olmoshlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.*

1. Hamma uni olqishlab ketdi. 2. Boshliq Nodirning qo'lini ushladi va uni ayvonga taklif etdi. 3. Senda zarur gapim bor, shuni aytmoqchiman. 4. Bu voqea haqidagi sizning fikringiz qanday?

### Kishilik olmoshlari

186-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.*

1. **Biz** O'zbekistonning kelajagimiz. 2. **Ular** hozir maktabni ta'mirlash bilan shug'ullanayaptilar. 3. **Men** yozda tog' etagidagi oromgohda dam oldim. 4. **Sen** Karimjonga nima hadya qilmoqchisan? 5. Bu aziz Vatan **biznikidir**. 6. **Siz** oqayotgan suvning shovqinini eshitdingizmi?

*Men, sen, u, biz, siz, ular* kishilik olmoshlaridir. Bu so'zlar kishilarni ko'rsatadi, ammo kishilar nomini bildirmaydi. Shaxsni bildirgan olmoshlar **kishilik olmoshlari** deyiladi. Kishilik olmoshlari birlikda (*men, sen, u*) va ko'plikda (*biz, siz, ular*) qo'llaniladi, uch shaxsni ko'rsatadi.

**Men, biz** – birinchi shaxs olmoshlari

**Sen, siz** – ikkinchi shaxs olmoshlari

**U, ular** – uchinchi shaxs olmoshlari.

187-mashq. *O'qing. Avval birlikdagi, so'ng ko'plikdagi olmoshlarni yozing.*

Bolalarim, siz qo'rqmang, tashqariga chiqmang!  
2. Siz Samarqandga borganmisiz? 3. Men musiqaga juda qiziqaman. 4. Ular Buxoroga tez-tez borib turadilar. 5. Shukrlar bo'lsinki, Vatanimiz oldida bizning yuzimiz

yorug' bo'ldi. 6. Sen ona-Vatan posbonisan. 7. U she'rni ifodali o'qidi.

**188-mashq.** *She'rlarni o'qing. Ularda uchraydigan kishilik olmoshlarini quyidagi jadvalga joylashtiring.*

Shaxslar	Son	
	birlik	ko'plik
I shaxs		
II shaxs		
III shaxs		

1. Bir narsa bor ko'p asl,  
Seni etar mustaqil.  
U ilmingni boyitar,  
Kamroq bo'lsa, koyitar.  
O'zingda ham bordir bil,  
Boshingdagi u aql.
2. Men qarasam qayoqqa,  
Qaraysan-a shu yoqqa.  
Men ham seni ko'taray,  
Qaldirg'ochni ko'rsatay.
3. Biz istiqlol chaqmoqlari,  
Turonzamin chechaklari.  
Bizlar, Sizlar o'g'il-qizlar,  
Mard-u maydon, sohibi davron  
Amir Temur nabiralari.
4. Qator-qator nihollar,  
Sizni o'zim ekkanman.  
Yumshatib tagingizni  
Butun mehrim to'kkanman.

**189-mashq.** *Chiziqlar o'rniga berilgan kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Hech kimga bermaymiz \_\_\_\_\_, O'zbekiston.  
 2. Vatanim taqdiri – \_\_\_\_\_ taqdirim. 3. O'zbekistonning kelajagi \_\_\_\_\_ qo'limizda. 4. Ey, ozod o'lkaning ozod farzandi, bilib qo'yki, \_\_\_\_\_ Vatan kutadi. 5 \_\_\_\_\_ hech qachon yurtiga xiyonat qilmaydi.

Qo'yish uchun so'zlar: *bizning, seni, mening, seni, u.*

**190-mashq.** *Men, sen, u, biz, siz, ular kishilik olmoshlari ishtirokida «Sayrda» mavzusida bayon yozing.*

### Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi

Kelishiklarning nomi	So'rog'i	Kishilik olmoshlari	
		birlik	ko'plik
1. Bosh kelishik	K i m ?	Men, sen, u	Biz, siz, ular
2. Qaratqich kelishigi	K i m n i n g ?	Mening, sening, uning	Bizning, sizning, ularning
3. Tushum kelishigi	K i m n i ?	Meni, seni, uni	Bizni, sizni, ularni
4. Jo'nalish kelishigi	K i m g a ?	Menga, senga, unga	Bizga, sizga, ularga
5. O'rin-payt kelishigi	K i m d a ?	Menda, senda, unda	Bizda, sizda, ularda
6. Chiqish kelishigi	K i m d a n ?	Mendan, sendan, undan	Bizdan, sizdan, ulardan

**191-mashq.** *Ajratib ko'rsatilgan kishilik olmoshlarining qaysi kelishikda ekanini ayting. So'roqlar yordamida kelishiklarni aniqlang.*

1. Ertaga bo'ladigan kulgi kechasiga **sizni** taklif etamiz.  
2. Yurtimizdagi tarixiy obidalarni **sen** ko'z qorachig'idek asra.  
3. Mana **senga** olam-olam gul, etagingga siqqanicha ol.  
4. Mabodo **mening** aytganimni qilib, huzurimga kelsang, muhim bir sirni **senga** ochaman.  
5. **Uning** maqsadi – tinchlik.  
6. **Bizda** botanika bog'i katta taassurot qoldirdi.

**192-mashq.** *Kishilik olmoshlarini topib, ularning tagiga chizing.*

### **ENG KERAKLI KASB**

Bir kuni dehqon, tegirmonchi, novvoy tortishib qolishdi. Novvoy dedi:

– Men shu mazali va chiroyli nonlarni pishirmasam, siz nima yerdingiz?

Tegirmonchi:

– Men bug'doyni o'z tegirmonimda yanchib, un qilmasam, sen bu mazali nonni nimadan pishirarding? -- dedi.

Dehqon aytdi:

– Agar men bug'doyni ekib, ko'kartirmasam, sen tegirmonda nimani yancharding?

Ular uzoq tortishib, bir qarorga kelibdilar.

Siz nima deb o'ylaysiz, ular qanday qarorga kelishgan?

**193-mashq.** *So'roqlar yordamida ajratib ko'rsatilgan kishilik olmoshlarining qaysi kelishikda ekanini ayting. Gaplarni ko'chiring.*

1. **Siz** kabi zamondoshlarim bilan hamnafas bo'lganimdan quvonib ketdim. 2. **Menga** aytar shuncha gaplaring bor ekan, nega shu choqqacha indamay kelding? 3. **Uning** rang-ro'yidan betobligi ko'rinib turardi. 4. **Siz** bizdan yordam olgani emas, **bizga** rahbarlik qilgani kelgansiz. 5. **Mening** o'zim bu yukni ko'tara olmas edim.

*194-mashq. Men olmoshini kelishiklar bilan turlab, 6 ta gap tuzing.*

*195-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlar o'rniga shu otlarni ko'rsatadigan olmoshlarni qo'yib matnni ko'chiring. Ular qaysi kelishikda kelganini ayting.*

### KAKLIK

**Kaklikni** ko'pchilik yaxshi biladi. **Kaklikning** tumshug'i va oyoqlari qizil. **Kaklik** o'troq yashashga moslashgan. **Kaklikni** respublikamizning deyarli barcha tog'li yerlarida uchratish mumkin.

Aprelda **kaklik** oltitadan yigirmatagacha tuxum qo'yadi. **Kaklikning** tuxumdan chiqqan jo'jalari ota-onasiga ergashib yuradi. **Kaklikni** odamlar qo'lga tez o'rgatib oladilar. **Kaklikdan** zararli hasharotlar qochib qutula olmaydi. **Kakliklar** hasharotlarni qiradi va bu bilan odamlarga katta foyda keltiradi.

*196-mashq. Kishilik olmoshidan oldin qavs ichiga uning so'rog'ini yozib, gaplarni ko'chiring. Olmoshlarning qaysi kelishikda kelganini ayting.*

1. (\_\_\_) Siz o'z Vataningizni sevasizmi? 2. (\_\_\_) ular (\_\_\_) bizga sovg'a keltirishdi. 3. Shifokorlar (\_\_\_) bizning salomatligimiz posbonlari. 4. (\_\_\_) Bizning

maqsadimiz – tinchlik. 5. ( ) Sizning ( ) menga bo'lgan munosabatingiz shumi? 6. Sovrin uchun ( ) biz ( ) ulardan minnatdormiz.

**197-mashq.** *Kishilik olmoshlarini topib, ularning nechanchi shaxsdaligini, sonini va qaysi kelishikda kelganini ayting.*

1. Biz ulug'vor ishlar arafasida turibmiz. 2. Amaki, sizning ismingiz nima? 3. Farzand odobli bo'lishi uchun uni tarbiyalash lozim. 4. Anvar bilan seni sport maydonchasiga taklif etmoqchiman. 5. Parizod bo'lgan voqeani unga aytib berdi. 6. Qushlar bizning do'stimiz, ularni asrang.

Kishilik olmoshlari otlar singari turlanadi. Kishilik olmoshlaridan *men* va *sen* qaratqich va tushum kelishiklarida kelganda, shuningdek, **-niki** qo'shimchasini olganda, bitta **n** tushib qoladi va shunday yoziladi: *Mening, meni, sening, seni, meniki, seniki.*

Kishilik olmoshining III shaxs birligi jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari bilan turlanganda bitta **n** undoshi orttiriladi va shunday yoziladi: *unga, unda, undan.*

**198-mashq.** *Chiziqchalar o'rniga qavs ichidagi so'roqlarga mos kishilik olmoshlarini qo'yib gaplarni ko'chiring.*

1. (Kimning?) \_\_\_\_\_ vatanimiz ko'p millatli.  
2. O'qituvchi (kimdan?) \_\_\_\_\_ xursand bo'ldi. 3. (Kim?) \_\_\_\_\_ daryo bo'yiga bordim. 4. Gulchehra odobli qiz. (Kim?) \_\_\_\_\_ a'lochi o'quvchi. 5. Sport (kimning?) \_\_\_\_\_ yanada baquvvat, dovyurak bo'lishimga yordam beradi.



**199-mashq.** *O'qing. Kishilik olmoshlarining yozilishiga e'tibor bering. Ularni namunadagidek tahlil qiling.*

**N a m u n a:** Bizlardan – olmosh, I shaxs, ko'plikda, chiqish kelishigida.

1. Biz maktabimiz bog'iga yana 50 tup ko'chat o'tkazmoqchimiz. 2. Unga mening so'zlarim og'ir botdi chamasi, yig'lab yubordi. 3. Ish seni yengmasin, sen ishni yeng. 4. Majlis tinchidi, ulardan sado chiqmadi. 5. Sizda insof bormi o'zi?

**200-mashq.** *Men, sen, u olmoshlarini kelishiklar bilan turlang. Men, sen olmoshining qaratqich va tushum kelishigida turlanishiga, u olmoshining jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanishiga e'tibor bering.*

**201-mashq.** *O'qing. Olmoshlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. Ular guzardan o'tib, o'ngga burilganida, quyuq daraxtlar orasidan maktab ko'rindi. 2. Bizning taklifimizga ular rozi bo'lishdi. 3. Sizning maktabingiz hovlisi kattami? 4. O'g'lim, shuni unutma, sen botirlar naslidansan. 5. Mening chin do'stim – kitob. 6. Bolalar yozuvchilari bilan bo'lgan suhbat bizda katta taassurot qoldirdi.

**202-mashq.** *Men, sen, u, biz, siz, ular olmoshlari ishtirokida «Yozda» mavzusida 4 ta gap tuzing.*

**203-mashq.** *Ko'chiring. Olmoshlarning gapdagi vazifasini aniqlang, ularning tagiga chizing.*

1. Shavkatjonning buvajonisi so'zining ustidan chiqdi: unga rostdan ham bolalar oromgohiga yo'llanma olib berdi. 2. Quyosh charaqlab tursa-da, uning tafti uncha baland

emas edi. 3. Dadang bu teraklarni senga atab ekkan. 4. Men Vatanimni juda sevaman. 5. Biz uning yashash joyini bilmaymiz, shuning uchun ham sizga murojaat qilyapmiz.

**204-mashq.** *Chiziqlar o'rniga berilgan olmoshlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.*

1. Sinf dosh do'stlarim yarq etib \_\_\_\_\_ qaradilar. 2. Ilm – aqlning chirogi, \_\_\_\_\_ boyit. 3. Toshkentni sevamiz \_\_\_\_\_. 4. \_\_\_\_\_ maktab bog'ida ishladilar. 5. \_\_\_\_\_ darslarni o'z vaqtida tayyorlaysizmi?

Qo'yish uchun so'zlar: *uni, siz, menga, ular, biz.*

### Topshiriq va savollar

1. Olmosh haqida nimalarni bilasiz?
2. *Men, sen, u* olmoshlarini kelishiklar bilan turlang, yozilishini tushuntiring.

## FE'L – SO'Z TURKUMI

Predmetning harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'llar nima qildi?, nima qiladi?, nima qilyapti?, nima qilmoqda?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Fe'llar gapda kesim vazifasini bajaradi va ega bilan bog'lanadi.

**205-mashq.** *O'qing. Ajratilgan so'zlarga so'roq berib, ularning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.*

Bobomiz Alisher Navoiy 1441 -yilning 9-fevralida Hirot shahrida **tug'ilganlar**. Bolalik chog'laridayoq she'riyatga

**qiziqqanlar. Eng avvalo, odobli bo'lganlar. Ko'p kitob o'qiganlar. Ona tilini yaxshi bilganlar. Fors va arab tillarini ham puxta o'rganganlar.**

*206-mashq. Rasmni kuzating. Savollar asosida rasm haqida so'zlang va yozing.*



1. Rasmda qaysi fasl tasvirlangan?
2. Siz rasmda kimni ko'rayapsiz? Ismini ayting.
3. Bahorda qir-adirlarda nima o'sadi?
4. Rasmdagi qaysi jonivor sizga yoqadi?

*207-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Fe'lning tagiga ikki chiziq chizing.*

1. Har bir o'quvchi yaxshi o'qishni **istaydi**.
2. Sport odamni **chiniqtiradi**.
3. Said uchuvchi bo'lishni **istaydi**.
4. Hasan va Husan yettinchi sinfda **o'qishadi**.
5. Biz

Qarshi shahrida yashaymiz. 6. Salim topishmoqning javobini topdi.

**208-mashq.** *O'qing. Fe'llarga so'roq bering. Qavs ichidagi chiziqalar o'rniga shu so'roqlarni qo'yib ko'chiring.*

1. Quyosh tog'lar orasidan sekin (\_\_\_) ko'tarildi.
2. Maktab hovlisida Mashkurani (\_\_\_) ko'rdim.
3. Avaz uy vazifasini to'g'ri (\_\_\_) bajardi.
4. Quyosh atrofga nur (\_\_\_) sochdi.
5. Men she'r o'qishni (\_\_\_) sevaman.
6. Alisher joyini keksa kishiga (\_\_\_) bo'shatdi.

**209-mashq.** *Topishmoqlarning javobini ayting. Fe'llarni aniqlang, ularga og'zaki so'roq bering.*

1. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
2. O't-olovni tishlaydi,  
Og'zi kuyib pishlaydi.
3. Yomg'irdan so'ng chiqadi,  
Cho'tir qalpoq kiyadi,  
Quyoshni yoqtirmaydi,  
Shamolni chaqirmaydi.

**210-mashq.** *So'roqlarga mos fe'l tanlab, gaplarni tugating.*

Men itimni juda (nima qilaman?). 2. Bilaman, baribir To'rtko'z qaytib (nima qiladi?). 3. Men uni jahl bilan (nima qildim?). 4. To'rtko'z dala chetida (nima qilib?), egatlarda kimnidir (nima qildi?). 5. It qaytishda to'g'ri oldimga (nima qildi?).

Qo'yish uchun so'zlar: *yaxshi ko'raman, keladi, chaqirdim, to'xtab, qidirdi, keldi.*

**211-mashq.** *Berilgan soʻzlardan gaplar tuzing, tuzgan gaplaringizni yozing. Soʻroq yordamida feʼllarni aniqlang va tagiga chizing.*

Gʻir-gʻir, shabada, bahorda, esadi.

Vatanimizni, oʻz, biz, sevamiz.

Ekdik, biz, gul, bogʻga.

Don, sepdi, Sanobar, joʻjalarga.

Shuhrat, beradi, toʻgʻri, javob.

Bahor

**212-mashq.** *Oʻqing. Feʼllarni aniqlang. Koʻchiring va feʼllarning tagiga chizing.*

*H.Saʼdulla*

### IKKI QIZ

Mening ikki qizim ham

Katta boʻlib qolishdi.

Onalari qoʻlidan

Yumushlarin olishdi.

Sahar turib Saida

Hovlimizni supurar,

To ungacha Umida

Choy tayyorlab ulgurur.

**213-mashq.** *Nima qildi? Nima qilyapti? soʻroqlariga javob boʻlgan feʼllardan ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing va yozing.*

**214-mashq.** *Rasmlarni diqqat bilan kuzating, bahorgi ishlar haqida soʻzlab bering. Rasm asosida 6 ta gap tuzing va yozing.*



215-mashq. Chiziqlar o'rniga berilgan otlarga mos fe'llar tanlab, gaplar tuzing. Fe'llarning tagiga chizing.

Shifokor \_\_\_\_\_. O'qituvchi \_\_\_\_\_. Quruvchi \_\_\_\_\_.  
Shoir she'r \_\_\_\_\_. Suxandon \_\_\_\_\_. Haydovchi mashina  
\_\_\_\_\_. O'quvchi \_\_\_\_\_.

Qo'yish uchun so'zlar: *davolaydi, haydaydi, o'qiydi, yozadi, quradi, gapiradi, o'qitadi.*

shifokor

### Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

216-mashq. O'qing. Topishmoqlarning javobini ayting. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang.

1. Ko'p yillar yashar o'zi,  
Sira yumilmas ko'zi.  
Tong otar-u bo'lar kech,  
O'z joyidan jilmas hech.



2. Rezina oyoqlari,  
Egilgan quloqlari.  
Uning motori bo'lmas,  
Minmasang yura olmas.  
Gar minsang chopib ketar  
Manzilga tezda yetar.

3. Yog'ochdan dastasi bor,  
Temirdandir qirq tishi.  
Ushlamasa duradgor.  
Gumon uning qirqishi.



Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi. **Bo'lishli fe'llar** ish-harakatning bajarilishini, **bo'lishsiz fe'llar** esa bajarilmasligini bildiradi. **Bo'lishsiz fe'llar** fe'l o'zagiga **-ma** inkor qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan: *O'ktam akasiga xat yozdi. Baxtiyor jismoniy tarbiya darsiga qatnashmadi.*

*217-mashq. O'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang, ko'chiring. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.*

1. Nasima opasiga yordamlashdi. 2. Ismoil yaxshi o'qiydi. 3. Karima uni ko'rdi, biroq tanimadi. 4. Alisher Navoiy Astrobodga jo'nab ketdi, ammo uni xalq hech qachon unutmadi. 5. Ozoda xatni tez va chiroyli yozadi.

*218-mashq. She'rlarni o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang. Ularning tagiga chizing.*

1. Shirinliklar xo'p mazza –  
Shakar, qiyom, tort, asal,  
Me'yor bilan yeganlar,  
Bo'lmas ekan hech kasal.
2. Tom boshida tog'ora,  
Tog'orada zog'ora.  
Zog'orani yopolmay,  
Chol-u kampir ovora.
3. Nomimni derlar hakka,  
In qo'ydim chakalakka,  
Demang: o'g'ri, urishqoq,  
Undaymas, men tirishqoq.



**219-mashq.** *Ko'chiring. Bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'lga aylantirib yozing. Bo'lishsiz fe'lni hosil qilgan qo'shimchanning tagiga chizing.*

O'qidi – o'qimadi  
gapirdi – \_\_\_\_\_  
baqirdi – \_\_\_\_\_  
sayradi – \_\_\_\_\_  
o'tirdi – \_\_\_\_\_

yurdi – \_\_\_\_\_  
keldi – \_\_\_\_\_  
bordi – \_\_\_\_\_  
sakradi – \_\_\_\_\_  
yugurdi – \_\_\_\_\_

**220-mashq.** *Chiziqlar o'rniga gapning mazmuniga mos fe'llarni qo'yib, ko'chiring.*

1. Bolalar maydonda \_\_\_\_\_. 2. Sanjar va Hasan gul \_\_\_\_\_. 3. Ma'mura a'lo baholarga \_\_\_\_\_. 4. Sardor to'p \_\_\_\_\_. 5. To'lqin futbolni yaxshi \_\_\_\_\_. 6. Bolalar basketbol \_\_\_\_\_.

Qo'yish uchun so'zlar: *to'plandilar, o'ynayaptilar, o'ynaydi, keltirishdi, o'qiydi, tepdi.*

**221-mashq.** *O'qing. Fe'llarni aniqlang. Bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga aylantiring.*

1. Biz tog'ga chiqdik. 2. Botir xat yozdi. 3. Sardor uxladi. 4. Mehmonlar keldilar. 5. Salim kitob o'qidi. 6. Obid gullarga suv quydi.

avtobus

**222-mashq.** *Fe'llarni o'qing. Ularga mos otlar tanlang.*

\_\_\_\_\_ o'qiyapti.  
\_\_\_\_\_ uchdi.  
\_\_\_\_\_ pishdi.

\_\_\_\_\_ esdi.  
\_\_\_\_\_ chopdi.  
\_\_\_\_\_ ko'rdik.

Qo'yish uchun so'zlar: *Nazira, ot, olma, kino, shamol, qush.*

**223-mashq.** *Bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga aylantirib yozing.*

Boshlashdi, so'raydi, so'zlaydi, kesdi, yozyapti, kutdi, esdi, kuldi, kelyapti, ishlayapti, yechdi, ko'rdik.

**224-mashq.** *She'rni o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang. Ularning tagiga chizing.*

*Ahad Po'latov*

### **QANI QUYON?**

Qodirjonning oyisi  
Berar edi maslahat:  
O'g'lim, to'g'ri bo'l doim,  
Mehnatni sevgin albat.  
Boshlagan ishing har dam  
Bajargin sen astoydil!  
Chala tashlab birini  
Boshqasiga ketmagil.  
Ikki quyon ortidan  
Quvgan foyda topolmas.  
Bilgin, o'yinqaroqlar  
Hatto birin tutolmas!  
– Qani, quyon, Oyijon! –  
Dedi ukasi Tolib.  
– Tutaman o'zim, – dedi  
O'rnidan tura solib.

## FE'L ZAMONLARI

**225-mashq.** *O'qing. So'roq yordamida fe'llarni aniqlang va ko'chirib yozing.*

1. Anvar to'garakda turli modellar yasashni o'rgandi.  
2. Sinfimiz o'quvchilari sport musobaqalarida qatnashib, birinchilikni qo'lga kiritmoqchilar. 3. Kuchli yomg'ir yog'ayapti. 4. Nasiba «Yulduz» hissadorlik jamiyatida ishlayapti. 5. Gulning hidi hamma yoqqa tarqaldi.

Fe'llarda uch zamon bor: **1. O'tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon.**

**O'tgan zamon fe'li** nima qildi? nima qildilar? so'roqlariga javob bo'ladi: *yugurdi, keldi, yugurdilar, keldilar.*

**Hozirgi zamon fe'li** nima qilyapti? so'rog'iga javob bo'ladi: *yuguryapti, kelyapti.*

**Kelasi zamon fe'li** nima qilmoqchi? so'rog'iga javob bo'ladi: *yugurmoqchi, kelmoqchi.*

**226-mashq.** *Ko'chiring. So'roqlar yordamida fe'llarning zamonini aniqlang.*

1. Maktabimiz o'quvchilari gulzorda mehnat qildilar.  
2. Shamol kuchayib, yog'ayotgan yomg'ir qorga aylandi.  
3. Qishloqlar obodlashib, ko'rkamlashmoqda. 4. Chet ellik mehmonlar yurtimizdagi tarixiy obidalarni ko'rib, lol bo'lmoqdalar. 5. Maktabimizda o'tkaziladigan konsertda Umida qo'shiq aytmoqchi.

## O'tgan zamon fe'li

**227-mashq.** *Ko'chiring. O'tgan zamon fe'llarini aniqlang.*

1. Bayramga barcha o'quvchilar puxta tayyorlandilar.
2. Yotoqxonadan allaqanday sharpa eshitildi.
3. Barno mehmonlarga bir-bir qarab qo'ydi.
4. Bahor keldi, havo isiy boshladi.

**O'tgan zamon fe'li** ish-harakatning bajarib bo'linganini bildiradi. O'tgan zamon fe'li qo'shimchasi **-di** jarangsiz undosh tovush bilan tugagan fe'lga qo'shilganda **-ti** tarzida aytiladi, ammo hamma vaqt **-di** yoziladi. Masalan: *aytdi, ochdi, tushdi.*

**228-mashq.** *Ko'chiring. O'tgan zamon fe'lining tagiga chizing. Bu fe'llarning aytilishi va yozilishidagi farqni tushuntiring.*

1. Havo ochilib ketgan, mayin shamol esardi.
2. Biz shoirlarni uchrashuvga taklif etdik.
3. Bu kichik uy-muzeyni biz yaratdik.
4. Samarqandning diqqatga sazovor joylarini fotosuratga oldik.
5. Sadoqatli odam o'z xalqining faxri sanaladi.

**229-mashq.** *O'qing. Nuqtalar o'rniga o'tgan zamon fe'li qo'shimchasini qo'yib ko'chiring.*

## QUSHLAR BIZNING DO'STIMIZ

Bahor faslida dalalar va bog'lar juda chiroyli bo'la.... Bahorda bog'larga va dalalarga juda ko'p qushlar uchib kela... . Bolalar har yili qushlarni juda yaxshi kutib ola...lar. Qushlar uchun yangi inlar yasay...lar. Yasalgan

inlarini daraxtlarga o'rnata...lar. Qushlar har xil zararli hasharotlarni yey... va insonlarga foyda keltira... .

**230-mashq.** *O'qing. Chiziqalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.*

1. Maktabimizda o'tkazilgan «Til bayrami»da 7-sinf o'quvchilari faol \_\_\_\_\_. 2. Har bir kishi o'z Vatanini, yurtini \_\_\_\_\_. 3. Uning har bir qarich yerini \_\_\_\_\_.

Qo'yish uchun so'zlar: *qadrlaydi, qatnashdi, sevadi.*

### Hozirgi zamon fe'li

**231-mashq.** *O'qing. Ko'chiring, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.*

Hozir tanaffus. Hamma o'quvchilar **dam olyaptilar.** Ba'zi o'quvchilar hovlida **o'ynayaptilar.** Bugun Xolida va Ahmad – navbatchi. Navbatchilar sinfda qolishdi. Ular **ishlamoqdalar.** Xolida derazani **ochyapti.** Ahmad latta va bo'rni **tayyorlamoqda.** Xolida va Ahmad – yaxshi navbatchi.

**Hozirgi zamon fe'li** ish-harakatning nutq so'zlanayotgan paytda bajarilishini bildiradi va nima qilayapti? so'rog'iga javob bo'ladi.

Masalan: *o'qiyapti, to'qiyapti, ishlayapti.*

**232-mashq.** *Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida hikoya tuzing.*

Tong otyapti, quyosh nur sochyapti, suv shildirayapti, gullar ochilyapti, qushlar sayrayapti, shabada esyapti.

233-mashq. *O'qing. Chiziqlar o'rniga berilgan hozirgi zamon fe'llaridan mosini qo'yib ko'chiring.*

### KITOB MENING HAMROHIM

Barcha tengdoshlarim kabi men ham vaqtimni ko'ngilli \_\_\_\_\_ . Men ko'pincha foydali mehnat bilan \_\_\_\_\_ , bo'sh vaqtlarimda qiziqarli badiiy kitoblar \_\_\_\_\_ . Yaqinda men «Pahlavonning qismati» nomli kitobni o'qib chiqdim. Bu kitob menga juda yoqdi.

Qo'yish uchun so'zlar: *o'qiyapman, o'tkazyapman, shug'ullanyapman.*

### Kelasi zamon fe'li

234-mashq. *Ko'chiring. Fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.*

Toshkentimiz kundan kunga go'zallashmoqda. Baland binolar shahrimiz husniga husn qo'shmoqda. Biz shahrimizning obod bo'lishi uchun harakat qilmoqdamiz. Toshkentga kelgan mehmonlarda shahrimiz katta taassurot qoldirmoqda. Biz Toshkentni sevamiz.

**Kelasi zamon fe'li** ish-harakatning nutq so'zlanayotgan paytdan keyin bajarilishini bildiradi va nima qiladi?, nima qilmoqchi? so'roqlariga javob beradi.

Masalan: *oladi, boradi, yozmoqchi, ishlamoqchi.*

235-mashq. *O'qing. Gaplarni ko'chirib, kelasi zamon fe'llariga so'roq bering.*

Biz yaqinda sinf yig'ilishini o'tkazmoqchimiz. Yig'ilishda a'lochi o'quvchilar so'zga chiqmoqchilar. Nodira yozgan

she'rini o'qib bermoqchi. Men esa sinfimiz o'quvchilarining do'stligi haqida gapirib bermoqchiman.

**236-mashq.** *O'qimoqchi, o'rganadi fe'llarini qatnashtirib gaplar tuzing.*

**237-mashq.** *Quyidagi rasm asosida hikoya tuzib yozing. Fe'llarni topib, tagiga chizing. Berilgan rejadan foydalaning.*

## Bog'

### Reja:

1. Bizning bog'.
2. Bog'da pishiqchilik.
3. Biz kattalarga yordam berdik.
4. Yaxshi dam – mehnatga hamdam.



238-mashq. *O'qing. Fe'llarni topib, ularning qaysi zamondaligini aniqlang.*

### KUCH BIRLIKDA

Yoz kunlarining birida chumoli ovqat izlardi. U dalada kattakon bug'doy boshog'ini ko'rib qoldi. Chumoli boshoqni iniga olib ketmoqchi bo'ldi. Biroq u og'ir edi. Chumoli boshoqni ko'tara olmadi. O'rtoqlarini yordamga chaqirdi. Chumolilar birgalashib boshoqni uyalariga olib ketdilar.

239-mashq. *«Oromgohda» mavzusiga mos fe'llardan qatnashtirib, 4 ta gap tuzing va yozing. Yozgan gaplaringizdagi fe'llarning tagiga chizing, zamonini aniqlang.*

Yordamchi so'zlar: *cho'mildik, o'ynadik, dam oldik, quvondik.*

### FE'LLARNING TUSLANISHI

Fe'llar birlik va ko'plikda qo'llanadi. Birlikdagi fe'l ish-harakatning bir kishi tomonidan bajarilganini bildiradi. Ko'plikdagi fe'l esa ish-harakatning birdan ortiq kishi tomonidan bajarilganini bildiradi.

Fe'llarda uch shaxs bor:

**I shaxsdagi** fe'l ish-harakatning **so'zlovchi** tomonidan bajarilganini bildiradi.

**II shaxsdagi** fe'l ish-harakatning **tinglovchi** tomonidan bajarilganini bildiradi.

**III shaxsdagi** fe'l ish-harakatning **o'zga(lar)** tomonidan bajarilganini bildiradi.

Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalarini olib o'zgarishi **tuslanish** deyiladi.



**240-mashq.** *O'qing. Fe'llarning shaxs-sonini ayting.*

1. Men bu asarni o'qib chiqdim. 2. Sen maktabga bordingmi? 3. Erkin she'r yodladi. 4. Biz hayvonot bog'iga bordik. 5. Nasiba 7-sinfda o'qiydi. U a'lochi.

**241-mashq.** *Berilgan so'zlardan avval I shaxsni bildirgan fe'llarni, keyin II shaxsni bildirgan fe'llarni, so'ngra III shaxsni bildirgan fe'llarni namunadagidek ajratib yozing.*

Namuna: **I shaxs** o'qidim, ..., ..., ...,  
**II shaxs** o'qiding, ..., ..., ...,  
**III shaxs** o'qidi, ..., ..., ... .

O'qidim, o'qiding, o'qidi, aytdim, bording, keldi, yugurdi, kuyladim, yozding, oldi, kulding, sakradim.

**242-mashq.** *O'qing. Fe'llarni alohida ko'chirib, shaxs-sonini ko'rsating.*

Namuna: *So'zladi:* III shaxs, birlikda.

1. U juda ham sho'x va quvnoq kuyladi. 2. Biz ipakchilik xo'jaligiga sayohatga chiqdik. 3. Vatanim, bizlarga ishonadi. 4. Men Vatan haqidagi she'rlarni ko'p o'qiyapman. 5. U o'rta maktabni bitiryapti.

### O'tgan zamon fe'lining tuslanishi

	Birlik	Ko'plik
<b>I shaxs</b>	<i>yozdim, aytdim</i>	<i>yozdik, aytdik</i>
<b>II shaxs</b>	<i>yozding, aytding</i>	<i>yozdingiz, aytdingiz</i>
<b>III shaxs</b>	<i>yozdi, aytdi</i>	<i>yozdi (lar), aytdi (lar)</i>

**243-mashq.** *O'qing. O'tgan zamon fe'llarini ko'chirib, qavs ichida shaxs va sonini ko'rsating.*

1. Nodira shahar olimpiadasiga yo'llanma oldi.
2. Rizq-ro'z harakat va kasbdan keladi.
3. Biz chet ellik mehmonlarni kutib oldik.
4. Sen bahorni sog'inmadingmi?
5. Bu tashabbusni ham siz boshlab berdingiz.

244-mashq. *Kelmoq, bermoq, ishlamoq fe'llarini o'tgan zamonda tuslab, tuslovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.*

### Hozirgi zamon fe'lining tuslanishi

Hozirgi zamon fe'li – fe'l negiziga **-yap** yoki **-moqda** qo'shimchasini, undan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan tuslanadi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>o'rganayapman</i>	<i>o'rganayapmiz</i>
II shaxs	<i>o'rganayapsan</i>	<i>o'rganayapsiz</i>
III shaxs	<i>o'rganayapti</i>	<i>o'rganayapti (lar)</i>
I shaxs	<i>o'rganmoqdaman</i>	<i>o'rganmoqdamiz</i>
II shaxs	<i>o'rganmoqdasan</i>	<i>o'rganmoqdasiz</i>
III shaxs	<i>o'rganmoqda</i>	<i>o'rganmoqda (lar)</i>

245-mashq. *Hozirgi zamon fe'llarini alohida ko'chirib, qavs ichida shaxs-sonini ko'rsating.*

### DARSDA

Dars boshlandi. O'qituvchi sinfga kirdi. Navbatchi qiz Nasiba davomat haqida ma'lumot beryapti. Qolgan o'quvchilar uyga berilgan topshiriqni takrorlayaptilar. Men javob berishga tayyorlanmoqdaman. Dilshod doskaga bugungi sanani yozyapti. O'qituvchi o'quvchilarni diqqat bilan kuzatmoqda. Hamma bilim olishga tayyor.

246-mashq. *Chiziqlar o'rniga tuslovchi qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Men qushlarga don ber \_\_\_\_\_. 2. Sharofat imtihondan «5» baho ol \_\_\_\_\_. 3. O'quvchilar shanbalikda qatnashyapti \_\_\_\_\_. 4. Sen qaysi kitobni o'qiyap \_\_\_\_\_. 5. Biz qushlarning sayrashini maroq bilan eshitmoqda\_\_\_\_\_.

### **Kelasi zamon fe'lining tuslanishi**

247-mashq. *Fe'llarni o'qing va zamonini ayting.*

Ishlamoqchiman, bormoqchiman, uchmoqchi, kelmoqchisan, davolanmoqchisiz, o'qimoqchimiz.

**Kelasi zamon fe'li – fe'l o'zak-negiziga -moqchi qo'shimchasini va undan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan tuslanadi.**

	<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
<b>I shaxs</b>	<i>ishlamoqchiman</i>	<i>ishlamoqchimiz</i>
<b>II shaxs</b>	<i>ishlamoqchisan</i>	<i>ishlamoqchisiz</i>
<b>III shaxs</b>	<i>ishlamoqchi</i>	<i>ishlamoqchi(lar)</i>

248-mashq. *Bajarmoq, qurmoq fe'llarini kelasi zamonda tuslab, tuslovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.*

249-mashq. *Chiziqlar o'rniga berilgan fe'llardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Ahmad shaxmat to'garagiga \_\_\_\_\_. 2. O'quvchilar Amir Temur muzeyiga \_\_\_\_\_. 3. Dilnoza va men tikuvchi \_\_\_\_\_. 4. Sen zardo'zlik sirlarini \_\_\_\_\_?

Qo'yish uchun so'zlar: *bormoqchilar, o'rganmoqchimisan, qatnashmoqchi, bo'lmoqchimiz.*

## FE'LLARNING YASALISHI

**250-mashq.** *Ustunlarga ajratib berilgan tub, yasama va qo'shma fe'llarni o'qing.*

O'qi	ishla	qo'l qo'y
bajar	ko'kar	yordam ber
o'tir	bo'sha	olib kel

### Fe'l yasovchi qo'shimchalar

**-la** qo'shimchasi ot, sifat va boshqa so'z turkumlaridan turli ma'nodagi fe'llar yasaydi. Masalan: *arra – arrala, qora – qorala.*

**-a** qo'shimchasi ayrim ot va sifatlarga qo'shilib, o'sha ot va sifatga taalluqli ish-harakatni anglatadi.

Masalan: *osh – osha, bo'sh – bo'sha.*

**-r, -ir, -ar, -ay** qo'shimchalari sifatlarga qo'shilib, undan anglashilgan tusga yo holatga kirish ma'nosini bildiradi.

Masalan: *gap – gapir, eski – eskir, oq – oqar, keng – kengay.*

**-illa** qo'shimchasi taqlidiy so'zlarga qo'shilib, o'sha tovushga xos bo'lgan ish-harakatni anglatadi.

Masalan: *chirq – chirqilla, chir – chirilla, tirs – tirsilla, gur – gurilla.*

**-sira, -sa** qo'shimchalari otlarga qo'shilib, ot anglatgan narsani istash ma'nosini bildiruvchi fe'llar yasaydi.

Masalan: *suv – suvsira, suvsa, uyqu – uyqusira, tuz – tuzsira.*

**-lan, -lash** qo'shimchalari turli so'zlarga qo'shib, fe'l yasaydi.

Masalan: *faxr – faxrlandi, ikki – ikkilandi, suhbat – suhbatlashdi, yordam – yordamlashdi.*

**-ira** qo'shimchasi fe'l yasovchi *yarq, yalt, yilt* kabi so'zlarga qo'shib, shu so'zlardan anglashilgan holatga o'tish ma'nosini anglatuvchi fe'llar yasaydi.

Masalan: *yarqiradi, yaltiradi, yiltiradi.*

**251-mashq.** *O'qing. Yasama fe'llarni ajratib yozing. Yasovchi qo'shimcha va uning ma'nosini izohlang.*

1. «17 yoshimda men to'qimachilik korxonasiga ishga joylashdim», – deb eslaydi Xolisxon aya. Mana shu korxonada Xolisxon aya uzluksiz yarim asr ishladi. 2. Majlis qatnashchilari ajoyib pedagog Oqilxon Sharofiddinov nomini abadiylashtirishga qaror qildilar. 3. Omon ota qo'lidagi choydan xo'plab ichdi. 4. Alijon uyalganidan qizarib ketdi.

**252-mashq.** *Fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida berilgan so'zlardan fe'llar yasang.*

Ish, o'y, qor, taq, kuch, yarq, bo'sh, es, ko'k, gul, ko'z.

**253-mashq.** *Ko'chiring. Fe'l yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing. Istagan fe'lni qatnashtirib 4 ta gap tuzing.*

Esla, faxrlandi, egalla, kengaytir, tinchi, ishla, eskir, oqar, bo'shadi, yo'qla.

## Qo'shma fe'llar

Birdan ortiq so'zlarni qo'shish bilan yasalgan fe'llar **qo'shma fe'l** deyiladi. Qo'shma fe'llar quyidagicha yasaladi:

1. Fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan yasaladi: *dam olmoq, himoya qilmoq.*

2. Ikki fe'lning birikishidan yasaladi: *sotib olmoq, chaqirib kelmoq.*

Qo'shma fe'llar ajratib yoziladi: *Turg'un uni begonaday qarshi oldi.*

**254-mashq.** *Ko'chiring. Qo'shma fe'llarni aniqlang va tagiga chizing.*

1. Nodirbek shaharga tushlikdan keyin tushib chiqmoqchi. 2. Erta tongda shiddatli yomg'ir yog'ib o'tdi. 3. Hammalarining ko'ngillari quvonch bilan to'lib toshdi. 4. Aliqul savollarga dadil javob berdi. 5. Askarlarimiz Vatan tinchligini vijdonan himoya qiladilar.

**255-mashq.** *O'qing. Berilgan qo'shma fe'llar ishtirokida 4 ta gap tuzing va yozing.*

Qaror qilmoq, imzo chekmoq, dam olmoq, sotib olmoq, o'qib kelmoq, ko'rib chiqmoq.

## Topshiriq va savollar

1. Qanday so'z turkumiga fe'l deyiladi? Fe'llar gapda qaysi so'z turkumi bilan bog'lanadi?

2. Fe'l gapda qanday bo'lak vazifasida kelishini ayting.

## GAPNING MAQSADGA KO'RA TURLARI

**Gap** tugallangan mazmun bildiradi. Gap so'zlardan tuziladi. Gapda so'zlar mazmun jihatidan o'zaro bog'lanadi. Gapning birinchi so'zi yozuvda bosh harf bilan boshlanadi.

Gapda so'zlar o'zaro bog'lanib keladi. Gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanadi.

*1-mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.*

1. ko'rindi, osmonda, bulut. 2. yashaymiz, biz, qishloqda.  
3. bor, bog'i, maktabimizning. 4. ochildi, paxtalar, dalalarda. 5. turamiz, biz, ko'chasida, Navoiy.

*2-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Ularning qanday gaplar ekanligini ayting.*

## VATAN MO'TABARDIR

Siz o'z Vatanningizni sevasizmi inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir inson uchun Vatandan ortiq mehrigiyo bormi yo'q, albatta Vatan ona kabi yagonadir yagonaligi bilan muqaddas va bebahodir.

Har bir gap biror maqsad bilan aytiladi. Gaplar xabar, so'roq, his-hayajon, buyruq, istak mazmunini bildiradi.

Xabar mazmunini bildirgan gap **darak gap** deyiladi. Yozuvda darak gapning oxiriga **nuqta** (.) qo'yiladi.

So'roq mazmunini bildirgan gap **so'roq gap** deyiladi. Yozuvda so'roq gapning oxiriga **so'roq belgisi** (?) qo'yiladi.

Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan qaplar **buyruq qap** deyiladi. Buyruq qapning oxiriga nuqta qo'yiladi.

Kuchi his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap **his-hayajon gap** deyiladi. His-hayajon gapning oxiriga **undov(!) belgisi** qo'yiladi.

*3-mashq. Gaplarni o'qing. Har bir gapning qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

1. Podsho Botir merganni so'ramay-netmay jazolamoqchi bo'libdi. 2. Taqsir podsho, sizga bir savolim bor. 3. Shunga javob bering, so'ngra jazolasangiz roziman! 4. Taqsir, bola och qolsa kimdan non so'raydi? 5. Bola kimga erkalik qiladi? 6. Botir mergan ovulda katta obro' topib, murod-maqsadiga yetibdi.

*4-mashq. O'qing. Darak, so'roq va buyruq gap, his-hayajon gaplarni aniqlang.*

*Ahad Po'latov*

**AHMAD HAQMI?..**

Nega turtib yig'latding,  
Qiz bolani, hoy Ahmad?  
Bu ishing uchun senga  
Hech kim aytmaydi rahmat.



– Nega o‘zi tirjaydi,  
Bo‘ldi turtmoqchi meni.  
Akam aytgan: – Ur, qo‘rqma,  
Kim tegib, turtsa seni.  
Aytingiz siz: kimdir haq?  
Ahmad haqmi yo nohaq?

*5-mashq. O‘qing. Gaplarni quyidagi tartibda yozing.  
Darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap.*

1. Qishlog‘imizda katta bog‘ bor. 2. Sen masalani yechdingmi? 3. Dam olish kuni kinoga borasanmi? 4. Shu Vatan muqaddasdir! 5. Mevali daraxtlar gullagan. 6. Bepoyon paxta dalalarimiz qanday go‘zal!

*6-mashq. Berilgan rasm asosida gaplar tuzib yozing.  
Gaplarni ohangiga rioya qilib o‘qing.*



**7-mashq.** *O'qing. Gaplarni namunadan foydalangan holda so'roq gaplarga aylantirib yozing.*

**N a m u n a:** *Alisher bilan Husayn bolalikdan birga o'sishdi.  
– Alisher bilan Husayn bolalikdan nima qilishdi?*

Alisher bilan Husayn bolalikdan birga o'sishdi. Husayn bolalar bilan «urush-urush» o'ynardi. Otda chopar, qilich-bozlikka qiziqardi. Alisher esa ko'p kitob o'qir, she'rlar yozar va ularni yod olardi. Har ikkisi katta bo'lib, ulg'ayishdi. Husayn taxtga o'tirdi. Uni Hirotda shoh etib tayinlashdi. Alisher esa shoir bo'ldi. U el-yurt tinchligi haqida o'yladi.

**8-mashq.** *O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Har bir gapning oxiriga qanday tinish belgi qo'yilishini ayting va yozing.*

### **TUG'ILGAN KUN**

Bugun Ma'muraning tug'ilgan kuni u sinfimizdagi a'lochi o'quvchilardan uni Sur'at va men tabrikladik Ma'ruf bilan O'ktam gul keltirishdi Ma'mura xursand bo'ldi u bizlarni uyiga taklif qildi.

**9-mashq.** *O'qing. Gaplarning mazmuniga e'tibor bering. Matnni ko'chiring.*

### **BEODOB**

Bir kishi o'rtog'iga xat yozayotgan edi. Shu paytda begona odam kelib uning xatiga qaradi. Xat yozayotgan kishi begona odamga qanday tanbeh berishni bilmadi. Xatida: «Bir begona ahmoq xatimni o'qiyotganligi uchun davom ettira olmadim», – deb yozdi. Begona odam o'z qilmishidan izza bo'ldi.

**10-mashq.** *She'ni ifodali o'qing. Har bir gap qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

*Erkin Qambarov*

### **NIMA UCHUN?**

O'ynab gulli chinnini,  
Hech tinch turmadi Norqul.  
Tushib ketib qo'lidan,  
Polda bo'ldi u kul-kul.  
Kelib qolib onasi,  
So'radi: Kim sindirdi?

Titroq bosib bolani,  
Qo'rqqanidan jim turdi.  
Keyin: – «Men», – deya dadil,  
Chiqardi sirning uchin.  
Urishmadi onasi,  
Ayting-chi, nima uchun?

## **GAPNING BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI**

**11-mashq.** *O'qing. Matnga sarlavha toping. Har bir gapning ega va kesimini so'roq berib aniqlang.*

Qushlar zararli hasharotlarni yeb, bizga katta foyda keltiradilar. Ular bahorda tinmay harakat qilib, o'zlariga in yasaydilar. Bolalar, qushlarga g'amxo'r bo'ling! Qushlarning inini buzming.

*Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.*

Ega va kesim gapning bosh bo'laklaridir.

Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lak ega deyiladi. Ega kim?, kimlar?, nima?, nimalar? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Barno keldi. O'quvchilar to'plandilar. Bulut tarqaldi. Paxtalar ochildi.

Ega haqida nima deyilganini bildirgan gap bo'lagi kesim deyiladi. Kesim nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Shamol esdi. Tikuvchi ko'ylak tikyapti. Ahmad muzeyga bormoqchi.

Ega bilan kesim o'zaro bog'lanadi va gap hosil qiladi.

**12-mashq.** O'qing. Har bir gapning ega va kesimini aniqlab, namunadagidek yozing.

N a m u n a: *Shavkat yordamlashdi – Shavkat nima qildi?  
Kim yordamlashdi? – Shavkat yordamlashdi.*

Shavkatning otasi bog'ga gul ko'chatlari o'tqazdi. Shavkat yer kovlashda otasiga yordamlashdi. Ko'chatlarga quyish uchun suv tashidi. Bir mahal uning qorni ochdi. Onasidan ovqat so'radi.

**13-mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ular gapda qanday vazifada kelayotganini aniqlang.

### ANVAR – RASSOM

Anvar ko'm-ko'k dala, beg'ubor osmon rasmini **chizdi**. Dalada qo'ylar **o'tlab yuribdi**. Otasi qo'y **boqmoqda**. Anvar rasmni otasiga **ko'rsatdi**. Otasi **xursand bo'ldi**. Anvarning chehrasiga tabassum yugurdi.

**14-mashq.** *O'qing. So'roqlar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni namunadagidek ko'chiring. Qo'yilgan so'zlar tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

Namuna: O'quvchilar (qayerga?) gul o'tqazdilar.

*O'quvchilar maktab bog'iga gul o'tqazdilar.*

O'ktam (qanday?) ko'chat keltirdi. Barno va Sanobar (nimani?) o'tqazdi. Obid (nimaga?) suv quydi. Ko'chat (qanday?) ko'kardi.

Qo'yish uchun so'zlar: *olma, ko'chatga, uni, yaxshi.*

Gapdagi fikr yana ham to'liq bo'lishi uchun ega va kesimdan boshqa gap bo'laklari ham ishtirok etadi. Ular gapning **ikkinchi darajali bo'laklari** deyiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar kesim bilan bog'lanib, gapning mazmunini to'ldiradi va ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi. Masalan: *Yosh qo'shiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar.*

**15-mashq.** *Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing. Har bir gap bo'lagini so'roq berib aniqlang.*

1. Barno, supurdi, hovlini. 2. Zafarga, yordamlashdi, Zarif. 3. Tandirda, non, pishiriladi. 4. O'ynashardi, bolalar, hovlida. 5. Akam, yasadi, in, ildi, va, daraxt, shoxiga. 6. Ishladilar, bobom, bog'da.

### Sodda yoyiq gaplar

**16-mashq.** *O'qing. Gaplarni ko'chiring.*

1. O'quvchilar polizga bordilar. 2. Onam lag'mon pishirdilar. 3. Muallim darsga kirdi. 4. Rustam chiroyli guldasta yasadi.

Tarkibida ikkinchi darajali bo‘lak qatnashgan gap sodda yoyiq gap deyiladi. Masalan: *Yoqimli shabada xonaga gul hidini olib kirdi. Yo‘ldan mashinalar tinimsiz o‘tib turadi.*

**17-mashq.** *O‘qing. Har bir gapdagi o‘zaro bog‘langan so‘zlarni so‘roqlar yordamida aniqlab, ularni namunadagidek ketma-ket yozing. Sodda yoyiq gaplarni o‘qing.*

**N a m u n a:** Qishloqda katta bog‘imiz bor.

*Qayerda bog‘imiz bor?– Qishloqda bog‘imiz bor.*

*Qishloqda nima bor? – Qishloqda bog‘imiz bor.*

*Qanday bog‘imiz? – Katta bog‘imiz.*

Qishloqda katta bog‘imiz bor. Unda mevalar ko‘p. Bobom bog‘da ishlaydilar. Men yordam beraman. Bobom mendan xursand bo‘ldilar.

**18-mashq.** *O‘qing. Ertakda nechta gap borligini aniqlang va har bir gapdagi so‘zlarga so‘roq bering.*

## **MAYMUN VA KO‘ZOYNAK**

**(ertak)**

Bir maymun yo‘ldan ko‘zoynak topib olibdi. Ko‘zoynakni uyga olib boribdi va taqmoqchi bo‘libdi. Maymun ko‘zoynakni hali dumiga, hali beliga taqaveribdi. Yalab ham ko‘ribdi. Keyin ko‘ziga taqib, murod-maqсадiga yetibdi.

## BOG'LOVCHILAR

**19-mashq.** *O'qing. Ajratilgan so'zlarga diqqat qiling. Gaplarni ko'chirib, ajratilgan so'zlarni namunadagidek belgilang. Ular nima uchun qo'llanganini tushuntiring.*

N a m u n a: *Rustam ravon o'qiydi va chiroyli yozadi.*

1. Bobo **va** nevara suhbat qurishdi. 2. Hasan **va** Zuhra oyijonlariga yordam berib yuborishdi. 3. Oqtoyga qarash menga qoldi, **lekin** men unga yaqinlashgani qo'rqaman. 4. Uchinchi ayol ularning gaplarini tinglab o'tirar, **lekin** indamas edi. 5. Bolalarim, uyda, dala **va** bog' ishlarida ota-onalaringizga qo'lingizdan kelganicha yordam berishingiz kerak. 6. Poklik inson zihnini **va** irodasini mustahkamlaydi.

*Va, lekin, ammo, biroq* so'zlari **bog'lovchilardir.** Bog'lovchilar so'zlarni so'zlarga yoki gaplarni gaplarga bog'laydi. Masalan: *Hamid va Hoshim bir sinfda o'qiydilar.*

*Va* bog'lovchisi qo'llanganda yozuvda vergul ishlatilmaydi.

*Ammo, lekin, biroq* bog'lovchilaridan oldin yozuvda vergul qo'yiladi.

**20-mashq.** *O'qing. Bog'lovchilarni aniqlang.*

1. Sattor va Abbas rassomlik to'garagiga a'zo. 2. Archa katta va chiroyli. 3. Qo'ng'iroq chalindi va o'quvchilar darsga kirdilar. 4. Darsdan keyin Muhabbat va uning ortoqlari kashtachilik to'garagiga bormoqchi edilar. 5. Maktabimiz bog'iga turli xil mevali daraxtlar va rang-barang gullar ekilgan.

**21-mashq.** *O'qing. Bog'lovchilarni toping, gaplarni ko'chiring.*

1. Rasm chizaverardim, lekin taqdirni qarangki, men rassom emas, san'atkor bo'lib tanildim. 2. Sizlar bebaho yoshlik davrini g'animat bilib, bilim olishga tinmay qunt va sabot bilan harakat qilinglar. 3. Ilm ma'rifat va haqiqat kalitidir. 4. Aql bilan mol to'plasa bo'ladi, ammo mol bilan aql to'plab bo'lmaydi. 5. Ustoz va ota-onangizning hurmatini joyiga qo'yinglar. 6. Daftar va kitoblaringizni ozoda tutib, toza saqlanglar.

bebaho

**22-mashq.** *Chiziqlar o'rniga bog'lovchilardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Bog'lar \_\_\_\_\_ xiyobonlarda kuzda yosh nihollar \_\_\_\_\_ butalar o'tqaziladi. 2. Kecha-yu kunduz yurib tolmaymiz, \_\_\_\_\_ manzilni topa olmaymiz. 3. Qushlarni non uvoqlari bilan boqish mumkin, \_\_\_\_\_ ularga qovurilgan urug' berish mumkin emas. 4. Binafsha bargidan ko'paytiriladi, \_\_\_\_\_ limon qalamchadan \_\_\_\_\_ urug'idan ko'paytiriladi. 5. Tuvakdagi tuproq doim nam bo'lishi uchun yozda har kuni, \_\_\_\_\_ qishda esa kamroq suv quyung. 6. Kaktus, pechakgul issiq mamlakatlardan keltirilgan, \_\_\_\_\_ bizda qish sovuq kelishi tufayli bu o'simliklar ochiq joyda o'sa olmaydi.

**23-mashq.** *Bog'lovchilar ishtirokida 6 ta gap tuzib yozing.*

**24-mashq.** *Bahorda qilinadigan ishlar haqida bog'lovchilar qatnashgan hikoya tuzing.*



**25-mashq.** *Matnni o'qing. Unga sarlavha topib, reja tuzing. Reja asosida bayon yozing.*

Tabiiy gaz, elektr tarmog'i odam mehnatini yengillashtiradi, biroq ularga beparvolik bilan qarash baxtsiz hodisalarga olib keladi.

Olov – insonning do'sti. U issiqlik va yorug'lik beradi. Olov inson mehnatini yengillashtiradi, lekin undan ehtiyot bo'lib foydalanish kerak. Aks holda u dushmaningizga aylanishi ham mumkin.

Olov – o'yinchoq emas. Yong'in – katta baxtsizlikka olib keladi.

**26-mashq.** *Ko'chiring. Bog'lovchilarni topib, ular nima uchun qo'llanganini ayting, tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.*

1. Ayol cho'ntagidan ro'molchasini olgan edi, puli yerga tushdi, lekin u sezmedi. 2. Ko'ylaging juda chiroyli, biroq dazmollanmagan ekan. 3. Sohiba o'rnidan turdi-yu, ammo o'ylamay uydan chiqib ketdi. 4. Ravshan ikkita g'ishtni ustma-ust ko'tarib keta boshladi, biroq besh-olti qadam yurgach to'xtab qoldi. 5. Ravshan g'ishtni olgan joyiga qaytarib qo'ydi va qo'lini qoqib, o'rtoqlari yoniga yugurib ketdi. 6. Barnoga o'xshagan ishchan, odobli va tartibli o'quvchilar ko'p.

**27-mashq.** *O'qing. Bog'lovchilarni aniqlang. Bog'lovchili gaplarni ko'chiring.*

1. Men sizga dori berib yuboraman, ammo qovurilgan go'sht, achchiq ovqat yemasinlar. 2. Ko'proq sutli ovqatlar va ho'l meva iste'mol qilish kerak. 3. Yosh hakimni

ichkariga taklif etdilar. 4. Temurbek yig'ilishlarda ulamolar oldidan joy olishga harakat qilardi, lekin har doim ularning oldida tiz cho'kib o'tirardi. 5. Kattalarga shu xilda hurmat bildirishni o'ziga qoida qilib olgandi.

iste'mol

**28-mashq.** *Chiziqlar o'rniga bog'lovchilardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Temurbek yaxshi o'qib, ziyrak \_\_\_\_\_ jasur bola bo'lib o'sdi. El-yurtga mehr qo'ydi, \_\_\_\_\_ uning bolalik \_\_\_\_\_ yigitlik davri og'ir kunlarga to'g'ri keldi. 2. Temurbek ko'p azob-uqubatlarni boshidan kechirdi, \_\_\_\_\_ eliga, yurtiga xiyonat qilmadi. Unga hamisha sodiq qoldi. 3. Oqibatda Temurbek \_\_\_\_\_ unga ergashgan amirlar mo'g'ullar ustidan g'alaba qozondi. 4. Alisher Navoiy Hirotda bir qancha mashhur oromgohlar \_\_\_\_\_ madaniyat koshonalari bunyod etganlar. 5. Ilm inson uchun g'oyat oliy \_\_\_\_\_ muqaddas bir fazilatdir.

fazilat

### ? Savol va topshiriqlar

1. Qaysi so'zlar bog'lovchilarga kiradi?
2. Ular nima uchun qo'llanadi?
3. So'zlarni va gaplarni bog'lagan bog'lovchilarga misollar toping.

## GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

**29-mashq.** *O'qing. Har bir gapning ega va kesimini aniqlab, ularning tagiga chizing. Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan o'qing.*

1. Bog'lardan, tokzorlardan, polizlardan xushbo'y hid kelar edi. 2. Alisher Hirotda, Mashhadida ko'p yil tahsil ko'rdi. 3. Ona qizini bag'riga bosdi, erkaladi, yupatdi. 4. Zumrad chiroyli, aqlli, odobli qiz. 5. Tiniq suvlar, ko'm-ko'k daraxtlar shoirlarning ko'nglini to'lqinantirar edi.

Gapdagi bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar **uyushiq bo'laklar** deyiladi.

Uyushiq bo'laklar sanash ohangi bilan o'qiladi, yozuvda ular orasiga vergul qo'yiladi.

Masalan: *Baliqlar dengizda, ko'lda yashaydi.*

**30-mashq.** *Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan o'qing, qaysi bo'laklar uyushib kelganini ayting. Tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish asrash kerak. 2. Mevali daraxtlar va butalar tarkibida vitaminlar ko'p bo'ladi. 3. O'simliklar hayotimizni bezaydi bizni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. 4. O'simliklar yaxshi o'sishi uchun ularni parvarish qilish sug'orish chopish yerga o'g'it solish begona o'tlarni o'tash hosilini o'z vaqtida yig'ib terib olish kerak. 5. O'simliklar odam sog'lig'i uchun zarur va muhim. 6. Ular bizni quyoshning salbiy ta'siridan shovqindan changdan himoya qiladi.

**31-mashq.** *Chiziqlar o'rniga shu turga oid so'zlardan topib qo'ying.*

O'quv qurollari: *daftar*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Uy hayvonlari: *sigir*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Sabzavotlar: *sabzi*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Mevalar: *olma*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Transportlar: *avtobus*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

**32-mashq.** *Gaplarni o'qing va qaysi bo'lak uyushib kelganini ayting. Uyushiq bo'laklarni namunadagidek o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda ko'chiring.*

*N a m u n a: Nima? o'rik, olcha, shaftoli gullab yotibdi.*

1. Mevazorlarda o'rik, olcha, shaftolilar qiyg'os gullab yotibdi. 2. U sodda, uyatchan, kamtarin yigit edi. 3. Havo salqin, toza. 4. Qorabuloq – juda chiroyli, juda so'lim joy. 5. Kishilar, ayollar, bolalar – kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopdilar. 6. O'tloqda oq, sariq, qizil gullar ko'p edi.

**33-mashq.** *Gapning uyushiq bo'laklari orasiga vergul qo'yib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. Dazmol televizor changyutgichni elektrga ulangan holda qoldirib bo'lmaydi. 2. Men uydan chiqib ketayotganimda, albatta, elektr asboblari chiroqlarning o'chirilgan-o'chirilmaganligini tekshirib ko'raman. 3. Quyosh nur sochadi isitadi. 4. Ba'zi daraxtlar barg yozdi qiyg'os gulladi.

**34-mashq.** *Savollarga uyushiq bo'lakli gaplar tuzib, javob bering. Javoblarni yozing, ega va kesimning tagiga chizing.*

1. O'zbekistonda qanday mevalar yetishtiriladi?
2. Toshkentdagi qaysi ko'chalarni bilasiz?
3. Maktabingizda qanday to'garaklar bor?
4. Toshkentda qanday tumanlar bor?

**35-mashq.** *Chiziqlar o'rniga shu turga oid so'zlardan topib, gaplarni ko'chiring.*

1. Alisher sariq, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ qalamda chizdi.
2. O'quvchilar daraxtlarga, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ suv quydilar.
3. Biz jismoniy tarbiya darslarida yuguramiz, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.
4. Men, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ istirohat bog'iga bordik.
5. Bahor gullari – boychechak, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ lardan guldasta yasadik.

**36-mashq.** *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang, ularning tagiga chizing.*

*I. Rahmon*

Qo'ymi, echki, ot, tuya, ....

O'z nomi-la hayvondir.

Tili bor, zaboni yo'q,

Fe'li turli-tumandir.

Qilsang qo'rslik ularga,

Tishlar, suzar, yo tepar!

Yaxshi odam sabr-la

Hayvon bilan til topar!

**37-mashq.** *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Ularga so'roq bering. Qanday bo'lak uyushib kelganini ayting. Ularning tagiga tegishlicha chizing.*

1. Atrofni qurshagan tog'lar, qirlar, daraxtlar, tollar – hamma narsa bahor havosiga cho'nganday tiniq, yam-yashil ko'rinadi. 2. Devor, tosh, tuproq, yog'och – hammasi qizigan. 3. Paxtachilikda xalqimiz o'z uquvini, tajribasini, ustaligini butun dunyoga ko'rsatgan. 4. Hovli shinam, soya va salqin edi. 5. Bog'lar, mevalar kishiga orom bag'ishlaydi.

*38-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. Muzqaymoqni tayyorlash uchun ishlatiladigan xom-ashyolar – **sut, qaymoq, shakar, shokolad**. 2. Uydagi **tibbiy, kimyoviy, kukunli** dorilarga ehtiyot bo'ling. 3. Kimyoviy dorilar **pashsha, chivin, suvarak, sichqon, kalamush** kabi zararkunandalarni zaharlab o'ldiradi. 4. **Yoz, kuz** bo'yi chirqillab, don tashiydi pirillab. 5. Yangi sanoat korxonalari respublikamizning **Buxoro, Jizzax, Andijon, Namangan, Samarqand** viloyatlarida ham qurilyapti. 6. O'zbekiston **rizq-nasibali, noni** butun yurt!

*39-mashq. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni topib ko'chiring. Uyushiq bo'llaklar orasiga vergul qo'ying.*

*R. Tolib*

### **NISHOLDA**

To'yda bayramda  
Ro'za ayyomda  
Tansiq nisholda,  
Tortiq nisholda.  
Mazali totli oh  
Misli novvotli oh  
Oh-oh nisholda,  
Oppoq nisholda.

40-mashq. *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Qanday bo'laklar uyushib kelganini ayting. Ularning tagiga chizing.*

*M. Zayniddinova*

### GULLAR

– Hoy gulbeor, gulbeor,  
Qancha o'rtoqlaring bor?  
– Rayhon, binafsha, lola  
Chuchmoma va gulnora  
Tugmachagul, boychechak.

Qizil, pushti, gul pechak,  
Oppoq siren, gulxayri –  
Bog'da o'sadi bari.  
Yoqimli hid sochadi,  
Bahri dilni ochadi.

41-mashq. *O'qing. Chiziqlar o'rniga shu turga oid so'zlardan topib, ko'chiring.*

Shaharlar: *Toshkent*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Tumanlar: *Yunusobod*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Viloyatlar: *Farg'ona*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Mahallalar: *Lolazor*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Ko'chalar: *Yakkatol*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

42-mashq. *O'qing. Berilgan shaxs otlari va fe'llardan foydalanib, gaplar tuzib yozing.*

Nargiza, Nafisa, Xolida, Dilorom, Nodira, Munavvara,  
Matluba, Akrom, To'lqin, Odiljon.

Artyapti, yozyapti, rasm solyapti, chalyapti, o'qiyapti,  
tikyapti, so'zlayapti, arralayapti, yuvyapti.

**43-mashq.** *Quyidagi rasmdan foydalanib, «Oilamiz» nomli hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

**Reja:**

1. Bizning oilamiz.
2. Mening buvim va buvam.
3. Men onamga yordamchiman.
4. Mening qiziqishlarim.



**44-mashq.** *O'qing. Berilgan so'zlardan foydalanib, savollarga javob yozing. Nom bildirgan so'zlar tagiga bir chiziq, harakat bildirgan so'zlar tagiga ikki chiziq chizing.*

1. Kim kuladi, yig'laydi? 2. Kim? Sevadi, ardoqlaydi, xursand bo'ladi? 3. Nima oqadi, qaynaydi, soviydi? 4. Nima sayraydi, uchadi? 5. Nima teriladi, topshiriladi, yigiriladi? 6. Nima yuguradi, chopadi, kishnaydi?

Qo'yish uchun so'zlar: *bola, bulbul, suv, ot, paxta, ona.*



**45-mashq.** *Matnni o'qing. Reja tuzing va shu asosida bayon yozing.*

### **HAYVONLAR SHIFOXONASI**

Shohruh maktabga olmaxon olib kelganda, sinfdoshlariga bayram bo'lib ketdi. Biroq, olmaxon negadir oyog'ini yerga qo'ya olmas edi. Buni payqagan bolalar uni maktabdagi «Hayvonlar shifoxonasi» burchagida davoladilar. Ularning g'amxo'rliги tufayli olmaxon sog'ayib ketdi.

Karimjon sinf xonasiga ko'chada qarovsiz qolgan kichkina itni olib keldi. Itning ovqat yemasligidan Karimjon tashvishda edi. Kuchukchani ham «Hayvonlar shifoxonasi»ga olib borishdi, uni astoydil parvarishlashdi.

### **Uyushiq bo'laklarning bog'lovchilar yordamida bog'lanishi**

Uyushiq bo'laklar o'zaro *va, ammo, lekin, biroq* bog'lovchilari bilan ham bog'lanadi.

Uyushiq bo'laklar *va* bog'lovchisi bilan bog'langanda, ular orasiga vergul qo'yilmaydi. Masalan: *Vatanimizda tog'lar va daryolar ko'p.*

Uyushiq bo'laklar **ammo, lekin, biroq** bog'lovchilari bilan bog'langanda, shu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: *Oy yoritadi, biroq isitmaydi.*

**46-mashq.** *Chiziqlar o'rniga mos bog'lovchilardan qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Orifjon tug'ilgan kuniga Furqat, Farhod \_\_\_\_\_ Nilufarni uyiga taklif etdi. 2. Bugun maktabga hamma bolalar keldi, \_\_\_\_\_ Anvar Karimov kelmadi. 3. Boqijon

qulog'igacha qizarib ketdi, \_\_\_\_\_ hech narsa demadi.  
4. Qishloqda maktab, bolalar bog'chasi, kutubxona \_\_\_\_\_ kasalxonalar qurildi. 5. Chol ikki tup terak niholini «Yaydoqtepa»ga o'tqazib keldi, \_\_\_\_\_ buni hech kim ko'rmadi.

*47-mashq. O'qing. Gapning uyushiq bo'laklarini toping. Qanday bo'laklar uyushib kelganini ayting. Bog'lovchilar yordamida bog'langan uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chiring.*

1. Bizning Vatanimiz boy va qudratli mamlakatdir. 2. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart! 3. Vatanimizda shaharlar, qishloqlar, mahallalar juda ko'p. 4. O'g'illari navbat bilan novdani sindirishga urinib ko'rinishibdi, lekin uddasidan chiqisha olmabdi. 5. Qadimda donishmand bir cholning yetti o'g'li bor ekan, lekin ular otalarining so'ziga kirmas ekanlar. 6. Yozda olma, olxo'ri, uzum pishadi.

*48-mashq. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chirib yozing.*

Qishlog'imizda katta bog' bor. Bog'da qizil, sariq, oq gullar ochilgan. Mevali daraxtlar – olma, o'rik, shaftoli gullagan. Ular shirin mevalar beradi. Sarvara, Gulnora, Charos va men bog'da ishladik.

*49-mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplar tuzib yozing.*

1. Avtomobil, mashina, uy, ro'zg'or, va, buyumlari, tayyorlanadi, zavodlarda. 2. Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, shahrimizda, bor, ko'chalari, va. 3. Biz, ko'rdik, oq ayiq, bo'ri, yo'lbars, maymun, va, hayvonot, bog'ida.

4. Bor, shahrimizda, tabiat muzeyi, kinoteatr, konsert zallari.

*50-mashq. Gaplarni o'qing. Uyushiq bo'laklarni toping. Qanday bo'laklar uyushib kelganini ayting. Kerakli o'rinlarda vergul qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Bir ovchi o'rmonga to'r qo'yib, qarg'a chug'urchiq kaptar va boshqa har xil qushlarni ilintirib oldi. 2. Oqsoy qishlog'ida Halim Salim Karim degan bolalar bor. 3. Cho'ponlar davlatga qancha jun go'sht yog' sut yetkazib berishni hisoblab ko'rdilar. 4. Salim yuvosh bola edi ikkala o'rtog'ining gapi g'ashini keltirdi. 5. Jamoa don-duni go'sht-yog'i asbob uskunalarini otamga ishonib topshirib qo'yibdi. 6. Ravshanjonning bobosi ketmon belkurak qo'larra oybolta tesha kabi asboblarni o'zlari yasaydilar.

*51-mashq. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni topib, uyushiq bo'laklarning o'zaro qanday bog'langanini ayting.*

## **BOBUR VA HUMOYUN**

Bobur dovyurak, epchil, kuchli va o'ta idrokli inson bo'lgan. U ona-yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan.

... Humoyun betob bo'lib qoldi. U tuni bo'yi alahlab behush yotdi.

Saroy tabiblari bu og'ir dardga hech bir davo topolmadilar. Og'ir paytlarda Boburga suyangan, undan yordam olishga o'rgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar, lekin hozir Bobur ham chorasizlikdan qiynalardi....

– Humoyun, jigarbandim. Sening betoqatligingga men toqat keltiray. Sening og‘ir dardingni menga bersin....

**52-mashq.** *Chiziqlar o‘rniga shu turga oid so‘zlardan topib qo‘ying.*

Gullar: *atirgul*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Daraxtlar: *chinor*, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Bolalar dasturlari: «*Oqshom ertaklari*», \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Istirohat bog‘lari: «*G‘afur G‘ulom*», \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

*Shu so‘zlardan qatnashtirib 2 ta gap tuzing.*

**53-mashq.** *O‘qing. Uyushiq bo‘laklarni aniqlang, qaysi bo‘lak uyushib kelganini ayting. Tinish belgilarni qo‘yib ko‘chiring.*

*A. Po‘latov*

*(Ertakdan parcha)*

– Qaydasanlar – bakovul  
Ayyor mirshab yasovul  
Qo‘rqoq g‘ilay karnaychi  
Cho‘loq pismiqliq surnaychi...

...Xotin-xalaj yosh-qari  
Yo‘lovchi hammol bari –  
Duradgor-u kemachi  
Dehqon ovchi podachi  
Aravakash kambag‘al  
Lang qotibdi shu mahal.

**54-mashq.** *O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Gaplarning chegarasini aniqlab, har bir gapning oxiriga nuqta qo'yib ko'chiring.*

### **JONAJON O'LKA**

Jonajon o'lka bu so'zlar zamirida qanchadan-qancha ma'no bor bu deganimiz odamlar, ularning mehnati, zavod-fabrikalar, go'zal shaharlar, qishloqlar, turar joylar demakdir o'z maktabingiz yonidagi, hovlingizdagi, xiyobonlar va bog'lardagi har bir tup daraxtni ehtiyot qiling va uni parvarishlab boring hayvonlar, qushlar, hasharotlar va boshqa tirik jonzotlar haqida g'amxo'rlik qiling.

**55-mashq.** *O'z sinfingiz haqida hikoya yozing. Yozgan hikoyangizda o'quvchilarning qiziqishi, ota-onalariga yordami aks etsin.*

### **? Savol va topshiriqlar**

1. Uyushiq bo'lak nima?
2. Gapning qanday bo'laklari uyushib keladi?
3. Gapning uyushiq bo'laklari o'zaro qanday bog'lanadi?
4. Uyushiq bo'laklar orasiga qay vaqtda vergul qo'yiladi?
5. Uyushiq bo'lakli gaplarga «O'qish kitobi»dan to'rtta gap topib yozing.

### **Qo'shma gaplar**

**56-mashq.** *O'qing. Berilgan gaplarni ko'chiring. Har bir gapdagi ega va kesimning tagiga chizing.*

#### **Sodda gaplar**

1. Tiniq osmonda yulduzlar charaqlaydi. Oy ko'rinmaydi.

2. Qirdan g'ir-g'ir shabada esdi. Ko'kda yulduzlar chamani ochila boshladi.

3. Mehmonlar tarqalib ketdi. Hovlida qarindoshlardan boshqa kishi qolmagan edi.

### **Qo'shma gaplar**

1. Tiniq osmonda yulduzlar charaqlar, ammo oy ko'rinmasdi.

2. Qirdan g'ir-g'ir shabada esdi, ko'kda yulduzlar chamani ochila boshladi.

3. Mehmonlar tarqalib ketdi va hovlida qarindoshlardan boshqa kishi qolmagan edi.

Ikki va undan ortiq sodda gapdan bog'lovchilar bilan (*va, ammo, lekin, shuning uchun*) yoki bog'lovchilarsiz **qo'shma gaplar** tuziladi.

Qo'shma gapdagi sodda gaplar **va** bog'lovchisi yordamida bog'lansa, sodda gaplar orasiga vergul qo'yilmaydi.

Masalan: *Bahor keldi va kunlar isidi.*

Qo'shma gapdagi sodda gaplar bir-biri bilan **ammo, lekin, biroq, shuning uchun** bog'lovchilari yordamida yoki bog'lovchilarsiz bog'lansa, sodda gaplar biri ikkinchisidan **vergul** bilan ajratiladi.

Masalan: *Nargiza mehmonga bordi, biroq dugonasini ko'rmadi. Men gullarni parvarish qildim, Salima yo'lkalarni supurdi.*

**57-mashq.** *Kerakli o'rinlarga vergul qo'ying, qo'shma gaplarni ko'chiring. Har bir sodda gapdagi ega va kesimning tagiga chizing.*

1. Qor tingan ammo quyosh bulutlar orasidan chiqmadi. 2. Birdan eshik ochildi va Bilol kirib keldi. 3. Ilg'or terimchilar erta tongda dalaga chiqdilar va chamanday ochilgan paxtalarni tera boshladilar. 4. Bedana yaxshi sayrardi ammo Qoravoy tushmagur bir kuni to'rqovoqdan olib yeb qo'yibdi. 5. O'ziniyam rosa koyidim lekin kaklikka qiyin bo'lyapti.

*58-mashq. Qo'shma gaplarni ko'chiring, ularning tarkibidagi sodda gaplarning chegarasini aniqlang, har bir gapning ega va kesimi tagiga chizing.*

1. Ko'p daraxtlar tamom yalang'ochlashdi, ammo pastak butalar hali yashil edi. 2. Kuchukcha ancha ozgandi, lekin terisi tekislashib, junlari mayinlashgan. 3. Uning qorni och edi, biroq mushuk ustalik bilan ov qildi. 4. Ba'zan u kichik jonivorlardan birontasini ovlardi, lekin ulkan gavadasi uchun bunaqa mayda narsa kamlik qilardi. 5. Kunduzi oftob chiqib, havo yaxshigina isir, lekin kechalari salqin edi. 6. O'qlardan sachrayotgan tuproq ularni hamon ta'qib etardi, shuning uchun ular tezlikni yana oshirdilar.

*59-mashq. Maqollarni o'qing. Avval sodda gaplarni, keyin qo'shma gaplarni ko'chiring. Zarur o'rinlarga vergul qo'ying.*

1. Oyni etak bilan yopib bo'lmas. 2. Egri ko'chadan yursang ham to'g'ri yur. 3. O'zingga ehtiyot bo'l qo'shningni o'g'ri tutma. 4. Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi. 5. Daraxt bir yerda ko'karar. 6. Yaxshi topib so'zlar yomon qopib so'zlar.

**60-mashq.** *Berilgan sodda gaplardan lekin, ammo, biroq, shuning uchun bog'lovchilari yordamida qo'shma gap tuzing.*

1. Komila xola juda keksayib qolgan. U gazeta va jurnallarni ko'zoynaksiz o'qiydi. 2. Qirda mayin shabada esmoqda. Birdan qattiq momaqaldiroq gumburladi. 3. Cho'pon bobo qo'ylarini qo'raga haydadi. Nabirasi Islom ko'rinmay qoldi. 4. Yomg'ir tingan. Mayin shabada g'ir-g'ir esadi. 5. Biroz qor yog'di. Sovuq bo'lmadi. 6. O'rgangan hunarlarimni barcha qizlar bilishi kerak. Har bir soatdan to'g'ri foydalanaman.

**61-mashq.** *Va, lekin, ammo bog'lovchilarini qatnashtirib, to'rtta gap tuzing.*

**62-mashq.** *Ko'chiring. Bog'lovchilarning tagiga chizing.*

1. Hamma yumush Nodiraga qolib ketgan, ammo biron marta «charchadim» demaydi. 2. Hozir Nodira o'n ikki yoshda, biroq bilmagan hunari yo'q. 3. Men masalaning shartini yozdim, lekin uni yecholmadim. 4. Ona tili darsini yoqtiraman, biroq menga matematikadagi aniqlik yoqadi. 5. Mushuk erkalanib asta miyovlardi, lekin qari it miq etmas edi. 6. Qo'shnisining gaplaridan To'la xolaning jahli chiqdi, ammo o'zini qo'lga oldi.

**63-mashq.** *O'qing. Chiziqlar o'rniga va, ammo, lekin, shuning uchun, biroq bog'lovchilaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Ra'no maktabga yaqin joyda yashaydi, \_\_\_\_\_ u maktabga piyoda boradi. 2. May oyidayoq yomg'irlar to'xtaydi \_\_\_\_\_ kunlar isiy boshlaydi. 3. Bahorda quyosh



kun sayin ko'proq isitadi, \_\_\_\_\_ bahor ob-havosi juda o'zgaruvchan bo'ladi. 4. Kunlar quyoshli, osmon bulutsiz bo'lsa ham, \_\_\_\_\_ tunda salqin tushadi. 5. Erta bahorda ko'pgina qishloq xo'jalik ishlari bajariladi \_\_\_\_\_ dalalarda bug'doy, chigit ekiladi.

**64-mashq.** *Lekin, biroq, shuning uchun bog'lovchilarining har biri ishtirokida bittadan gap tuzib yozing.*

**65-mashq.** *Hikoyani o'qing. Reja tuzing. Tuzgan rejangiz asosida bayon yozing.*

### **ODOBI HAM GO'ZAL BO'LSIN**

Nabiram Dilnoza bilan istirohat bog'ida sayr qilib yurgandim, bir payt yonimizdagi o'rindiqqa 5–6 ta qiz yugurib kelib o'tirib olishdi. Ular qattiq yugurganlaridan hansirar, nafaslarini rostlolmasdi. Biri qo'yib, biri chug'urday boshladi:

– Boplading-a?

– He, o'lsin burnini tiqmay.

– O'zicha melisa opkelyapti.

Ularning gap-so'zidan hech narsa tushunmadim. Qandaydir qiziqish bilan nima voqea yuz berganini o'zlaridan so'radim:

– Qizlar nima bo'ldi? Bitta-yarimtasi xafa qildimi?

– Biz muzqaymoq yeb, kulishib o'tirsak, bitta kitob o'qib o'tirgan olifto «qizlar sekinroq kulinglar, bu yer jamoat dam oladigan joy» deb aql o'rgatyapti. Achchig'im chiqib, yuziga muzqaymoqni otib yubordim. To'g'ri-da, unga kim gapirsin debdi. Bir mahal qarasak, melisa yetaklab kelyapti. Qochdik, – dedi ulardan biri.

Qizlar biri qo'yib biri qilgan ishlaridan mamnun bo'lib gapirishardi. Men esa so'raganimga pushaymon bo'lib, nima qilishga hayron edim. Nasihat qilay desam, menga ham muzqaymoq otguday shashti bor. Ming afsus bilan ulardan uzoqlashdim.

(«G'ulxan» jurnalidan)

**66-mashq.** *Qo'shma gaplarga 6 ta gap topib yozing.*

**67-mashq.** *Rasmni kuzating. Uning mazmunini so'zlang. Rasmdan foydalanib bog'lovchilar ishtirok etgan sodda va qo'shma gaplar tuzing va yozing.*



**68-mashq.** *Matnni o'qing. Sarlavha topib, reja tuzing. Reja asosida bayon yozing.*

Bahor keldi. Kunlar isidi, ba'zi daraxtlar barg yozdi, ba'zilari qiyg'os gulladi. Quyosh charaqlab turibdi. Jibljibonlar, qaldirg'ochlar uchib kelib, in qurishmoqda. Dalalar yam-yashil o'tlarga burkandi. Odamlar dalada ishlayapti.

# O'QUV YILI DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

---

*1-mashq. O'qing. Gaplarni quyidagi tartibda ko'chiring:  
1. Darak gap. 2. So'roq gap.*

1. Biz O'zbekiston nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan go'zal vatanda yashaymiz. 2. Vatanimiz keng va bepoyon. 3. Vatanimiz qanday nom bilan ataladi? 4. Vatanimizda yam-yashil vodiylar, baland tog'lar, daryo va ko'llar bor. 5. Shahar va qishloqlari tobora obod bo'lib ko'rkamlashmoqda. 6. O'zbekistonda qanday shaharlar bor?

*2-mashq. Har bir gapni ohangiga rioya qilib o'qing. Gaplarning qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

1. Sening isming familiyang nima? 2. Mening familiyam – Po'latov. 3. Isming nima? 4. Ismim – Kamol. 5. Vatanim taqdiri – mening taqdirim!

*3-mashq. O'qing. Har bir gapning ega, kesim va ikkinchi darajali bo'lagini so'roq berib aniqlang. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq, ikkinchi darajali bo'lakning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Alisher kitobni tutilmasdan o'qiydi. 2. Buvim Xumson qishlog'ida yashaydi. 3. Zahro quvnoq raqsga tushdi. 4. Bolalar qarsak chalishdi. 5. Kamola pecheniyni juda yaxshi ko'radi. 6. Bog'da bulbul sayrayapti.

**4-mashq.** *O'qing. Matnga sarlavha toping. Har bir gapning ega, kesim va ikkinchi darajali bo'lagini so'roq berish orqali aniqlang.*

Chumchuqcha ertalab turib patlarini yuvmasdan bir qari chumchuqning yoniga keldi. Salomini ham nasiya qilib, doniga sherik bo'ldi. Ko'p o'tmay chumchuqchanning onasi paydo bo'ldi.

–Chirq-chirq, nega patingni yuvmasdan cho'qiyapsan, – deb bolasini urishdi.

–Chirq-chirq, qornim tatalab ketgach nima qilay?

Shunda qari chumchuq ona chumchuqqa qarab dedi:

–Bolangiz qorni ochganda salomni ham donga qo'shib yutib yuborar ekan.

**5-mashq.** *She'rni ifodali o'qib, qoidaga rioya qilib ko'chiring.*

*Z. Obidov*

### **KUYLAYMAN**

U yon tashlab o'ynayman,  
Bu yon tashlab o'ynayman.  
Istiqloldan o'rgilay,  
Erk nash'asin kuylayman.

Chinorim o'ssin deydi,  
Oftobni to'ssin deydi.  
Yurt avjiga avj qo'shib,  
Bu ko'ngil jo'shsin deydi.

**6-mashq.** *Maqollarni o'qib, mazmunini tushuntiring. So'roqlar yordamida ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang.*

1. **Ona** yurtning omon bo'lsa,  
Rangi ro'ying somon bo'lmas.
2. Xalq **tinchligini** buzgan omon qolmas.
3. Ko'z **qo'rqoq**, qo'l **botir**.
4. Do'st so'zini **tashlama**,  
Tashlab boshing **qashlama**.
5. Zar qadrini **zargar** bilar.
6. **Hurmat** qilsang, hurmat ko'rasan.

*7-mashq. Quyidagi o'zaklarga o'zakdosh so'zlar tanlab birinchi qatordagidek yozing, o'zakni belgilang.*

Kasb – kasbdosh	bog' – bog'bon	odob – odobli
sinf –	paxta –	o'quv –
bilim –	uzum –	spotr –
xokkey –	g'alla –	futbol –

*O'zakdosh so'zlardan qatnashtirib, 3 ta gap tuzing va yozing.*

*8-mashq. Berilgan so'zlarga -la, -chi, -siz, -li, -zor, -kor, -dor, -bon qo'shimchalaridan mosini qo'shib, yangi so'zlar yasang va yozing. Shu so'zlar ishtirokida to'rtta gap tuzing.*

Ish, paxta, g'alla, gul, tuz, iz, hid, o'q, bug'doy, lavlagi.

*9-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirib, ulardagi so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchani tegishlicha belgilang.*

1. Bog'da turli gullar ochildi. 2. Bug'doydan un qilinadi.  
3. Ali mashqni o'qidi. 4. Qushlar – bizning do'stimiz.  
5. Barno kitobni havas bilan o'qiydi. 6. Bolalar hovlida  
o'ynadilar.

10-mashq. *O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, fe'llarni  
aniqlang.*

*Po'lat Mo'min*

### IKKI QO'LI CHO'NTAKDA

Kelar edi palonchi  
Ikki qo'li cho'ntakda.  
Bunaqasi uchramas,  
Hatto qadim cho'pchakda.

Undan ona bechora  
O'ksigani, o'ksigan.  
Salom bermas hech kimga  
Qo'lin qo'yib ko'ksiga.

Buni qarang dunyoda  
Ishlar qiziq ekan-da!  
Chiqararkan qo'lini  
Faqat ovqat yeganda.

11-mashq. *Maqollarni o'qib, mazmunini tushuntiring.  
So'roqlar yordamida ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z  
turkumiga kirishini aniqlang. Sonlarni o'zi bog'lanib kelgan  
so'z bilan birga yozing, tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. **Birni** birov beradi, **ko'pni** – mehnat. 2. Yer haydasang,  
kuz **hayda**, kuz haydamasang **yuz** hayda. 3. **Bir** yil tut  
ekkan kishi, **yuz** yil gavhar teradi. 4. Bozordan qolsang, **bir**

kun qolasan, ekishdan qolsang, **bir** yil qolasan. 5. Vaqtida **bir tomchi** suv – **bir** qadoq oltindan afzal.

**12-mashq.** *O'qing. Birlikdagi otlarni toping va ularni ko'plikka aylantirib yozing.*

### **QO'LI GUL ODAMLAR**

Anor opa non pishirar,  
Amir tog'a qand-u qurs.  
Usta Hasan bel yasaydi  
Bolg'a urib taqa-turs.

Abror aka yerni haydar,  
Tirillatib traktor.  
Oydin xola pishiradi,  
Kun ora yupqa, patir.

**13-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularning qo'shimchasini aniqlang.*

**Anvarjonga** bugun arg'imchoq yasab berishdi. Uzun **arqonni** baland yong'oq shoxiga osishdi. So'ng **Anvarjonni** rosa uchirishdi. **Anvarjonga** arg'imchoq juda yoqdi. U **o'rtoqlarini** ham **arg'imchoqda** uchirdi.

**14-mashq.** *O'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring, kelishik qo'shimchasining tagiga chizjng.*

### **UY HAYVONLARI**

Yer yuzida hayvonlar juda ko'p, lekin ularning ayrimlari inson bilan yonma-yon yashaydi. Bular uy hayvonlaridir. Uy hayvonlarining deyarli hammasi qishloq xo'jalik hayvonidir (sigir, qo'y, echki, ot). Uy hayvonlarining

ayrimlari odamning haqiqiy do'stidir. Ular uyimizni qo'riqlaydi, poda boqadi, o'z egasini himoya qiladi, chegarada chegarachilarga yordam beradi.

**15-mashq.** *O'qing. Kelishik qo'shimchalarini olgan so'zlarni belgilang.*

*O'. Qo'ldoshev*

### NON

Umrim aziz non bilan,  
Uvog'ing surtgum ko'zga.  
Uning har zarrasini  
O'xshataman yulduzga  
Istaklarim umrimga  
Hamroh erur har qachon –  
Tandirlarda toblangan  
Quyosh yuzli patir non.

**16-mashq.** *Vatan, Samarqand, Buxoro, tog', kitob, daftar otlariga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini qo'shib, ular ishtirokida gaplar tuzing.*

*O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan otlarning aytilishi va yozilishini tushuntiring.*

**17-mashq.** *Uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan ajratib, matnni o'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chirib yozing.*

1. Transportda o'zini tuta bilish, sekin gaplashish kerak. 2. Yosh bolali ayollarga, keksalarga joy bering. 3. Ekskavator, kombayn, samosval, buldozer odamlar mehnatini yengillashtiradi. 4. Kitobni e'zozlang va seving. 5. Toshkent go'zal, bog'-u bo'stonlarga boy shahar.



**18-mashq.** *O'qing. Har bir gapdagi ega va kesimni aniqlang.*

1. Barnoxon, siz Dilfuza opani taniysizmi? 2. Bilol, tur xolang keldi. 3. Qizlarim, bugun «San'at muzeyi»ga boramiz. 4. Kamola, siz bog'larni aylanib chiqing. 5. Nilufar, yangi hovlimiz senga yoqdimi? 6. Xola, siz bu yerda kimni kutib turibsiz?

**19-mashq.** *Maqollarni o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang va tagiga chizing.*

1. Sodiq va vafodor do'st o'z do'stini ranjitmaydi. 2. Dushmandan qo'rqma, munofiqdan qo'rq. 3. Do'stlik sinovda chiniqadi. 4. Birliksiz kuch bo'lmas. 5. Oq bo'lsang, ont ichma. 6. Qo'rqmasang yov qochar.

# ISH QOG‘OZLARIDAN NAMUNALAR

---

## Xat namunasi

### XAT

Assalomu alaykum buvijon!

Sog‘ – salomat yuribsizmi? Buvam, amakim, jivanlarim yaxshi yurishibdimi?

Ayam, dadam, ukam, akam yaxshi yurishibdi. Ayam, dadam har kuni ishga borishadi. Ukam va akam maktabda o‘qishmoqda, o‘qishlari yaxshi. Yaqinda akam sport musobaqasiga qatnashib, birinchi o‘rinni olib keldilar. Hammamiz xursand bo‘ldik.

Salom bilan nabirangiz Nilufar.

Sana

## E‘lon namunasi

### E‘LON

Hurmatli ota-onalar!

Shanba kuni 15-noyabr soat 17.00 da ota-onalar majlisi bo‘ladi. Kelishingizni so‘raymiz.

157-maktab rahbariyati.

## Ariza namunasi

Toshkent shahar  
Mirzo Ulug‘bek tumani  
«Sport majmuasi» direktori  
S. U. Karimovga  
154-maktab o‘quvchisi  
A. Abdullayevdan

### ARIZA

Meni «Sport majmuasi»ga gimnastika turi bo‘yicha mashg‘ulotlarga qatnashishimga ruxsat berishingizni so‘rayman.

Tibbiy ko‘rikdan o‘tganligim haqida ma‘lumotnomani taqdim etmoqdaman.

Sana, imzo.

## Taklifnoma namunasi

### TAKLIFNOMA

Hurmatli ustozlar va o‘quvchilar!

7-martda kuni soat 14<sup>00</sup> da faollar zalida «Onajonim-mehribonim» mavzusida bayram tadbiri bo‘ladi. Hammangizni taklif etamiz.

7-«A», 8-«A» sinf o‘quvchilari.

# LUG'AT

---

## A

alifbo  
arra  
avtobus  
arbob  
a'zo

## B

beshik  
badantarbiya  
bebaho  
badjahl

## D

dunyo  
daha  
do'st  
dalolat

## E

elat  
el  
ellik  
ekin

## F

fazilat  
fikr

faqir  
fayz

## G

gavhar  
gina

## H

hamshira  
hasharot

## I

iste'mol  
ibora  
insof  
iroda

## J

jamiyat  
jahon  
jarayon  
jamg'arma

## K

kasb  
kasbdosh  
kamtar  
kamina

kamalak  
kamolot

## L

latifa  
lagan  
lift  
laylak

## M

mahalla  
modda  
mard  
mahsi  
motamsaro

## N

novvot  
novda  
nafas  
naqd  
naqsh

## O

odob  
oymoma  
oftob  
oydin  
omad

**P**

pilla  
parvarishlaydi

**Q**

qo'g'irchoq  
qaymoq  
quymoq  
qayiq

**R**

rassom  
rahmat  
radio  
rahm

**S**

salla  
sayohat  
solnoma  
sajdagoh

**T**

tilla  
to'rtko'z  
tabib  
tartib  
talaba

**U**

urf  
uzr  
umr  
udum

**V**

valida  
viloyat  
varrak  
vazifa

**X**

xumdon  
xususiy  
xaridor  
xavf

**Y**

yulduz  
yuz  
yurak

**Z**

zarra  
zina  
zovur

zamon  
zamin

**O'**

o'rdak  
o'tkir  
o'tin  
o'n

**G'**

g'ijjak  
g'arq  
g'arb  
g'alva  
g'aroyib

**Sh**

shifokor  
shudgor  
shashka  
shuhrat  
shamol

**Ch**

chumoli  
chaman  
cho'pon  
chiroyli

---

---

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar ensiklopediyasi. – T.: «Sharq» NMAK, 2009.
2. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 1996.
3. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2002.
4. Z. Valiyeva, Y. Muhibov. – T.: Iqtisod alifbosi, 1996.
5. «G'uncha» davriy jurnallari.
6. S. Rizoyev. «Qaldirg'och». – T.: Kamalak, 1994.
7. «Gulxan» davriy jurnallari.
8. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2014, 144 b.
9. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2013, 192 b.
10. А. Пўлатов. Ойбарчин чизган расм. – Т.: «Ёш гвардия», 1985, 48 б.
11. А. Пўлатов. Мактабда холни ўрганиш. – Т.: «Ўқитувчи» 1978, 76 б.
12. М. Набиев ва бошқ. Шифобахш неъматлар. – Т.: «Меҳнат», 1986, 135 б.
13. P. Mo'min. Ertalabki assalom. – T.: «Sharq» NMAK, 1998. 128 b.
14. А. Аксенова, Э. Якубовская. Дидактические игры на уроках русского языка в 1–4 классах вспомогательной школы. – М.: «Просвещение», 1991, 176 с.
15. Ўқувчи календари. Ўзбекистон табиати. – Т.: Союз журналов Узбекистана, 1987, 48 б.

# MUNDARIJA

---

<b>TAKRORLASH</b> .....	4
Sodda va qo'shma gaplar .....	4
Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari .....	6
Gapning maqsadiga ko'ra turlari .....	8
<b>SO'Z</b> .....	11
So'z tarkibi .....	11
O'zak va o'zakedosh so'zlar .....	11
So'z yasovchi qo'shimchalar .....	13
So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar .....	15
So'z turkumlari .....	19
Ot – so'z turkumi .....	25
Atoqli va turdosh otlar .....	27
Birlik va ko'plikdagi otlar .....	28
Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi .....	29
Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi .....	38
Bosh kelishik .....	46
Qaratqich kelishigi .....	48
Tushum kelishigi .....	50
Jo'nalish kelishigi .....	53
O'rin-payt kelishigi .....	57
Chiqish kelishigi .....	60
Qo'shma otlar .....	66
Juft otlar .....	68
Qisqartma otlar .....	70
Sifat – so'z turkumi .....	71
Sifat darajalari .....	75
Oddiy daraja .....	76
Qiyosiy daraja .....	77
Orttirma daraja .....	78
Son – so'z turkumi .....	81

Qo'shma sonlar .....	86
Juft sonlar.....	87
Olmosh – so'z turkumi.....	89
Kishilik olmoshlari .....	90
Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi.....	92
Fe'l – so'z turkumi .....	97
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar .....	102
Fe'l zamonlari.....	106
O'tgan zamon fe'li.....	107
Hozirgi zamon fe'li .....	108
Kelasi zamon fe'li.....	109
Fe'llarning tuslanishi.....	111
O'tgan zamon fe'lining tuslanishi.....	112
Hozirgi zamon fe'lining tuslanishi .....	113
Kelasi zamon fe'lining tuslanishi .....	114
Fe'llarning yasalishi .....	115
Fe'l yasovchi qo'shimchalar .....	115
Qo'shma fe'llar .....	117
<b>NUTQ VA GAP .....</b>	<b>118</b>
Gapning maqsadga ko'ra turlari .....	118
Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari.....	122
Sodda yoyiq gaplar .....	124
Bog'lovchilar .....	126
Gapning uyushiq bo'laklari.....	130
Uyushiq bo'laklarning bog'lovchilar yordamida bog'lanishi.....	136
Qo'shma gaplar.....	140
<b>O'QUV YILI DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH .....</b>	<b>146</b>
<b>ISH QOG'OZLARIDAN NAMUNALAR .....</b>	<b>153</b>
Xat namunasi .....	153
E'lon namunasi.....	153
Ariza namunasi.....	154
Taklifnoma namunasi.....	154
<b>LUG'AT .....</b>	<b>155</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>157</b>



**Sh. Karimova, O. Maxmudova, D. Akbarova, G. Azimova**

## **ONA TILI**

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 7-sinfi uchun darslik  
(Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun)*

**Muharrir T. Nazarov**  
**Texnik muharrir S. Salixova**  
**Badiiy muharrir J. Gurova**  
**Musahhih Sh. Ilhombekova**  
**Kompyuterda tayyorlovchi E. Kim**

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.  
Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.

Bosishga 2015 yil 27 iyulda ruxsat etildi. Bichimi 70×90<sup>1/16</sup>.  
Ofset qog'ozi. «SHKOLNAYA» garniturasi. Kegli 14.  
Shartli bosma tabog'i 10,0. Nashr tabog'i 8,0. Adadi 998 nusxa.  
Buyurtma №15-545.

«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.



Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



ISBN 978-9943-4317-6-8



9 789943 431768